

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

D. N. ARZIQULOV

MADANIYATSHUNOSLIK

Ma'ruzalar kursi

Toshkent – 2012

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

Mas’ul muharrir:
Tarix fanlari doktori, professor **N.U. Musayev**

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy universiteti prorektori falsafa fanlari nomzodi, dotsent **B. Husanov**;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi falsafa va politologiya kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari falsafa fanlari nomzodi, dotsent **H. B. Saitxadjayev**;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi psixologiya va kasb etikasi kafedrasi dotsenti psixologiya fanlari nomzodi **R. X. Dushanov**

Arziqulov D. N.

A-80 Madaniyatshunoslik: Ma’ruzalar kursi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 136 b.

Ushbu ma’ruzalar kursida madaniyatshunoslik fanining maqsadi, vazifalari, jahon madaniy taraqiyotining asosiy qonuniyatları, o‘zbek milliy madaniyatini rivojlantirishning ma’naviy-ma’rifiy asoslari, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, uning jahon madaniyati rivojida tutgan o‘rni hamda islom madaniyati va uning diniy ekstremizm hamda fundamentalizmga qarama-qarshiligining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

«Madaniyatshunoslik» fanining o‘quv dasturida nazarda tutilgan mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan mazkur ma’ruzalar kursidan O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchi va kursantlari, tadqiqotchilari, shuningdek, madaniyatshunoslik masalalari bilan qiziqqan barcha kitobxonlar foydalanishi mumkin.

BBK 87.7ya73

SO‘Z BOSHI

Madaniyatshunoslik fani O‘zbekistonning davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgandan keyin respublikamiz oliv o‘quv yurtlarida alohida fan sifatida o‘qitila boshlandi.

Madaniyatshunoslik fani yangicha fikrlashni, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi fan sifatida O‘zbekistonning milliy tiklanishida, ta’lim-tarbiya tizimida muhim o‘rin tutadi.

Shunday ekan, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonini, uning kelgusidagi taraqqiyotini vatanparvar, imone’tiqodli, mehr-oqibatli, o‘z kasbini sevuvchi, yuksak madaniyat sohibi bo‘lgan kishilarsiz tasavvur etish qiyin. Binobarin, hozirgi kunda buyuk kelajagimizning ana shunday bunyodkorlari va egalarini tarbiyalashdek mas’uliyatli masala alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz ajdodlarimizdan o‘tib kelayotgan madaniy-ma’naviy qadriyatlarni o‘z tajribalarimiz bilan to‘ldirib, rivojlantirib boramiz va keljak avlodlarga meros qilib qoldiramiz. Bu – umumbashariy ahamiyatga molik uzlucksiz jarayon. Hozirgi murakkab dunyoda inson, uning hayoti, ezgulik, mehr va muruvvat, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik, tinchlik, do‘stlik, baxt-saodat, vatanparvarlik kabi eng oliv umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashimiz zarur.

Madaniyatshunoslik tinglovchilar tafakkurini turli tarixiy davrlar madaniyatları va ijtimoiy guruhlarning urf-odatlari, turmush tarzi to‘g‘risidagi bilimlar bilan boyitadi. Tarixiy va gumanitar bilimlarni tartibga keltiradi, ijtimoiy hayot voqeliklarini yagona mazmun asosida anglashga yordam beradi. Ko‘plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligini ko‘rsatadi. Shuningdek, u kishilarning fuqarolik va ma’naviy yetuklikka erishishlarida, fikrlar va qadriyatlar plyuralizmini ko‘ra bilish qobiliyatini hosil qilishda juda muhimdir.

Madaniyatshunoslik kursi tarix, falsafa, sotsiologiya, etnografiya, ijtimoiy psixologiya kabi bir qator fanlar zamirida vujudga kelgan yangi ijtimoiy-gumanitar fan hisoblanadi. Uning izlanish obyekti ijtimoiy voqelik hisoblangan madaniyat va inson hayot tarzi hisoblanadi. Unda madaniyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, jamiyatda amal qilishi bilan bog‘liq masalalar, qadriyatlarning jamiyat hayoti va rivojlanishidagi o‘rni, ularning o‘zaro aloqalari o‘rganiladi.

Shu asnoda «yurtimizda millatlar va dinlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash, ma’naviy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish, tarixiy ildizlarimizga, milliy o‘zligimizga qaytish, aholining siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarimiz muhim ahamiyat kasb etganini ta’kidlashimiz lozim»¹.

Madaniyatshunoslik — madaniyat rivojlanishining eng umumiyligi qonuniyatlarini o‘rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning jamiyat hamda kishilarining ma’naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi.

Madaniyatshunoslik ijtimoiy fan hisoblanib, unga xos bo‘lgan xususiyat – insonning madaniy hayot hodisasini tizimli tartibga solib yondashishdir. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o‘zida mujassam qilgan holda namoyon bo‘lishi bilan birga, bilishning o‘ta murakkab obyekti hamdir.

Ushbu ma’ruzalar kursining yaratilishida M.Abdullayev, E.Umarov, E.Gulmetov, N.U.Musayev, N.I.Azimov va X.J.Xudoyqulov, R.O’.Baratov, A.Mavruvlarning madaniyatshunoslik faniga oid asarlaridan keng foydalanildi.

Mazkur ma’ruzalar kursi madaniyatshunoslik sohasidagi barcha bilimlarni qamrab ololmaganligi tabiiy. Shunday bo‘lsa-da, ichki ishlar vazirligi oliy ta’lim muassasalarining tinglovchi va kursantlari, professor-o‘qituvchilari hamda amaliyotchi xodimlarini yuksak kasb madaniyatiga ega bo‘lgan vatanparvar, xalqparvar insonlar qilib tarbiyalash ishiga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т., 2007. – 28-б.

1-MAVZU. MADANIYATSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. «MADANIYAT» TUSHUNCHASINING TALQINI

- ∞ *Madaniyatshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari*
- ∞ *Madaniyatning inson va jamiyat hayotidagi o'rni*
- ∞ *Madaniyatshunoslik fanining ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatidagi ahamiyati*

1. Madaniyatshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Madaniyat juda qadim zamonlarda mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida insonda go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va fidoyilik tushunchalari kengaydi. Zero, Prezident I.Karimov ta'biri bilan aytganda, «inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi»¹.

Insoniyat sivilizatsiyasida jamiyat vujudga kela boshlashi bilan ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa, fan va madaniyat rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Faylasuf olimlar, mutafakkir allomalar olam va odam haqida, xudo va koinot haqida, ilm-fan, taraqqiyot va din haqida fikr yuritishdi. Shuningdek, iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalqning orzu-istiklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oljanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Ularda xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari o'z ifodasini topdi. «Xalqning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini mensimaslik elni juda ranjitadi»². Madaniyat odamlarda yuksak fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi.

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – 90-б.

² Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2012. – 177-б.

Madaniyat nazariyasi, jahon madaniyati, uning tarixini o‘rganish, taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o‘tmish avlodning hayotiy tajribalarini o‘rganish, ularning g‘oyaviyestetik, diniy, mafkuraviy, ilmiy qarashlarining shakllanishini bilish natijasi o‘laroq, XX asrning 50–60- yillarida madaniyatshunoslik faniga asos solindi. Uning asoschilaridan biri bo‘lgan amerikalik olim L. O. Uayt (1900–1975)ning «Madaniyat to‘g‘risidagi fan» (1949), «Madaniyat evolutsiyasi» (1959), «Madaniyat tushunchasi» (1973) asarlarida madaniyatshunoslik faniga asos solingani, uning mustaqil fan sifatida bir tizimga keltirilganini ko‘rish mumkin¹.

Bugungi kunda umuminsoniy qadriyat, insonlar amaliy faoliyatining natijasi sifatida antropologik madaniyatning shakllanganligini ko‘ramiz. Shu bilan birga, bu fan alohida xalqlarning, millatlarning madaniyatini ham o‘rganmoqda. Zero, madaniyatning mazmun va mohiyatini o‘rganish ayrim xalqlarning milliyligi, o‘ziga xos betakrorligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Madaniyatshunoslik fani madaniyat tizimi haqidagi fan ekan, bu tizim barcha xalqlar madaniyatining durdonalaridan tashkil topadi. Uning vujudga kelishi madaniyatning inson hayoti va jamiyatdagi ahamiyatini anglab yetish bilan izohlanadi. Fanda to‘plangan ko‘plab faktlar shuni ko‘rsatadiki, madaniyat jamiyat hayotining barcha sohalarida amal qiladi, ijtimoiy taraqqiyotning yo‘nalishi, dinamikasini belgilaydi.

Madaniyatni anglab yetish ijtimoiy hayotda iqtisod va siyosatni mutlaqlashtirish tamoyiliga keskin zarba beradi. U yoki bu darajadagi iqtisod va siyosat shakllari, tizimlari turli madaniyat turiga qarab, har xil namoyon bo‘lishi mumkin. Shuningdek, madaniyat turlari u yoki bu iqtisod, siyosat shakllarini vujudga keltiradi. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning «O‘zbek modeli» o‘z madaniyatimiz, an’analrimiz, milliy ma’naviyatimizni hisobga olgan holda, o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘lni vujudga keltirdi.

U yoki bu xalqning milliy madaniyati ijtimoiy hayotning muayyan shakli, hayotning turli sohalarini tashkil etishning yangi mexanizmi bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatmoqda. **Demak, madaniyatni tahlil qilish hayotning barcha sohalari mazmunini ochib berish bilan uzviy bog‘liqdir.**

Yangi jamiyat qurar ekanmiz, uning yo‘nalishi va kelajagi haqida fikr yuritar ekanmiz, madaniyatimizning real borlig‘idan, uning muayyan

¹ *Худойқулов Х.Ж., Баратов Р.Ў. Маданиятшунослик.*, – Т., 2008. – 7-6.

tarzda namoyon bo‘lishidan uzoqlasha olmaymiz. Balki uning ichki mantig‘iga kirib boramiz.

Madaniyat ijtimoiy hayotning bir butun tarzda tashkil topishini ko‘rsatib beradi.

Insonlarning turlicha qarashlari, fikr va xayollari, faoliyatlarini madaniyat tizimida birlashadi, tartibga tushadi. Bu esa, jamiyatning tartibga tushgan tizimini tashkil etadi. *Madaniyat tizimining bir butunligi va uning turlicha ifodalananishini, umuminsoniy madaniyat bilan milliy madaniyatning uyg‘unligini tahlil qilish madaniyat falsafasining vazifasidir.*

Madaniyat falsafasi ijtimoiy hodisalarning umumiy yo‘nalishi, dinamikasini falsafiy anglashga qaratilgan bo‘lib, madaniyatning ilmga, axloqiy fazilatlarga, dinga umid qilishini, ularning muvofiqligi va o‘zaro birligini o‘rganadi. Shuningdek, madaniyat falsafasi insoniyat ma’naviy dunyosining o‘zaro aloqadorligini o‘rganadi. Madaniyat moddiylashadi, bu jarayon inson ma’naviy borlig‘iga kirib borgandagina inson mohiyatiga aylanadi. U hayot qalbi bilan yashaydi.

Madaniyat inson ijodi bilan birga yashaydi, uning faoliyati borliqqa kirib boradi. Shuning uchun insoniyat yaratgan me’moriy yodgorliklar, adabiyot, ashula va raqs, musiqa madaniyati, tasviriy san’at va madaniyatning boshqa turlari inson ruhiy dunyosiga kirib borishga imkon beradi.

Madaniyat inson mavjudligining (ekzistensiyasi) asosiy yadrosi sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha inson ma’naviy-axloqining pozitsiyasini belgilaydi; bu uni insoniylikka qarab yetaklaydi. Nemis faylasufi I. Kant ta’biri bilan aytganda, insonni falsafiy tushunish madaniyatni anglab yetish demakdir. Madaniyatni anglash insonning dunyoda tutgan o‘rni, atrof muhitga va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatlarini falsafiy tushunishning shartidir.

Madaniyat falsafasi donolik ilmi sifatida madaniyatning ruhiy holati (refleksiyasi)ni namoyon qiladi, bu holatni ratsional (aqliy) – nazariy tafakkur doirasida tahlil qiladi, madaniyatning bir butunligini, umumiy yo‘nalishlarini o‘rganadi, madaniyatning ma’no va ahamiyati, turli ko‘rinishlari haqida fikr yuritadi.

Madaniyatshunoslik — madaniyat rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insoning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning ma’naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Uning tadqiqot manbai bo‘lib quyidagilar xizmat qiladi:

- inson yaratgan san’at sohasi;
- kishilarning muomala vositasi bo‘lgan til;
- jamiyat boyligi va mezoni bo‘lmish bilim;
- ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tashkilotlar;
- jamiyatda sodir bo‘luvchi demografik va etnik jarayonlar¹.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo‘lgan xususiyat - insonning madaniy hayot hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o‘zida mujassam qilgan holda namoyon bo‘lishi bilan birga, bilishning o‘ta murakkab obyekti hamdir.

Madaniyat — insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuigina bo‘lib qolmay, ayni paytda, u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya’ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig‘indisi madaniyatda gavdalanadi.

Madaniyatni o‘rganishda obyektiv qonuniyatlar, hodisalar, sababli bog‘liqlik haqidagi an’anaviy tasavvurlardan foydalanmaslik ham mumkin. Umumiylar soha sifatida маданиятга тизимли yondashuv bir-biriga ta’sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o‘ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo‘lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilishga imkon beradi.

Madaniyatshunoslik fanining quyidagi bo‘limlari mavjud:

1. Madaniyat falsafasi – madaniyatdagi murakkab va ko‘p maqsadli jarayonlarni tahlil qilishda yondashuvning eng umumiylarini namoyon qilib, qiyosiy tahlil va tasniflashga asoslanadi. Madaniyatni falsafiy anglash, falsafiy asoslash bilan bog‘liq materialistik, pozitivistik, obyektiv idealistik va boshqa ko‘plab qarashlar mavjud. Ularning har birida insonning tabiat va ijtimoiy guruh (sotsium) olamida jismoniy, ma’naviy va ruhiy hayot faoliyatining shakllanishi va rivojlanishini nazariy tushuntirish usullari va o‘ziga xos tahliliy uslublari ishlab chiqilgan.

2. Madaniyatning tuzilish shakli (morfologiyasi) – insonga bog‘liq bo‘limgan va jamiyatda mustaqil mavjud bo‘lgan madaniyatning o‘ziga xos shakli uning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Madaniyat rivoji jamiyatning ichki qonuniyatlariga o‘zar bog‘liqdir, deb hisoblovchi madaniyat morfologiyasi taqqoslash,

¹ Гулметов Э., Маврулов А., Кобилжонов В. Маданиятшунослик. – Т., 2008. – 6-б.

tahlil va boshqa uslublar asosida madaniyat rivojlanishining manbai va omillarini ochishga urinadi. Uning mavjudlik davri u yoki bu madaniyatning paydo bo‘lishidan to inqirozigacha davom etadi.

3. Madaniyat sotsiologiyasn — biron-bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniq jarayonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi; bu har xil sotsiologik axborotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyat jarayonini empirik (tajriba) tadqiq qilishda muayyan madaniyat sharoitida kishilarning o‘zaro munosabatlarida, sotsiomadaniyat toifalarida namoyon bo‘ladi.

4. Madaniyat tarixi – har bir madaniyatni noyob va asl hodisa sifatida o‘rganadi; shuningdek, turli madaniyatlarni o‘zaro taqqoslaydi, ularning o‘zaro munosabati va o‘zaro ta’siri, zamon va makondagi ularning farqlarini, madaniy taraqqiyotidagi o‘ziga xos va umumiy jihatlarni tadqiq etadi.

5. Madaniyat ekologiyasi — zamonaviy inson hayot faoliyatining barcha sohalarini: insonning individual hayoti, jamiyat hayoti, tabiat bilan o‘zaro munosabatlarini qamrab oladi. Bu madaniyatshunoslik tadqiqotidagi eng yangi faol rivojlanayotgan sohalardan biridir.

Madaniyatshunoslik fanining asosiy muammosi inson hisoblanadi, zero, **madaniyat** — **inson yaratgan narsalardir**. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo‘lishini, shaxsning ijtimoiy va madaniy rolini, madaniyatlar tipologiyasini o‘rganadi.

Madaniyatshunoslik fani madaniyatni ilmiy izohlab, uning umumtarixiy mazmuni va ma’nosini belgilaydi, ijtimoiy-tarixiy bilimlar tizimidagi o‘rni va mavqeini asoslaydi.

«**Madaniyat**» atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarda rang-barang ma’nolarda ifodalangan. «**Madaniyat**» va «**Kultura**» atamalari mutaxassislar fikriga ko‘ra, ayni ma’noni anglatib, lotincha «ishlov berish», «parvarish qilish» ma’nosini anglatgan. Keyinchalik «ma’rifatli bo‘lish», «tarbiyalı», «bilimli bo‘lish» mazmunida ishlatilgan. O‘zbek tilida keng qo’llaniladigan «**madaniyat**» atamasi arabcha «**madaniy**» («**shaharlik**») degan ma’noni bildiradi.

Agar amerikalik madaniyatshunos olimlar A. Kreber va K. Klakxonlarning 1952 yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, madaniyat hodisa-siga berilgan ta’rif 164 ta bo‘lsa, so‘nggi adabiyotlarda bu raqam 400 dan ortiqni¹ tashkil etadi.

¹ Керман Л. Ч. История культуры стран Европы и Америки. – М., 1987. – С. 14.

Madaniyat hodisasi keng ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, ta'sirlar ostida o'zgaradi va jamiyatga ham shunday ta'sir ko'rsatadi. Natijada madaniyatning turli funksiyalari vujudga keladi:

1. Tarbiyaviy vazifasi: muayyan (jamiyat o'zi uchun kerakli bo'lgan, o'zi istagan) shaxsni shakllantirishga mo'ljallangan. Boshqacha aytganda, jamiyat qo'ygan muayyan vazifalarni singdirish yo'li bilan jamiyat talabidagi shaxsni tarbiyalash. Madaniyat jamiyat rivojlanishi yo'lidagi talablarni qondiradi.

2. Gnoseologik (olamni o'zlashtirish) funksiyasi: bu funksiya yordamida madaniyat kishini biron-bir faoliyat olib bora olishi uchun, tabiatni, olamni o'zlashtira olishi uchun muayyan bilimlar bilan qurollantiradi.

3. Normativ funksiya. Uning mazmuniga jamiyat a'zolari xulqini nazorat qilish kiradi. Ma'lumki, kishidan muayyan xulq, odob-axloq normalariga rioya qilish talab qilinadi, tabiiyki, bu xulq normalari vaqt o'tishi bilan kishining hayot tarziga aylanadi. Bu ijtimoiy normalarni shakllantirish madaniyatning normativ funksiyasiga kiradi, ya'ni ularni shakllantirishni madaniyatning normativ funksiyasi o'z zimmasiga oladi. Bu funksiya an'ana, millat ruhiyati, jamiyat etikasi kabi shakllarni ham o'z ichiga oladi.

4. Axborotlarni o'zlashtirish va yig'ish funksiyasi xabarlarni yig'ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarni narsalarga yozish (qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, ohanrabo yoki raqamli yozuvlar) bo'lishi mumkin. Har qanday holatda axborotlarni tashkil qilish, uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilar tizimi zarur. Hozirgi davrda til belgilar tizimining keng qo'llaniladigan va o'ta ahamiyatlisi bo'lib qolmoqda.

5. Kommunikativ funksiya (aloqa, almashuv) – mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashish. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, axborot, o'zaro amaliy hamkorlikni taqozo qiladi Chunki faqat turli tiplarning munosabati (an'anaviy, funksional-ahamiyatli, shaxslararo, ishlab chiqaruvchi, ma'rifiy-madaniy) jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga qodir. Bu funksiyalar majmuasi jamiyatda madaniyatning yashashi va rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyat hodisasi tavsifida juda ko‘p izohlar mavjud «insoniyatning yashash usuli; ijtimoiy insonning to‘laqonli faoliyati», «inson tomonidan yaratilgan muhit», «yaxlit sotsial organizm», insoniyat yaratgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmui; sun’iy – ikkinchi tabiat; inson ijodiy faoliyati mahsuli; umuman jamiyat; jamiyatning ma’naviy holati; jamiyat sifati; shartli belgilar tizimi yig‘indisi; me’yor va andozalar va hokazo.

2. Madaniyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni

Madaniyatshunoslik fani tarix, falsafa, sotsiologiya, etnografiya, sotsial psixologiya kabi bir qator fanlarning kesishuvida vujudga kelgan, yangi sotsial gumanitar fan hisoblanadi. Uning tadqiqot obyekti ijtimoiy voqelik bo‘lgan madaniyat va inson hayoti uslubi hisoblanadi. Unda madaniyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, jamiyatda amal qilinishi bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida, madaniyat qoidalari institatlarning, qadriyatlarning jamiyat hayoti va rivojlanishidagi o‘rni, o‘zaro aloqalari jarayonlari o‘rganiladi.

Forobiy «**Aql ma’nolari haqida**» risolasida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan esa, tashqi ta’sir – ta’limtarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat-ruhiy kuch bilan bog‘liq.

Forobiyning aql, umuman bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi. Uning fikricha, «Mantiq san’ati kishiga shunday qonunlar haqida ma’lumot beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog‘lom fikr yuritishga o‘rganadi». Olim mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtaraklikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘irlab turadi.

Mutafakkirning ta’kidlashicha, «**Aqli deb shunday kishilarga aytildiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo‘lganlarni aqli deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim**»¹.

¹ Маънавият юлдузлари. – Т., 1999. – 67-6.

Forobiy o‘rtalari sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta’limot yaratdi. Bu ta’limotda madaniyatli jamiyatning ko‘p masalalari – davlatni boshqarish, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifat, diniy e’tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Ma’lumki, inson, uning tabiatini va imkoniyatlari to‘g‘risidagi masala asosiy masalalardan biridir. Tabiatning mavjudlik qonuni xilma-xil bo‘lganidek, insonning ichki tabiatini, ya’ni madaniyati ham tabiiy muhit, ijtimoiy borliq va tarixiy davrlar ta’sirida doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarish faqat ilgarilab borish, yangi qadriyatlarning vujudga kelishidangina iborat emas. Bu biron-bir sohadagi buzilishlar, inqiroziy alomatlarning kuchayishi bilan ham tavsiflanishi mumkin. Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotining tabiiy muhitga, ma’naviy hayotga va boshqa sohalarga salbiy ta’siri fikrimizning dalilidir.

G‘arbiy Yevropada «madaniyat» tushunchasi XVIII asrning oxiridan e’tiboran hozirgi mazmunini kasb etgan bo‘lsa-da, faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar kategorial tizimidan mustahkam o‘rin oldi. Kishilik jamiyatining beqiyos ko‘lamga ega va doimiy ravishda o‘zgarib boruvchi ma’lumotlarni muayyan tartibga solishga yordam beruvchi, umumlashtiruvchi tushunchalarga bo‘lgan ehtiyoji «madaniyat» tushunchasining keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Qadimgi Rimda «madaniyat» tushunchasidan «hayotni ma’naviy jihatdan yanada yaxshilashga va tozalashga qaratilgan g‘amxo‘rlik» degan ma’noda ham foydalangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, mashhur Rim faylasufi va notiq Sitseron ham «ruhiyat madaniyati» atamasini ishlatgan. Evropa xalqlarida XVIII asrning oxirlarigacha «madaniyat» atamasi «aqliy-axloqiy madaniyat» tushunchasi bilan yonma-yon ishlatilgan. Ko‘rinib turibdiki, «Madaniyat» tushunchasi xilma-xil talqiniga qaramay, qadimdan hozirgi kungacha o‘z mohiyatini o‘zgartirmagan.

Sivilizatsiya – bu, avvalo, madaniyat yutuqlaridir. Bir madaniyatning o‘zi esa bir nechta sulola va davlatlardan uzoq yashashi mumkin. O‘z navbatida, bir sivilizatsiyaning o‘zi ham shunchalik uzoq umr ko‘radiki, umri davomida bir-birini bosib olgan turli davlatlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sivilizatsiya turli hududlarga tarqalishi, ularni bosib olishi (faqat kuch ishlatish yo‘li bilan emas), yangi-yangi xalq va davlatlarni egallashi mumkin. Shuningdek, sivilizatsiya o‘z madaniy

qadriyat va yutuqlarini boshqa bir sivilizatsiyaga berib, o‘zi yo‘qolib ketishi ham mumkin.

Ayrim hollarda bir nechta sivilizatsiyalar birlashib, yagona sivilizatsiyani tashkil qilishi ham mumkin (masalan, grek-rim sivilizatsiyasi). Sivilizatsiyalar bir-biri bilan parallel ravishda yashashi yoki bo‘lmasa birin-ketin vujudga kelishi ham mumkin. Nima bo‘lganda ham, sivilizatsiya tarixi – madaniyat tarixidir. Sivilizatsiyani o‘rganish – undagi madaniyat rivojini o‘rganishdir.

Sivilizatsiya – madaniyatning muayyan namoyon bo‘lishini, uning real mavjud hayotini aks ettirishidir. Sivilizatsiya madaniyat-siz, madaniyatning sivilizatsiyasiz, undan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas. Chunki inson muayyan sivilizatsiya bag‘rida o‘tmish avlodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirgan holda shakllanishi, kamol topishi mumkin.

Hozirgi davrdagi madaniyatning ilmiy tushunchasi insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma’naviyat, ruhiyatning o‘ziga xosligini anglashi natijasida vujudga keldi. Insoniyat «tabiiy» turmush tarzi asosida yashagan davrda: ya’ni, terib iste’mol qilish, ov qilish, baliq tutish, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan vaqtarda madaniyat to‘g‘risidagi fikrning tug‘ilishi munozaralidir. Oddiy, bir maromda rivojlanuvchi jamiyatda inson o‘z madaniyati bilan «qo‘silib» yashagan. Urfodatlar, e’tiqodlar, hayotning moddiy va ijtimoiy shakllari undan farq qilmagan. Madaniyatning avtonomiysi namoyon bo‘lishi uchun muayyan darajada texnikaning rivojlanishi va mehnatning ijtimoiylashuviga erishish talab etiladi. Shu asosda madaniyat asta-sekinlik bilan insoniyatdan tobora ko‘proq mustaqil bo‘lib boradi. Aksincha insonning madaniyatga tobeligi ortadi. Hozirgi postindustrial jamiyatlardagi ekologik, ma’naviy va axloqiy sohalardagi mavjud muammolar fikrimizning dalilidir. Shuning uchun madaniyatni fenomen sifatida idrok etish, uning rivojlanish qonunlarini tushunish va shu tushunchalar asosida madaniyatni boshqarishga o‘rganish zaruriyat bo‘lib qoladi.

Madaniyatshunoslik fani madaniy tarixiy davrlarni tahlil qilishda bilishning quyidagi uch bosqichini tabiiy birlikda olib qarashga harakat qiladi:

a) muayyan davrning yaxlit qiyofasini, ya’ni uning badiiy obrazini yaratishga intiladi;

b) insoniyat borlig‘ining umumiy dinamikasida davrning ma’naviy o‘rnini aniqlaydi (ijtimoiy ong tarixida, fanda, san’at va falsafada o‘rganiluvchi davrga berilgan bahoning evolutsiyasini ham o‘z ichiga oladi);

v) muayyan davrning «mazmuni»ni tahlil qiladi, ya’ni uning hozirga davr tafakkurida qanday o‘ringa ega ekanligini, uning muammolari bizga qanday ta’sir etishini, bizga qaysi tomonlari bilan hozirgi vaziyatning qaysi sotsial va individual kamchiliklari unda aktuallashganligini ko‘rsatadi.

Madaniyat tiplari tarixiy davrlarga qarab o‘zgarib turadi. Davrlarning almashinishi bilan madaniyatda ham sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Muayyan tarixiy davrda yashagan kishilarning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlari, bilimi, ma’naviy qadriyatlari haqida atroflicha ma’lumotga ega bo‘lishimiz uchun shu davrning madaniyatiga murojaat qilishimiz lozim. Shuning uchun madaniyatshunoslik fani turli xalqlarning madaniy rivojlanish tarixini jahon madaniy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida o‘rganish bilan birga, muayyan tarixiy davrning ijtimoiy taraqqiyotda tutgan ma’naviy rivojlanish bosqichlari, umumiy qonuniyatları, o‘ziga xos xususiyatlarini ham o‘rganadi.

Madaniyatshunoslik tinglovchilarni turli tarixiy davrlar madaniyatları va sotsial guruhlarning urf-odatlari, turmush tarzi to‘g‘risidagi bilimlar bilan boyitadi. Tarixiy va gumanitar bilimlarni tartibga keltiradi, ijtimoiy turmush voqeliklarini yagona mazmun asosida anglashga yordam beradi. Ko‘plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligini ko‘rsatadi. Kishilarning fuqarolik va ma’naviy yetuklikka erishishlarida, fikrlar va qadriyatlар plyuralizmini ko‘ra bilihda fan taraqqiyotini to‘g‘ri baholash qobiliyatini hosil qilishda muhimdir.

«Inson eng oliy darajadagi tarixiy mavjudotdir. Inson tarixiy davrda, tarixiy davr insonda mujassam» (N. Berdyayev). Negaki, har qanday davrning xususiyat va darajasi madaniyat rivoji bilan o‘chanadi.

Madaniyatshunoslik fani muhim tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Insonda ziyolilik hissini tarbiyalash kursning diqqat markazida turadi. Kishi qanchalik ziyoli bo‘lsa, – degan edi D. S. Lixachev, – u shuncha ko‘p tushunadi va o‘zlashtiradi, uning dunyoqarashi va

qabul qilish doirasi shunchalik kengayadi. Kishining madaniy saviyasi qanchalik tor bo'lsa, u hamma yangiliklarga va «juda eski»likka nisbatan shunchalik befarq bo'ladi. O'zining eski odatlari bilan yashaydi. Dunyoqarashi tor bo'lib, hamma narsaga shubha bilan qaraydi. O'tmishning madaniy qadriyatlarini va o'zga millatlar madaniyatlarini bilish, uni saqlash, ko'paytirish, estetik qimmatlarini qabul qila bilishning rivojlanib borishi madaniy taraqqiyotning eng muhim vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Insoniyat madaniyatining rivojlanish tarixi nafaqat yangi, balki eski madaniy qimmatlarni izlab topish tarixidir. Shuningdek, o'zga madaniyatlarni bilish, ma'lum ma'nda gumanizm tarixi bilan qo'shilib ketadi. Bu boshqa xalqlarga nisbatan hurmat, to'g'ri ma'nodagi bardoshlilik, tinchlik tilash demakdir¹.

«Ziyolilik» tushunchasi ilmiy va oddiy ong darajasida ta'riflanishi jihatidan farq qiladi. Oddiy ong darajasida intelegentlilik deganda, oliy ma'lumotga ega bo'lgan, asosan, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi, bilimli kishilar tushuniladi.

Madaniyatshunoslik fanining *yana bir muhim vazifasi kishida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdir*.

Madaniyat faqatgina moddiy va ma'naviy boyliklar yig'in-disidan iborat emas, balki ijodiy faoliyatdir. Madaniyatshunoslik yangi ma'lumotlar berish bilan birga, yoshlarda madaniyat voqeliklari bilan munosabatda bo'lish malakasini hosil qiladi. Xilma-xil ma'lumotlar berish bilan birga, tinglovchilarda ilmiy tafakkur qilish uslublari uzluksizligi va mantiqiylikni shakllantiradi.

Kursning tarbiyaviy funksiyasining tatbiq etilishi uni bilish funksiyasi bilan qo'shib o'rganishni talab etadi. Tarixiy davrlar madaniyatini o'rganish madaniyatlarni qarama-qarshi qo'yish, ularga baho berish, farq qilish maqsadlariga emas, balki yangilikni o'rganish, boshqa madaniyatlar qimmatlaridan bahramand bo'lishga xizmat qiladi. Bu vazifalarni bajarishda madaniyatshunoslik kursi tarxiy antropologiya – madaniyatga yaxlit fenomen, dunyo va hayotni idrok etish usuli sifatida munosabatda bo'ladi.

Tarixiy antropologiyaning eng muhim tushunchalaridan biri mentalitetdir. **Mentalitet** – madaniyatga taalluqli bo'lgan kishilarda u yoki bu muhitning muayyan «aqliy vositalar yig'indisi», «psixologik moslama»lari mavjudligini bildiradi. Ular insonning tabiiy va sotsial borliqni mustaqil idrok etishiga shart-sharoit

¹ Musaev N.U. Azimov H.I. Madaniyatshunoslik. – T., 2010. – 13-6.

yaratadi. Betartib, uzuq-yuluq tushunchalar va ta'sirlar tafakkur orqali qayta ishlanishi natijasida nisbatan tartibli dunyo manzarasiga aylanadi. Bu manzara inson xatti-harakatida o'chmas iz qoldiradi.

Hozirgi zamon madaniyatshunoslik fani «madaniyat» tushunchasining qo'llanishiga qarab quyidagicha o'rganadi:

- a) individual – shaxs madaniyati;
- b) guruhiy madaniyat – milliy, sinfiy, tabaqaviy, kasbiy, oilaviy;
- v) makon va zamonda cheklangan muayyan tipdagi jamiyat madaniyati;
- g) insoniyat madaniyati.

Madaniyatni qo'llanish jihatidan turlarga bo'lish munozarali bo'lsa-da, ularning mavjudligini inkor qila olmaymiz. Ijtimoiy taraqqiyot tafovutlarni yo'qotmaydi, balki, aksincha, uning xilma-xilligini yanada kengaytiradi. Shuning uchun ularni tobora chuqraroq o'rganish madaniyat to'g'risidagi tasavvurimizning kengayib borishiga xizmat qiladi.

«Madaniyat» tushunchasi qo'llanish jihatidan xilma-xil bo'lgani kabi, kundalik hayotda (oddiy ong) va fanda ham turli mazmun kasb etadi. Biz «**muomala madaniyati**», «**mehnat madaniyati**», «**xatti-harakat madaniyati**» kabi iboralardan foydalanamiz va ularga ko'nikib qolganmiz.

Kundalik hayotda madaniyatdan voqelikni baholash tushunchasi sifatida foydalanish va shaxsning ma'lumotliligi, xushmuomalaligi, ozodaligi, vazminligi kabi xususiyatlari bilan bog'lab tushuntirish odatga aylangan. Madaniyatli kishi tushunchasiga qo'shib ishlatiluvchi sifatlar juda keng bo'lib, uni qo'llash jamiyatning umumiyligi madaniy darajasi va shaxsning ijtimoiy maqomiga bog'liqdir.

Hozirgi davrda «**ishlab chiqarish madaniyati**», «**xizmat ko'rsatish madaniyati**», «**dam olish madaniyati**» va boshqalar to'g'risida ko'p gapirilmoqda. Bu iboralar orqali madaniyat deganda, ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat ko'rsatishi tushuniladi. Ba'zan madaniyat to'g'risidagi tasavvurlar shaharlar turmush tarzi, kinoteatrлar, teatrлar va kutubxonalarga tez-tez borib turish, «madaniy» kishilar bilan do'stlashish va chiroyli narsalar bilan bog'liq deb fikr qilinadi.

Ro'znomalarda, statistik ma'lumotlarda «iqtisod va madaniyat», «fan va madaniyat», «siyosat va madaniyat» iboralari ko'p ishlatiladi, bunda madaniyat ma'naviy ustqurma yoki axloq va san'at sohalari bilan cheklangan. Ilmiy nuqtai nazardan iqtisodni,

siyosatni va fanni madaniyatdan tashqari turuvchi soha deb hisoblash haqiqatdan yiroqdir. Shuningdek, mumtoz qadriyatlar va san'atning buyuk namunalari, ideal va yuksak intilishlar madaniyatga taalluqli sohalar bo'lib, oddiy, kundalik narsalar unga yotdir, degan fikrlar asossizdir. Kundalik hayotda madaniyatga faqat qadriyatlar yig'indisi sifatida qaralishi ham to'g'ri emas, chunki madaniyatda insoniyatga zararli bo'lgan, eskilik qoldiqlari, to'liq tekshirib ko'rilmagan «yangiliklar» kabi salbiy narsalar ham o'zlashtirilishi mumkin.

Kundalik hayotda va fanda madaniyat atamasidan foydalanish to'g'risidagi mulohazalarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniyat eng keng ma'noda insonni o'rab turgan tabiatdan, ijtimoiy munosabatlarda va bevosita o'zida stixiyali ravishda vujudga kelgan tayyor ma'lumotlardan foydalanishni, ongli ravishda ajratib olishni taqozo etadi. Madaniyat tabiatdan farq qiladi, an'analar, ramzlar, til, bevosita taqlid qilish va amaliy o'rganish orqali avloddan-avlodga singdiriladi. Madaniyat shaxs tomonidan, uning sotsial jihatdan shakllanishi jarayonida o'zlashtiriladi va asosan keng tarqalgan va ko'pchilik qabul qilgan axloq, tafakkur va his qilishning parchalaridan tashkil topib, individual harakatlar hissasi bunda juda kamdir.

Oddiy ongda madaniyatni tushunishning xususiyati bevosita unda amaliy ishtirok etilishiga bog'liqligidadir. Madaniy voqelik-larga inson befarq munosabatda bo'la olmaydi. Uning qadriyatlarga munosabati va hissiy emotsiyonal tasavvurlari bolalik davrida to'plagan tajribasidan boshlanadi va kishining jamiyatda tutgan o'rniga, yoshiga, mavqeiga ham bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, u o'ziga begona bo'lgan urf-odatlar va xatti-harakatlarga nisbatan ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'ladi.

Fan esa bevosita umumiyligi ahamiyatga ega bo'lgan, obyektiv haqiqatga mos tushunchalardan foydalanishi kerak.

1. **Qadriyat (aksiologik)** o'chovi asosidagi ta'rif. Bunda madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qimmatlarning yig'indisidan iborat deb talqin etiladi. Madaniyat inson faoliyatidan tashqarida mayjud emas. Baholash qadriyat nuqtai nazardan voqelikni tahlil qilish faoliyatining tabiiy va zarur bo'lgan shartidir. Madaniyat nimada namoyon bo'lishidan qat'i nazar, muayyan qadriy o'chovga ega bo'ladi.

«Madaniyat» tushunchasi taraqqiyot, tarix, inson, insonparvarlik kabi kategoriylar bilan bir qatorda turadi. Insonning faoliyat natijasi, muayyan qadriyatlarga ega bo‘lgan voqelik predmetli aksiologik ta’rifning negizini tashkil etadi. U kishilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy va aqliy faoliyatni qamrab oladi. Bu ta’rif kamchiliklardan ham xoli emas. U voqelikni yaxlit idrok etishga, natijalarni mexanik hisobga olishga asoslangan. Bunday yondashuv voqelikka subyektiv baho berishga imkoniyat yaratadi. Aksiologik yondashuv doirasida madaniyat faoliyat natijasi – o‘tmishga aylanib qolib, o‘tmish va hozirgi zamon bilan tabiiy aloqalar buzilishi mumkin.

2.Madaniyatni «faoliyat» tushunchasi asosida ta’riflash. Madaniyatning umumiyligi tabiatini idrok etishga qilingan harakat tufayli madaniyatni kishilarning ijodiy faoliyati jarayoni sifatida tushunish vujudga keldi. Faoliyat kategoriysi o‘rganish obyekti inson bo‘lgan fanlar harakatini integratsiya qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Madaniyatni ijodiy faoliyat va inson faoliyatining o‘ziga xos uslubi sifatida ta’riflash konsepsiysi bir qator muhim masalalarda bir-birini to‘ldiradi. Jamiyat nafaqat qayta qurishga, balki an’analarni, madaniy yodgorliklarni saqlab qolishga ham muhtojdir. Jamiyatning amaliy va nazariy, moddiy va ma’naviy kabi har qanday faoliyati ijodiy soha bilan birga, o‘zida faoliyat ko‘rsatish va madaniyatning o‘zlashtirish aspektlarini mujassam-lashtiradi. Ijodiyot faoliyat ko‘لامи qancha katta bo‘lsa, madaniyatning ishlab turishi funksiyasi va kelgusi avlodlarga yetkazib berish uchun zarur bo‘lgan faoliyat ko‘lamni shuncha keng bo‘ladi. Faoliyat maqsadli yo‘naltirilgan faollikkadir. Inson qanchalik faol harakat qilsa, shunchalik madaniyatning «chegaralari» yo‘qolib boradi. Bu chegaralar zamon, makon va qimmat o‘lchovlariga ega. Faqatgina belgilangan vaqt intervalida inson faoliyati natijalarini to‘g‘ri tasavvur qilish va ularni rejulashtirish mumkin. Faoliyat natijasi boshlanishidan qanchalik yiroq bo‘lsa, shunchalik uning madaniyatga munosabati noaniqlashib boradi.

Makonda va qiymat chegaralarida ham xuddi shunday xususiyatlar mavjud. Intensiv faoliyat chegaralarni kengaytiradi, lekin bunda vujudga keluvchi voqeliklar mavjud madaniyat uchun begona va xatarli bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, ushbu yondashuvga xos bo‘lgan madaniyatning tirik asosidan falsafiy abstraksiyalar

dunyosiga o‘tishga intilishi, hozirgi davrga xos bo‘lgan texnokratik tafakkur ta’sirining kuchayishiga olib keladi. Ushbu ta’rifning kuchli tomonlari mavjudligiga qaramasdan, amalda u tarixiy-madaniy izlanishlardan yiroq bo‘lib qolmoqda.

Axborot ta’rif madaniyatni «barcha irsiy bo‘lmagan axborotlar yig‘indisi», uni tashkil etish va saqlash uslublari sifatida ta’riflab, madaniyat axborotlar ombori emas», u nihoyatda murakkab tashkil etilgan mexanizm bo‘lib, axborotni doimiy ravishda eng foydali va qulay uslublarni ishlab chiqqan holda saqlaydi, yangi axborotlarni qabul qiladi, ularni qayta ma’lumotlarga aylantiradi, ularning belgilarini bir tizimdan boshqasiga o‘tkazadi, deb izohlaydi.

«Barcha irsiy bo‘lmagan axborotlar yig‘indisi» deganda, xotirani tushunishimiz mumkin. Chunki xotira mexanik mazmunga ega emas, balki ijodiy jarayon hisoblanadi. Xotiraning eng muhim ma’naviy ahamiyati shundaki, u vaqt to‘sig‘ini yengadi va o‘limga qarshi turadi. Umumiy xususiyatlariga muvofiq, madaniyatni xotira bilan qiyoslashimiz mumkin. Bunda alohida olingan shaxsning xotirasini emas, balki jamiyat xotirasini nazarda tutamiz.

YU. M. Lotmanning fikricha, bir qator qoidalar, cheklashlar sifatida namoyon bo‘luvchi tashkiliy vaziyat madaniyatni belgilovchi xususiyat hisoblanadi. K. Levi Strosning fikriga ko‘ra, «qayerda qoida bo‘lsa, shu yerda madaniyat boshlanadi. Inson tabiatidagi barcha umumiylit tabiatga tegishli bo‘ladi va stixiyali avtomatizm bilan tavsiflanadi, majburlash normalari bilan belgilanuvchi sifatlar madaniyat sohasiga tegishli bo‘lib, o‘zida nisbiylik va xususiylikni mujassamlashtiradi».

YU. M. Lotman shuni ta’kidlaydiki, «madaniyat entropiyasi» axborotga aylantirishning eng mukammal mexanizmidir. Bu mexanizm axborotni saqlashi va uzatishi bilan birga, uning ko‘lamlarini kengaytiradi. o‘zini o‘zi doimiy ravishda mukammallashtirishi va rivojlantirib borishi uning qonunidir. Shuning uchun madaniyat bir vaqtda ham barqarorlik, ham dinamizm xususiyatlarini namoyish qilishi kerak. Shu ma’noda madaniyat tirik organizm va san’at asarlariga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Madaniyatni insoniyat tomonidan yaratilgan yaxlit badiiy asar sifatida qabul qilmog‘imiz lozim.

XXI asrga kelib madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib bormoqda. Hozirgi kunda ishlab chiqarish madaniyati haqida,

maishiy va xizmat ko'rsatish (servis) madaniyati haqida, boshqaruv madaniyati haqida, xulq madaniyati haqida bemalol gapirish mumkin. Madaniyatning sanab o'tilgan har bir sohasida inson kuch-qudrati rivojining natijasini ko'rish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish rasm bo'lgan. Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muhim elementlari ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyatga uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, iste'mol vositalari deb ataladigan hodisalar ham kiradi. Bularsiz muayyan xalq madaniyati, uning tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlaridagi o'ziga xosliklari haqida to'g'ri fikr yuritish mumkin emas. Albatta, moddiy madaniyatni faqat ishlab chiqarish va iste'mol vositalariga taqab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi.

Umuman olganda, ijtimoiy hayotda moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan birga, ijtimoiy soha, siyosiy soha, ma'naviy soha faoliyatları ham mavjud. Kishining bu sohadagi faoliyatları madaniyatni tasniflashga asos sifatida qabul qilinadi.

Bunday tasniflash tizimining birinchi bosqichiga bir qarashda mustaqil ko'ringan, lekin bir-biri bilan chambarchas bog'langan quyidagi madaniyat sohalari kiradi:

- *moddiy madaniyat*;
- *ijtimoiy madaniyat*;
- *siyosiy madaniyat*;
- *ma'naviy madaniyat*.

Moddiy madaniyatga texnika madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, rejalshtirish madaniyati, taqsimlash va ayrboshlash madaniyati kiradi.

Ijtimoiy madaniyatga oila va nikoh masalalari madaniyati, ijtimoiy-demografik guruhlar madaniyati, maishiy madaniyat, maorif va ta'lim madaniyati, shaxslararo muloqot madaniyati, ekologik madaniyat kiradi.

Siyosiy madaniyat sohasiga huquqiy madaniyat, fuqarolik madaniyati, siyosiy faoliyat yuritish madaniyati, ijtimoiy guruhlar, davlat, xalq kiradi.

Ma’naviy madaniyat sohasiga dunyoqarash, mafkura, ilm-fan, din, badiiy madaniyat, san’at, milliy an’analar, axloqiy madaniyat, estetik madaniyat va boshqalar kiradi.

Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda, faqat ma’naviy madaniyat nazarda tutildi. Negaki, borliqni haqiqat, yaxshilik, go’zallik belgilaydi, deb hisoblashgan. Shuning uchun, birinchi o‘rinda, ilmiy tadqiqotlarning asosi axloq, nafosat bo‘lib keldi. Natijada, jamiyatning moddiy hayotini, uning iqtisodiyotini o‘rganishga e’tibor berilmadi. Moddiy madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz hisoblangan.

Industrial jamiyatning vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarining tezda almashishi madaniyatshunoslarni insoniyatning barcha moddiy madaniyatini o‘rganishga majbur qildi. Shuningdek, hozirgi kunda madaniyat tizimlaridan bo‘lmish moddiy va ma’naviy madaniyat bir-biriga shunday ta’sir qilishyaptiki, bir tomondan, ma’naviy madaniyat moddiy madaniyatning yaralishiga sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, moddiy madaniyatning boyishi ma’naviy madaniyatning yangi qirralari ochilishiga sabab bo‘lmoqda.

Eng qizig‘i bo‘lmish uchinchi tomondan esa, moddiy madaniyatda ma’naviy madaniyat va, aksincha, ma’naviy madaniyatda moddiy madaniyatni uchratish mumkin. Masalan, ilmiy-texnik taraqqiyot bo‘lmish ommaviy axborot vositalari, radio, televideniya, kino, magnitafon, videotexnika, kompyuter – moddiy madaniyat bo‘la turib, ma’naviy madaniyat oshishiga xizmat qilishadi. Ma’naviy madaniyat bo‘lmish ilm-fan esa texnikaning rivojiga xizmat qiladi. Hattoki, texnikani ma’naviylashtirish asri boshlandi (masalan, texnik estetika...).

Moddiy madaniyat insoniyat mehnati bilan yaralgan barcha qadriyatlar yig‘indisini bildiradi. U jamiyat hayoti darajasini, moddiy ehtiyoj va moddiy qondirilish imkoniyatini yaratadi. Moddiy madaniyatga, avvalo, mehnat qurollari va ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy xizmat turlari (bular: transport, aloqa vositalari, kommunal uyjoy xo‘jaligi xizmati va boshq.). kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari kiradi. Demak, moddiy madaniyat – insonning tabiatni qay darajada egallay olganligini ko‘rsatadi.

Madaniyatshunos olim YU. V. Rojdestvenskiy o‘zining madaniyatshunoslik faniga bag‘ishlangan asarlaridan birida moddiy madaniyat haqida qimmatli ma’lumotlar bergen.

- 1. Hayvonot olami.**
- 2. O‘simlik navi.**
- 3. Bino va qurilmalar.**

Bu majmualar moddiy madaniyatning eng ko‘rgazmali elementi hisoblanadi.

Bino – insonlar mavjud bo‘ladigan, ular to‘planadigan joy.

Qurilmalar deb qurilish ishlarining natijasiga nisbatan aytiladi. Ularda xo‘jalik faoliyat sharoitini o‘zgartirish mumkin.

Bular – **uy-joy**, boshqaruv faoliyati uchun xona, o‘yin-kulgi uchun xona, axborot almashish uchun xona, o‘quv faoliyati uchun xona.

Qurilmalarga – suv xo‘jaligi, damba, ko‘priklar, ishlab chiqarish faoliyati uchun xonalar kiradi. Ta’kidlab o‘tish kerakki, bino va qurilmalar madaniyati mavjudligi – ularning ta’mirlanishida, foydali jihatlari yangilanib turishida ko‘rinadi.

4. Asbob, moslama va uskuna. Aqliy va jismoniy mehnatning barcha turlarini aks ettiruvchi bu tushunchalar moddiy madaniyatning asosiy kategoriyasini tashkil etadi. Ular harakatda bo‘luvchi mulk hisoblanib, birgalikda faoliyatning barcha turiga xizmat qilishadi.

5. Transport vositalari. Moddiy madaniyatning bu kategoriyasi ko‘chmas va ko‘chuvchi, harakatlanuvchi umumiyligida majmuasini bildiradi.

Ko‘chmas mulk quyidagilarda ko‘rinadi:

- *transport yo‘llarini yo‘naltirish;*
- *umuman yo‘llar qurilishi* (beton, yer osti yo‘li, ko‘prik, rels, shpal va boshq.).
- *transport vositalari* uchun kerakli bino va qurilishlar (pochta bekatlari, temir yo‘l bekatlari, benzin quyish shoxobchalari, depo va boshq.).

Ko‘chuvchi, harakatlanuvchi mulkka g‘ildirakli va g‘ildiraksiz, shuningdek yuk tashuvchi transportlar kiradi: arava, lokomativ, samolyot, paroxod, teploxdod va boshq.

6. Aloqa va aloqa vositalari. Moddiy madaniyatning bu sohasi pochta, telegraf, radio, televezion tarmoq, telefonli va radiotelefonli tizimni o‘z ichiga oladi.

Texnologiya. Texnologiya mehnat san’ati sifatida moddiy madaniyatning barcha sohalarida mavjud.

Texnologik madaniyatda eng asosiy narsa ta’limdir. Ta’lim inson shaxsiga mo‘ljallangan. Ta’lim olgan insongina texnologik madaniyatni egallaydi.

Ma’naviy madaniyat moddiy madaniyatga nisbatan ancha avvalroq o’rganila boshlangan. Insoniyat tarixining boshlaridan kishilar ma’naviy madaniyatni belgilashga, uning shakllanish sabablarini aniqlashga, ma’naviy boylik ijodkorlari va yaratuvchilari qanday sifatlarga ega bo‘lishlari kerakligi va ma’naviy ijodkorlik jarayoni qanday bo‘lishini tushuntirishga uringanlar.

Ma’naviy madaniyat ma’naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog‘liq faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi. Ma’naviy madaniyat namoyon bo‘lishining turli ko‘rinishlari mavjud: har xil tasavvurlar va g‘oyalalar, nazariyalar va ta’limotlar, ilmiy bilimlar va san’at asarlari, axloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va boshq.

3. Madaniyatshunoslik fanining ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatidagi ahamiyati

Insoniyat jamiyati doimiy rivojda bo‘lib, u o‘zgarib takomil-lashib boradi. Turli tarixiy davrlarda va xilma-xil madaniyatlarda odamlar dunyoni o‘zgacha anglaydilar va qabul qiladilar, o‘zlariga xos ravishda tasavvurlari va bilimlarini hosil qiladilar. Hozirgi davrdagi mavjud muammolarga o‘xshash bo‘lgan to‘siqlarni o‘tmishda odamlar qanday qilib yengib o‘tganlarini o‘rgana borib, o‘tmishga savollar bilan murojaat qilamiz, o‘tmish bizga javob qaytaradi va shu bilan o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak o‘rtasida doimiy muloqot bo‘lib turadi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirishning va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko‘riladi¹.

Huquqiy madaniyat insonsiz va uning dunyoqarashini belgilovchi faoliyatsiz, bunday faoliyat va tafakkurning progressiv yo‘nalishisiz mavjud bo‘la olmaydi. U huquqiy reallikning haqiqiy amal qilish va rivojlanishidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi, aniq belgilangan maqsadlari yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

¹ Сайдов А., Тожихонов У.Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т., 2001. – 253-6.

Professor H. T. Odilqoriyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «fuqarolik jamiyat qadriyatları tizimida yuksak *huquqiy madaniyat* alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston xalqi intilayotgan ideal jamiyat asosini, undagi munosabatlar poydevorini yuksak ma’naviyat va ilg‘or rivoj topgan siyosiy-huquqiy madaniyat tashkil etishi ayondir»¹.

Huquqiy madaniyat faqat ijtimoiy taraqqiyot doirasidagina to‘liq holda tushunilishi mumkin. Haqiqiy huquqiy madaniyat tarixiy, ijobiy, huquqiy tajribani e’tiborga olmasdan mavjud bo‘la olmaydi².

Shaxs huquqiy madaniyatining tuzilishi juda xilma-xildir. Bu yerda huquq madaniyatining yo‘nalishlari uning ijtimoiylashuvi darajasi, mazmuni va boshqalar nazarda tutilmoqda.

Shaxs huquqiy madaniyati uch xil holatda namoyon bo‘ladi:

- 1) huquq madaniyatini tushunishda;
- 2) ijodiy faoliyatni amalga oshirishda;

3) bu tushunchaning amalga oshirish natijalarida individning maxsus rivojlanish darajasi sifatida, avvalo, shaxs huquqiy madaniyatining tayyorgarligi.

Huquqiy madaniyatning kasb bilan bog‘liq darajasi majmui huquqiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxslarda, jumladan, huquqshunoslarda vujudga keladi. Kundalik hayotda huquqiy voqealarga uzlusiz ravishda duch kelish ular huquqiy madaniyatining kasbiy xususiyatlarini vujudga keltiradi³.

Huquqiy madaniyatning funksiyalari.

Huquqiy madaniyat bir necha maxsus funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat:

- 1) regulyativ (tartibga soluvchi) funksiya;
- 2) normativ funksiya;
- 3) sotsiologik (ijtimoiy) huquqiy funksiya;
- 4) kommunikativ (aloqalar o‘rnatish) funksiyasi;
- 5) prognoz (bashoratlash) funksiyasi.

Huquqiy madaniyatning regulyativ funksiyasi demokratik huquqiy davlatni shakllantirish va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni

¹ Одилқориев X. T., Якубов Ш. У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар: Монография. – Т.: SMIA-ASIA, 2010. – 368-б.

² Саидов А., Тожихонов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т., 2001. – 354-б.

³ Бу ҳақда батафсил қаранг: Одилқориев X. T., Якубов Ш. У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар: Монография. – Т.: SMIA-ASIA, 2010. – 400 б.

ta'minlovchi nazariy va tashkiliy faoliyat bilan bog'liq. Professor SH.O. Mamadaliyev ta'biri bilan aytganda «...huquqiy madaniyat davlatning fuqarolar oldidagi va fuqarolarning davlat, jamiyat oldidagi mas'ulligi hamdir¹» Bu funksiya umumiylari va shaxsiy manfaatlarni insoniyat ijtimoiy rivojlanishining markaziga qo'yish, shaxsning har tamonlama kamol topishi uchun muhit yaratish, zarur mehnat va hayot sharoitini yaratish, siyosiy erkinlikni ta'minlashga yordam beradi. Huquqiy madaniyatning regulyativ funksiyasi huquqiy va boshqa sotsial normalar orqali amalga oshadi.

Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi aksiologik (baholovchi) tavsiflar tizimi yordamida aks ettiriladi. U turli hodisa va faktlarda, muayyan ahamiyat kasb etgan ongli shaxslar harakatida o'z aksini topadi. Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy normalar boshqa jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil qiluvchi elementlarni baholovchi obyekt sifatida maydonga keladi. Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi huquq normalarida nazarda tutilgan harakat namunalariga mos holda, huquqiy vogelikni o'zgartirishda erishilgan natijaga nisbatan munosabatda o'z aksini topadi.

Huquqiy madaniyatning sotsiologik funksiyasi shaxsning huquqiy sifatlari shakllanishi tizimi orqali o'rganib chiqilishi mumkin. Shu bilan birga, maqsadli huquqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta'lmini tashkil qilish chorasini ko'rish, ularga yuridik yordam ko'rsatish, shaxsning o'zini o'zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

Huquqiy madaniyat kommunikativ funksiyani ham bajaradi. U fuqarolarning huquqiy doirasidagi muloqotini ta'minlarkan, shu muloqot orqali mavjud bo'ladi va ta'sir etadi. Huquqiy madaniyat o'zida hozirgi va o'tmish davr huquqiy madaniyatining ilg'or yutuqlarini to'plashi lozim.

Huquqiy madaniyatning prognostik funksiyasi huquq ijodkorligi va huquqni qo'llashni, qonunlar va huquq-tartibotni mustahkamlashni, fuqarolarning huquqka mos xatti-harakati, faolligini, butun huquqiy tizim uchun xos bo'lgan an'analarni o'z ichiga oladi. Huquqiy madaniyat bashoratlar ehtimoli bo'lgan o'ziga xos qadriyatlardan iborat. Bunday hollarda hatto ma'lum darajadagi noaniqliklar yetarli asoslangan bashorat qilish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

¹ Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2003. – 185-б.

Madaniyatlilik deb ichki ishlar organlari xodimlari aqliy va ijtimoiy kamolotining qanchalik rivojlanganligini, uning jamiyat va davlat manfaatlariga mos kelishini ifodalovchi ichki va tashqi axloqiy-estetik, siyosiy-huquqiy qarashlar va xatti-harakatlarning muayyan tizimiga aytildi.

Yuksak madaniyat sohibi bo‘lgan xodimgina xalqdan o‘zini ajratmaydi, uning diliqa oshno, dardiga malham bo‘ladi.

Madaniyatshunoslik fani bevosita ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Chunki har bir ichki ishlar organlari xodimining bevosita fuqarolar bilan muloqot qilishda, moddiy va ma’naviy boyliklarimizni asrab-avaylashida, qolaversa, madaniyatli shaxs sifatida kamol topishida bu fanning o‘rni beqiyosdir.

Madaniyat — jamiyatning mahsuli, ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalaridan biridir. Madaniyatsiz jamiyat bo‘lmaganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida madaniyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi va doimiy ravishda boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisiyligi, qadriyatlarni to‘plash va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarni ifodalaydi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq O‘zbekiston Respublikasi milliy-ma’naviy, madaniy merosimizni tiklash, bu muammoni davlat siyosati darajasiga ko‘tarishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ydi.

O‘zbek madaniyatining o‘ziga xosligini tiklash quyidagi asosiy omillarda ko‘rinadi:

- xalqning ma’naviy-madaniy ildizini tiklash;
- tiklanayotgan har bir merosga alohida e’tibor va munosabatda bo‘lish;
- umuminsoniy qadriyatlarni boyituvchi, insonparvarlik tamoyillariga mos tushuvchi, jamiyatimiz yangilanishiga xizmat qiluvchi milliy madaniyatimizning madaniy va axloqiy jihatlarini tanlab olish;
- umuminsoniy qadriyatlarga milliy va zamonaviy madaniyatimizni qo‘sish natijasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish;
- ongi va tafakkuri mustaqillik ruhini yarata oladigan yangi avlod intelligent-ziyolilarini tarbiyalash.

Ushbu tamoyillar bevosita ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining asosiy tamoyillariga ham aylanmog‘i kerak.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasb madaniyatini ichki va tashqi madaniyatga bo‘lib o‘rganamiz. *Ichki madaniyat* deganda,, xodim ma’naviy olaming boyligi, dunyoqarashining keng va sog‘lomligi, mustaqil va ijodiy fikrlay olish layoqati, axloqiy pokligi, histuyg‘ularining boy va faolligi, didining yuksakligi tushunilsa; *tashqi madaniyat* deganda esa, xodimning xatti-harakati va yurish-turishi, gapirish va kiyinish madaniyati tushuniladi. U xodimning hayo, ibo, nazokat, andisha kabi bir qator ijobiy fazilatlarini o‘z ichiga oladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining aholi bilan bo‘ladigan xulq-atvor madaniyati muomala madaniyatining uzviy qismi va aniq ifodasi hisoblanadi.

Xulqlar yaxshi yoki yomon xulqlarga bo‘linadi.

Yaxshi xulqlar jumlasiga poklik, sobitqadamlik, rostgo‘ylik, shijoat, hayo, matonat, diyonat, qanoat, qadr-qimmat, farosat, itoat, kamtarlik, muloyimlik, xayrixohlik, munislik, afv, sadoqat va boshqalar kiradi.

Yomon xulqlarga xudbinlik, hasad, xushomadgo‘ylik, jahl, g‘azab, g‘iybat, takabburlik, tamagirlik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, tuhmat, baxillik, ochko‘zlik, adovat, haqorat, nifoq, zulm, yalqovlik, qo‘rqaqlik va boshqalar kiradi1.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xulq-atvor madaniyati, shubhasiz, xodimlarning aholi bilan bo‘ladigan munosabatlarida faqat yaxshi xulqlarini namoyon qilishlari, yomon xulqlarini yashirishlari, ularni yo‘q qilish uchun kurashishlarini takozo etadi.

Odamlarning xulq-atvor madaniyati to‘g‘risida «Hadis»larda shunday deyilgan: «Sizlar odamlarni mol-dunyolaringiz bilan mamnun qila olmaysizlar, balki ochiq yuz va yaxshi xulqlaringiz bilan minnatdor qilishlaringiz mumkin», «Mo‘minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir»¹. Shunday ekan, xalqning osoyishtaligi, tinchligi, baxt-saodati yo‘lida xizmat qilayotgan huquq posbonlari o‘zlarining yaxshi xulqlari bilan xalq orasida obro‘ topishlari ob-havodek zarur.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xulq-atvor madaniyati xushmuomalalik, madaniyatlichkeit, odob kabilarda namoyon bo‘ladi.

Xushmuomalalik deb ichki ishlar organlari xodimlarining aholi bilan ularning izzat-hurmatini joyiga qo‘yib, samimiyl, sipolik va muloyimlik, kamtarlik, xayrixohlik, xolislik bilan qiladigan axloqiy xatti-harakatlarining majmuasiga aytildi.

¹ Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990. – 34, 52-б.

Xushmuomalalik ichki madaniyatning tashqi ko‘rinishidir. Uning asosini insoniylik tashkil etadi. Fuqarolar bilan bo‘ladigan xushmuomalalik quyidagi xulq-atvor qoidalarini qamrab oladi:

- odamlarga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘lish;
- insonga xayrxohlik, e’tiborlilik;
- muhtojlarga o‘z vaqtida yordam berish, ularning hojatini chiqarish;
- iltifot bilan joy ko‘rsatish, joy berish, oldinga o‘tkazib yuborish, yordamlashish;
- odamlarni o‘zining xatti-harakatlari bilan noqulay axvolga solib qo‘ymaslik, agar shunday holat yuz bersa, tezlikda kechirim so‘rash va o‘z xatti-harakatini tuzatish;
- keksalarga, bolalarga va ayollarga alohida iltifot ko‘rsatish va boshq.

Xodim ushbu talablarga o‘zining butun faoliyati davomida, ya’ni fuqarolarni qabul qilganda, kuzatib qo‘yganda, jamoat tartibini saqlash uchun xizmatga chiqqanda, jinoyatchilarni ushlaganda, tintuv o‘tkazish, so‘roq qilish chog‘ida, xizmatdan tashqari vaqtarda, transportda, teatrda, kino zallarida, uyda va jamoat joylarida amal qilishi kerak.

Tashqi qiyofa shaxsning ichki madaniyatidan kelib chiquvchi jismonan sog‘lomlik, tananing bekamu ko‘stligi, xatti-harakatlarning yengil va nafisligi, kiyim-bosh va aft-angorning pokiza va ozodaligi hamda ularning o‘zaro mutanosibligi, aniqrog‘i, tana va kiyimning o‘zaro uyg‘unligidir.

Bu haqda IIWning 2011 yil 4 iyundagi № 96 sonli buyrug‘i «Ichki ishlar idoralari xodimlarining Kasb madaniyati haqidagi Qo‘llanma»da «Xodimlar xizmat jarayonida xizmat kiyimlarini bo‘y-bastiga mos, dazmollangan, tugmalari taqilgan, mavsumga qarab toza va ozoda kiyishga, faqlovchi belgilarni (pagon, shnvron va h.k.) davlat mukofatlari va ichki ishlar idoralari ko‘krak nishonlarini o‘rnatilgan tartibda taqib yurish qoidasiga kat’iy amal qiladilar»¹ deb ta’kidlab o‘tilganligini o‘zi ham xodimlarni doimo o‘z tashqi qiyofalariga kiyinishiga e’tibor qaratib yurishi lozimligidan darak beradi.

Shundan kelib chiqib, ichki ishlshar idoralari xodimlarining kiyinish madaniyatiga ta’rif beradigan bo‘lsak, *Ichki ishlar organlari xodimlarining kiyinish madaniyati* deb ularning Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan kiyim kiyish va farqlovchi belgilar taqib yurish qoidalarini

¹ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар идоралари ходимларининг Касб маданияти хақидаги Қўлланма., //ИИВнинг 2011 йил 4 июндага № 96 сонли буйруғи., – Т.: Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2011.– 9-б.

og‘ishmay amalga oshirish asosida o‘z qadr-qimmatini saqlashga va butun ichki ishlar organlarining obro‘-e’tiborini himoya qilishga qaratilgan axloqiy-estetik xatti-harakatlari tizimiga aytildi.

Xulosa

Mazkur mavzuga xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, gumanitar fanlar qatorida madaniyatshunoslik kursining oliv o‘quv yurtlarida o‘rganilishi hozirgi davr talabiga mos keladi. Jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy tadbirlar va huquq-tartibotni mustahkamlash bilangina to‘la hal qilib bo‘lmaydi. Buning uchun jamiyatning ma’naviy hayotini ham qayta qurish talab etiladi. «Ma’naviyat yo‘q joyda, – degan edi Prezident I. A Karimov, — hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi».

Madaniyatshunoslik fani bevosita IIO xodimlari faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Chunki har bir ichki ishlar organlari xodimining bevosita fuqarolar bilan muloqot qilishida, moddiy va ma’naviy boyliklarimizni asrab-avaylashida, qolaversa, uning madaniyatli shaxs sifatida kamol topishida bu fanning o‘rni beqiyosdir.

Madaniyatshunoslik tinglovchilarga jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo‘lgan O‘zbekiston madaniyatining rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o‘zaro aloqadorligi, muammolari va istiqbollari to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malakalarni berishda, ayni paytda, ularni milliy madaniyatga va o‘zga millatlar madaniyatlariga, qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda, shuningdek ularning madaniyat yodgorliklariga ijodiy munosabatda bo‘lish va ma’naviy jihatdan rivojlanishlarida ko‘maklashadi.

Madaniyat juda qadim zamonlarda mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo‘ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go‘zallik hissi ortdi, voqelikdagi go‘zallik, qulaylik va fidoyilik tushunchalari kengaydi. Jamiyat vujudga kela boshlashi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi: aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va madaniyat rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Omma orasidan yetishib chiqqan faylasuf olimlar, mutafakkir va allomalar olam va odam haqida, xudo va koinot haqida, ilm-fan, taraqqiyot va din haqida fikr yuritishdi.

Shuningdek, iste’dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go‘zallik va xudbinlik, oljanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi,

xulq va odatlari, yutuq va mag‘lubiyatlari ularning asarlarida o‘z ifodasini topdi. Madaniyat, har bir davrda mavjud bo‘lgan hayot go‘zalliklarini ifodalab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yo‘lidagi kurashga da’vat etdi.

Yuqoridagilarni xulosalab, shuni qayd etish mumkinki, ichki ishlar organlari xodimlarining tashqi ko‘rinishi, birinchidan, uning ichki madaniyati, ya’ni tirishqoqligi, xizmatga shayligi, intizomliligi, o‘z kasbi va atrofdagilarga munosabatini bildiruvchi; ikkinchidan, fuqarolar va o‘z hamkasblarining ishonchiga sazovor qiluvchi; uchinchidan, insonga estetik zavq beruvchi; to‘rtinchidan, atrofdagilarga axloqiy-ruhiy ta’sir o‘tkazib tarbiyalovchi omillardan biri hisoblanadi.

Ko‘pgina ijodiy yo‘nalishlar, yangi estetik qarashlar orqali zamonaviy O‘zbekiston madaniyati o‘zining rivojlanish tendensiyasini amalga oshirmoqda. Bu hodisa, o‘z navbatida, O‘zbekiston madaniy-ma’naviy hayotini barqarorlashtirish uchun zamin yaratmoqda.

Madaniyatshunoslik fani madaniyat tizimi haqidagi fan ekan, bu tizim barcha xalqlar madaniyatining durdonalaridan tashkil topadi. Bu fanning vujudga kelishi madaniyatning inson hayoti va jamiyatdagi ahamiyatini anglab yetish bilan izohlanadi. Fanda to‘plangan keng va ko‘plab faktlar shuni ko‘rsatadiki, madaniyat jamiyat hayotining barcha sohalarida amal qiladi, ijtimoiy taraqqiyotning yo‘nalishi dinamikasini belgilaydi.

Ma’naviyat va madaniyat – insonga hayotda barqarorlik bag‘ishlaydi, uning qarashlarining shunchaki boylik orttirish yo‘lida kun ko‘rish uchun moslashib olishiga yo‘l qo‘ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlari irodasini mustahkamlaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «*Madaniyat*» atamasini kim birinchi bor muomalaga kiritgan?
2. «*Madaniyat*» atamasining lug‘aviy ma’nosini nima?
3. «*Madaniyat*»ning elementlarini belgilang.
4. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiluvchi huquqiy hujjatni ko‘rsating.
5. «*Madaniyat*»ning asosiy turlarini belgilang.
6. Quyidagilardan qaysi biri «*Madaniyat*»ning sohasi bo‘lib hisoblanadi?
7. Quyidagilardan qaysi biri «*Madaniyat*»ning sohasiga taalluqli emas?
8. Moddiy madaniyat nima?
9. Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan boyliklar qaysilar?

10. *Ma’naviy madaniyat nima?*
11. *Madaniyatshunoslik fanining predmetini nimalar tashkil etadi?*
12. *Madaniyatshunoslik fanining vazifalarini aniqlab bering.*
13. «*Madaniyatshunoslik*» fani qaysi fanlar bilan bog‘liq?
14. «*Madaniyatshunoslik*» faniga qachon asos solindi?
15. «*Madaniyatshunoslik*» fanining asoschilaridan qaysi biri to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
16. *Madaniyatshunoslik faniga asos solinganligini, uning mustaqil fansifatida bir tizimga keltirganligini qaysi asarlarda ko‘rishimiz mumkin?*
17. *Madaniyat ijtimoiy hayotning.... .*
18. *Quyidagilardan qaysi biri «Madaniyatshunoslik» fanining tadqiqot manbai bo‘lib hisoblanadi?*

2-MAVZU. JAHON MADANIY TARAQQIYOTINING ASOSIY QONUNIYATLARI

∞ *Moddiy va ma’naviy madaniyat hamda ularning o‘zaro aloqadorligi*

∞ *Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatning asosiy turlari va yo‘nalishlari*

∞ *Madaniy va ma’naviy merosni saqlash va himoya qilishda ichki ishlar organlari xodimlarining o‘rni*

1. Moddiy va ma’naviy madaniyat hamda ularning o‘zaro aloqadorligi

Madaniy jarayoning o‘ziga xosligi shundaki, madaniyat hodisasi har doim shakl va mazmun, borliq va munosabat, narsaning mavjudligi va uning ramziy mazmuni uyg‘unligiga ega bo‘ladi. Moddiy madaniyat va ma’naviy madaniyat – madaniyatning ikki asosiy sohasi bo‘lib, bir-biri bilan o‘zaro aloqada, o‘zaro ta’sirda va bir-birini taqozo qilgan holda rivojlanadi. Moddiy madaniyat har doim muayyan ma’naviy madaniyatning timsoli hisoblanadi, o‘z navbatda, ma’naviy madaniyat ham qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlarda moddiy uyg‘unlikda mujassam bo‘ladi.

Moddiy madaniyatning ma’naviyatdan tarixan ayriligi faqat insoniyat taraqqiyotining boshlang‘ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda ma’naviy faoliyat maxsus sohaga aylangach, axloqiy mezonlar, din, san’at, huquq, siyosat, fan shakllanib, ma’lum doiradagi kishilar bu soha bilan shug‘ullana boshladи.

Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda, faqat ma’naviy madaniyat nazarda tutilgan. Negaki, borliqni haqiqat, yaxshilik, go‘zallik belgilaydi deb hisoblashgan. Shuning uchun birinchi o‘rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi fan, axloq, nafosat bo‘lib kelgan. Natijada jamiyatning moddiy hayotini, uning iqtisodiyotini o‘rganishga e’tibor berilmagan. Moddiy madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz hisoblangan.

Industrial jamiyatning vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarning tezda almashishi madaniyatshunoslarni insoniyatning barcha moddiy madaniyatini o‘rganishga majbur qildi.

Kishilarning amaliy qayta o‘zgartiruvchilik faoliyati, ularning ijtimoiy ishlab chiqarish va takroriy ishlab chiqarish bilan bog‘liqligi, moddiy madaniyatning o‘ziga xos sohalarga bo‘linishi madaniyatshunoslikda muayyan tadqiqotlarga zaruriyat tug‘dirdi.

Moddiy madaniyatning **birinchi katta sohasi** mehnat qurollari ishlab chiqarishning barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari, texnik qurilmalardir. Xullas, sun’iy sharoitda yaratilgan narsalarning barchasi, shuningdek moddiy madaniyatning bu qismi ishlab chiqarish madaniyati yoki jamiyat hayotining moddiy texnikasi asosi deb ataladi. Ishlab chiqaruvchi texnika madaniyatining maxsus qismini ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat faoliyatida ishtirok etuvchilarning ijodiy ko‘lami, ularning texnik bilimi, ishlab chiqarish madaniyati, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari tashkil qiladi.

Moddiy madaniyatning **ikkinci sohasi** ijtimoiy hayot va uning barcha tarmoqlarining me’yoriy harakatini ta’minlovchi ko‘plab ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog‘liq. Turli hokimiyat tuzilmalari va tegishli boshqaruv shakllari, ijtimoiy tashkilotlar, ta’lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta’lim berish, sog‘liqni saqlash va dam olish, ko‘ngil ochar muassasalar tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saqlaydi, o‘zgartiradi va qayta shakllantiradi.

Moddiy madaniyatining **uchinchchi sohasi** (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insonning o‘zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning bu sohasi nafaqat insoniyatni shunchaki biomavjudotlik muammolarini, balki avlodlarning o‘zaro munosabatlari muammolarini ham tadqiq etadi¹.

Inson ulg‘ayishi asnosida boshqa jamiyat madaniyati a’zosi sifatida shakllanishi mumkin. Insonning ikki, ba’zan undan ham ko‘proq madaniyatga mansubligi uni ko‘p tomonlama, turli madaniy olamga mansub qiladi. Ammo bunda ma’lum xavf ham yashirin bo‘ladi. Ya’ni, ulg‘ayayotgan avlod jamiyatga aralashuvi jarayonida begona madaniyatlarning aralashuvi yoshlarning o‘zining madaniyat manbaidan ayrilishiga, etnik an‘analarini tushunmasligiga olib keladi. O‘z milliy madaniyatidan mahrum kishi manqurtga aylanadi va har qanday madaniyatga ham befarq munosabatda bo‘ladi. *Shuning uchun meros, madaniyatning uzluksiz an‘anaviy yangilanish jarayonini ta’minlash o‘ta muhimdir.*

¹ Худойқулов Х.Ж., Баратов Р.Ў. Маданиятшунослик. – Т., 2008. – 17-б.

Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo‘lgan buyumlarni moddiy ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarini va natijalarini o‘z ichiga oladi.

Ma’naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroq ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo‘lib qoladi. Fan, din, falsafa, san’at, axloq, huquq, siyosat, mafkura, milliy o‘zlik ma’naviy madaniyatning aniq shakllari hisoblanadi. Alovida shakldagi ma’naviyatning xususiyati maxsus tuzilish va ma’lum vazifalar majmuidan iborat bo‘lib, har birining o‘ziga xosligida ifodalanadi.

Ma’naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, san’at) «chegara-langانlikda» farqlanadi, ya’ni ma’naviy madaniyatning aniq sohasiga aylanadi, boshqa shakllarida (axloqiy, estetik) faoliyatning barcha turlari qorishib ketadi. Madaniyatdagи hayratlanarli funksional haqqoniylig shuki, unda hech bir ortiqcha, shunchaki narsa yo‘q, barcha madaniyat hodisasi o‘zaro aloqadorlikda kechadi.

Tadqiqotchilar madaniyatning turli funksiyalarini ko‘rsatadilar. Jumladan,

- olamni o‘zlashtirish va qayta o‘zgartirish;
- himoya-moslashuv vazifasi; jamiyat va atrof muhit o‘rtasidagi muvofiqlikni saqlash;
- signifikativ funksiya;
- axborotlarni o‘zlashtirish va yig‘ish funksiyasi;
- kommunikativ funksiya;
- normativiylik funksiya;
- ruhiy yoki «loyihaviy» mo‘tadillik¹.

Olamni o‘zlashtirish va qayta o‘zgartirishda u mavjud narsalarning jismoniy talablarini, shuningdek ijoddagi hayotiy talablarni qondirish zarurati bilan bog‘liq.

Himoya-moslashuv vazifasi; jamiyat va atrof muhit o‘rtasidagi muvofiqlikni saqlashi. Ushbu funksiya uzoq vaqt qiyin tabiiy sharoitlarda barcha yangi himoya vositalarini ishlab chiqishda va ko‘niktirishda (olov, turar joy, kiyim, dehqonchilik va h. k.) odamning omon qolishini ta’minlaydi. Keyingi vaqtarda o‘ta jiddiy bo‘lib turgan muammo tabiatan himoya qiluvchi vositalarni yaratish, bunda ekologik mezon, ekologik tafakkurining keng ko‘lamda yoyilishini amalga oshirish zarur.

¹ Musaev N.U., Azimov H.I. Madaniyatshunoslik. – T., 2010. – 22-6.

Signifikativ funksiya (belgilash, ro‘yxatga olish mazmunida) – mazmun, ma’no, nom, belgilar ko‘lамини ishlab chiqish vositasida dunyoning qiyofasida, voqelikda belgi tizimining yaratilishi. Sezgilar ham, tashqi idrok ham, shuurning bevosita kechinmalar holidagi yig‘indisi ham insonga yo‘nalishni aniqlash tizimini ta’minlab bermaydi. Bu vazifani ma’lumotlarni o‘zida saqlamasdan, nazariy modellar va axborotlarning to‘planishini vujudga keltirish uchun faqat material bo‘lib xizmat qiluvchi mazmun bajaradi.

Axborotlarni o‘zlashtirish va yig‘ish funksiyasi. Xabarlarni yig‘ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarni narsalarga yozish (qo‘lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, ohanrabo yoki raqamli yozuvlar) bo‘lishi mumkin. Har qanday holatda axborotlarni tashkil qilish, uning qadri va mazmuni bo‘yicha tartibga solishning ma’lum usuli va belgilar tizimi zarur. Hozirgi davrda til belgilar tizimining keng ko‘لامи va o‘ta ahamiyatlisi bo‘lib qolmoqda.

Kommunikativ funksiya (aloqa almashuv) – mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma’naviy kuchlarni almashish. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, axborot, o‘zaro amaliy hamkorlikni taqozo qiladi, negaki, faqat turli tiplarning munosabati (an’anaviy, funksional-ahamiyatli, shaxslararo, ishlab chiqaruvchi, ma’rifiymadaniy) jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta’minlashga qodir.

Normativiylik funksiya (mezon-me’yoriy) – kishilar xulqini tartibga solish, ularning kuchini bir me’yorda va jamiyatni bir butunlikda saqlash maqsadida muvofiqlashtirish. Me’yor-qoida qandaydir harakat yoki qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida aniq ko‘rsatmadir. Ongli ravishda o‘rnatilgan yoki ko‘p asrlik an’analarga tayanuvchi majburiy, taqiqlovchi me’yorlar mavjud (huquqiy, axloqiy me’yorlar), biroq ularning mazmuni jamiyatni barbod qilmaslik uchun kishilar faoliyatini tartibga solish, aniq chegaralar bilan belgilash.

Ruhiy yoki «loyihaviy» mo‘tadillik – bayramlar, diniy marosimlar, o‘yin, tomosha jarayonlarida ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf qilish. Qonikdrsiz istaklar, ro‘yobga chiqmaydigan niyatlar, amalda taqiqlanuvchi janjallar mavjudligi ruhiy zo‘riqishlar paydo bo‘lishiga olib kelib, nafaqat muayyan shaxs salomatligiga zarar yetkazadi, balki ommaviylik kasb etib, jamiyat harakatini izdan

chiqarishi mumkin. Shuning uchun madaniyatda keraksiz hissiyot-dan xalos bo‘lish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Xullas, kishilar yaratgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar, boyliklar ularning qobiliyatlari, munosabatlari va mohiyatli kuchlari namoyon bo‘lishidan iborat. Inson madaniyat sohasida bu ma’naviy qadriyatlarga o‘z munosabatini bildirar ekan, ayni vaqtida, o‘zi rivojlanadigan, o‘zi o‘zgarib turadigan mohiyat sifatida ham namoyon bo‘ladi. Demak, madaniyat narsalar shaklida, inson faoliyatining tayyor mahsulotlari shaklida va insonning jonli qobiliyatlari, bilimlari shaklida yashab turadi.

Kishilar ijtimoiy tajriba jarayonida zaruriy moddiy shart-sharoit va hayot vositalarini yaratish bilangina kifoyalanmay, ayni chog‘da, o‘z ongini ham takomillashtiradi. Ijtimoiy ong shakllarini (dunyoq-arash, axloq, huquq, estetik ong) vujudga keltiradilar yoki ma’naviy ishlab chiqarish faoliyatni amalga oshiradilar. Bularning majmui ma’naviy madaniyat sohasini tashkil etadi.

Madaniyatning quyidagi funksiyalari bevosita shaxs bilan bog‘liq:

— **«Gominzatsiya»** — urug‘doshlik xususiyatlarini o‘rganadi. Madaniyat «aqli odam» uchun xos bo‘lgan – nutq, narsalarni ramziy ifodalash (yoki mavhum tafakkur) xususiyatlarini har bir odam o‘rganishiga imkon yaratadi.

— **Sotsializatsiya** (umumlashtirish) – jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy a’zosi sifatida zarur hisoblangan ma’lum miqdordagi shartlarni o‘zlashtirish. Bu funksiya idrok, tafakkur, nutq, so‘zlarning qo‘llanilishi, ohang, imo-ishora va shama, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek talab va qadriyat yo‘nalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarni mustahkamlash bilan bog‘liq.

— **Inkulturatsiya** — avvalo, milliy, keyin esa umuminsoniy madaniy merosga (aralashish) munosabatda bo‘lish.

— **Individualizatsiya** – muayyan shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatini o‘ta rivojlantirishga mo‘ljallangan madaniyat. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida (jamiyat, insoniyat) eng asosiy bo‘g‘in bo‘lib, har bir aniq shaxs madaniyatining barkamollik darajasiga jamiyat yoki butun insoniyat madaniyati bog‘liq bo‘lishini bildiradi.

Shaxs madaniyatining shakllanishida jamiyat madaniyatining quyidagi tizimlari unga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi:

siyosiy madaniyat;
iqtisodiy madaniyat;
axloqiy madaniyat;
estetik madaniyat.

Madaniyat tizimida **fan** moddiy va ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Fan ma'naviy ishlab chiqarishning mahsuli sifatida o'zida insonning mohiyatli kuchlarini ifoda etib, madaniyat hodisasi tariqasida namoyon bo'ladi.

Fan madaniyat hodisasi sifatida bilimlarni ishlab chiqarish xususiyatlarini nazarda tutadi. Har qanday tasavvur va bilimlar singari fan ham ijtimoiy amaliyot, ijtimoiy ehtiyoj tufayli yuzaga keladi¹.

Madaniyat tizimida **din** insonning e'tiqod ramzi, hayot tasavvurlarining ma'naviy va moddiy madaniyat sifatida namoyon bo'lishidir. Shuningdek, din barcha jamiyatlarda axloqni shakllantiruvchi soha bo'lib keldi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishlarga ega bo'ldi.

«Qadriyat» tushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan biridir. Ayrim tadqiqotchilar uni davrning ehtiyojini belgilaydi, ya'ni tarixiy xususiyat kasb etadi deb hisoblasa, boshqa bir tadqiqotchi Rikert, aksincha, qadriyat doimiy, universal xususiyatga ega deb hisoblaydi. T. Parsonsning fikricha, qadr me'yoriy andozadir. Mazkur turli xil, hatto qarama-qarshi fikrlardan qadriyatning ma'nesi ko'p qirrali ekanligi anglanadi.

Qadriyat – kishilar hayotida o'ta ahamiyatli hodisadir. Uni madaniyat sohalari ro'yobga chiqargan hodisa sifatida bog'liqlikda anglash mumkin. Shunda xo'jalik, texnik, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ilmiy, axloqiy qadriyatlar ajraladi. Rasmiy nuqtai nazardan qadriyatni ijobjiy va salbiy, o'ziga xos va doimiy, mustaqil va shartli tarzda farqlash mumkin.

Moddiy nuqtai nazardan qadriyat hissiy (ya'ni, oddiy his qilish organi)dir. U hayotiy, maishiy, texnik, qoniqish qadriyati, ma'naviy-ilmiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqalarga bo'linadi. Ayrim qadriyatlar (xo'jalik, texnik, siyosiy) tarixiy xususiyat kasb etadi, ya'ni madaniyat, davr o'zgarishi bilan ular ham o'zgarib turadi, boshqa qadriyatlar esa doimiy, universal xususiyatga ega (axloqiy, badiiy)dir.

Qadriyatlar ro'yxati har bir jamiyatning milliy va o'ziga xos sivilizatsiyasi bilan bog'liq holda keskin farqlanadi. Hamma davrlarda, barcha xalqlarda eng yuksak qadriyatlar ezbilik, hayo, mehnat, sevgi, haqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalangan.

¹ Абдуллаев М. Маданиятшунослик асослари. – Фарғона, 1998. – 40-б.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko‘ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo‘linadi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analarini, jamiki moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tili, tarixi, dini, urf-odat va an’analari mushtarak bo‘lgan xalqlar mafaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar mazmuni jihatdan chuqur va keng bo‘lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishiga muvofiq keladi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko‘p uyg‘unlashgan bo‘lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi.

Madaniyatning me’yoriy rivojlanishi uni asrab, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Uning aniq namoyon bo‘lishi tiplarining ko‘pligi, tendensiyalar xilma-xilligi bilan farqlanadi. Har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi o‘tmishdoshlarining tajribasidan farqlanib turadi: san’atdagi o‘lcham fandagidan boshqacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqlidir. Vorislik (meros) har qanday sohada insonning haqiqiy o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi, va ayni paytda, mahalliy yoki dunyo miqyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin.

Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir me’yorda, tekis yo‘nalish shakllarida bo‘lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o‘tishi notejis bo‘hronlar xususiyatiga ega. Insoniyatning ma’naviy yutuqlarini meros qilib qoldirishda vorislik keng miqyosli (umumiylar) jarayonlar shaklda mufassal yo‘nalishda amalga oshadi.

Agar madaniyat va ma’naviyat sohalari tarkibida til, udumlar, an’analar va boshqalar bo‘lsa, ma’lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan, san’at kabi sohalardagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi.

Keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba’zilari, masalan, namoyish qilish, og‘zaki uzatish, folklor, san’at qadimdan amal

qiladi. Boshqa usullar, masalan, kino tasviri, ohanrabo yozuvi, kompyuter xotirasi keyinroq paydo bo‘ldi.

Barcha jamiyatlarda ham ma’naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini o‘zgartirish sharoiti bir xilda emas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog‘liq. Ma’lumki, sovet jamiyatida kommunistik g‘oya hukmronligi davrida xalqlar, xususan, O‘zbekiston xalqi ham o‘zining haqiqiy tarixiy, milliy va ma’naviy merosidan mahrum etilgan edi. Umuman, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo‘lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo‘lishi mumkin emas.

2. Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatning asosiy turlari va yo‘nalishlari

«Sivilizatsiya» tushunchasini ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini ifodalash uchun ishlatish ma’lum ma’noda o‘rinli. Chunki bunday ma’noda ishlatilganda, «sivilizatsiya» tushunchasi kishilik jamiyati rivojlanishining ibtidoiy holatidan keyingi davrdagi butun holatini to‘laligicha qamrab oladi. Varvarlikdan sivilizatsiyaga o‘tish hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi, tovar ishlab chiqarishning yuzaga kelishi, savdosotiqlarning paydo bo‘lishi va uni kasb qilib olgan savdogarlar qatlaming shakllanishi, metall pulning muomalaga kiritilishi, yozuvning paydo bo‘lishi, aqliy va jismoniy mehnatning bir-biridan ajralishi, siyosiy hokimiyatning qaror topishi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi¹.

«Madaniyat» va «sivilizatsiya» tushunchalari ko‘p hollarda sinonim sifatida yonma-yon ishlatiladi. Bunda «sivilizatsiya» tushunchasi ostida yaratilgan moddiy va ma’naviy yutuqlar nazarda tutiladi. Lekin sivilizatsiya haqida yuqorida fikrga qarama-qarshi bo‘lgan qarashlar ham mavjud. Nemis faylasufi O. Shpengler uni madaniyatning antipodi ma’nosida, ya’ni madaniyatning halok bo‘lish jarayonini, bosqichini tavsiflash uchun ishlatadi. Shpengler uchun sivilizatsiya – ijodiyot, ilhomlanish, ilhom, rivoj, ma’naviy boyish davri o‘rniga jamiyatning tosh qotishi, ijodning tang holatga kelishi, ma’naviy bo‘shliq davri bilan almashuvidir.

¹ Ўша acap. – 310-6.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, sivilizatsiya kishiga bog'liq bo'limgan, uning tashqarisida sodir bo'layotgan tashqi hayot, olam, tashqi jarayondir. Madaniyat esa buning aksi bo'lib, u aynan kishi ichki dunyosida vujudga keladigan jarayondir. Madaniyatning unday yoki bunday bo'lishi kishi ichki dunyosining qay darajada boy yoki nochor ekanligidan dalolat beradi.

Sivilizatsiya – avvalo, madaniyat yutuqlaridir. Bir madaniyatning o'zi esa bir nechta sulola va davlatlardan uzoq yashashi mumkin. O'z navbatida, bir sivilizatsiyaning o'zi ham shunchalik uzoq umr ko'radiki, umri davomida bir-birini bosib olgan turli davlatlarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sivilizatsiya turli hududlarga tarqalishi, ularni bosib olishi (faqat kuch ishlatish yo'li bilan emas), yangi-yangi xalq va davlatlarni egallashi mumkin. Shuningdek, sivilizatsiya o'z madaniy qadriyat va yutuqlarini boshqa bir sivilizatsiyaga berib, o'zi yo'qolib ketishi ham mumkin.

Ayrim hollarda bir nechta sivilizatsiyalar birlashib, yagona sivilizatsiyani tashkil qilishi ham mumkin (masalan, grek-rim sivilizatsiyasi). Sivilizatsiyalar bir-biri bilan parallel ravishda yashashi yoki bo'lmasa birin-ketin vujudga kelishi ham mumkin. Nima bo'lganda ham, sivilizatsiya tarixi – madaniyat tarixidir. Sivilizatsiyani o'rganish – undagi madaniyat rivojini o'rganishdir.

Sivilizatsiya madaniyatning aniq namoyon bo'lishini, uning real mavjud hayotini aks ettirishidir. Sivilizatsiya madaniyatsiz, madaniyatning sivilizatsiyasiz, undan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki inson muayyan sivilizatsiya bag'rida o'tmish avlodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirgan holda shakllanishi, kamol topishi mumkin.

Madaniyat kelib chiqish jihatidan bir butunlikdagi yaxlit hodisadir. Lekin u hamisha izlanishda, rivojlanishda bo'ladi. Demak, madaniyat o'z xususiyatiga ko'ra o'zgaruvchandir. Ming yil ichida madaniyat shu darajada o'zgaradiki, bemalol u madaniy holat bilan bu madaniy holat o'rtasidagi sifat darajasini farqlash mumkin. Bu davrda yuz bergen o'zgarishlarga qarab hattoki bemalol, o'zaro o'rin almashgan madaniyat turlari va shakllarini ajratsa bo'ladi. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida, parallel ravishda yashagan madaniyat turlari va shakllari ham mavjud bo'ljan. Er. av. V asrda mavjud bo'ljan qadimgi Gretsiya madaniyati bilan shu davrda sayyoramizning boshqa nuqtasida rivojlanayotgan madaniyat o'rtasida farq bo'lishi tabiiydir.

Xo'sh, madaniyatning asosiy turlari qanday bo'ladi? Ular nechta? Qaysi belgilari orqali madaniyatning bir turi ikkinchi turdan farqlanadi? Bu savollar javobi tipologiya (turshunoslik)ning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Har bir hodisaning tipologiyasi (turlari)ni aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi, biroq madaniyat tipologiyasi alohida qiyinchiliklar tug'diradi. Xo'sh, bular qanday qiyinchiliklar ekan?

Birinchidan, madaniyat «motorli g'ildirak» kabi to'xtovsiz ravishda harakatda, rivojlanishda bo'ladigan hodisadir. Bunday «g'ildirakli» madaniyatning vaqt-davr jihatidan aniq chegarasini topish oson ish emas. Sababi, bir tarixiy-madaniy bosqich davri boshqa bir tarixiy-madaniy bosqich davriga mos tushmasligi, ikkinchi bosqichning rivojlanish davri ko'proq yoki kamroq vaqtini o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Masalan, tarixiy manbalarda eramizning IV asrigacha bo'lgan davr qadimgi dunyo, eramizning IV asridan keyingi davr o'rta asr deb yuritiladi. Tarixni, madaniy rivojlanishni, boringki, sivilizatsiyani bunday xronologik chegaralash Janubiy va G'arbiy Yevropa hududi tarixi, madaniyatiga mos tushadi. Boshqa ko'pgina hududlar madaniy rivojlanish davrini, tarixini esa bu xronologiya qoniqtirmaydi.

Nega endi aynan eramizning IV asri chegara qilib olinishi lozim? Nimaga eramizning III yoki II asri qadimgi dunyo bilan o'rta asrlar o'rtasida chegara vazifasini bajarmaydi? Nima uchun boshqa hudud madaniyati yoki tarixi bu sana bilan hisoblashishi lozim?

Ikkinchidan, turli xalqlar, turli hududlar, turli davrlar madaniyati bir-biridan farqlanishlari ham, bir-biri bilan umumiy jihatga ega bo'lish ham mumkin. Masalan, til o'xshashligi, din umumiyligi, moddiy yoki ma'naviy-badiiy hayotning yaqinligi va boshq. Savol tug'iladi: Xo'sh, qanchalik darajada o'xshash bo'lish ikkita alohida madaniyatning boshqa-boshqa madaniyat turlari sifatida o'rganilishiga yo'l qo'ymaydi? Boshqacha izohlaganda, ikkita turli xil madaniyatning umumiy jihat nechtaga yetganda yoki nechta bo'lganda, ular alohida olingen madaniyat turlari bo'lmay, yagona madaniyat turiga aylanib qoladi? Shunday qilib, bu yo'l bilan ham madaniyat turlari chegarasini aniqlash to'g'ri xulosa bermaydi. Masalan, ayrim ilmiy adabiyotlarda qadimgi grek madaniyati bir madaniyat turi, qadimgi Rim madaniyati ikkinchi madaniyat turi deb o'rganilsa-da, boshqa adabiyotlarda bu ikki madaniyat turi bitta qilib, grek-rim madaniyati deb yuritiladi.

Chuqur mulohaza qilib ko‘rilsa, alohida ravishda grek madaniyat turi deb ham, Rim madaniyat turi deb ham, har ikkisini qo‘shib grek-rim madaniyat turi deb ham yuritish to‘g‘ridek tuyuladi. Lekin bunda aniq chegara yana yo‘qoladi. Xo‘sh, bu holatda madaniyat turlarini ajratish kerakmi yoki qo‘shish kerakmi?

Uchinchidan, jahon madaniyatini, jahon madaniyati boyligi va merosini, insoniyatning madaniyat olamida erishgan yutuqlarini umuminsoniy madaniyat va boylik deb tushunamiz. Yagona jahon madaniyati mavjud ekan, nima uchun madaniyatning turlarini aniqlash, uni bir nechtaga ajratish lozim?

Bu savollarga aynan madaniyat tipologiyasi javob bermog‘i kerak. Ya’ni, tipologiya xalqaro, millatlararo, ijtimoiy guruhlararo madaniyat, muloqot va munosabat qay darajada ekanligini aniqlash, ularni o‘rnatish muammolarining yechimi bilan bog‘liq. Bu muammolar nafaqat tipologiyaga balki tarixga ham, siyosatga ham bog‘liq muammolardir. Ularning yechimiga madaniyat taqdiri, demakki, inson taqdiri ham bog‘liqdir.

Ko‘p hollarda madaniyatshunoslik bo‘yicha mutaxassislar bir necha sivilizatsiyalarni aniqlab olib, shundan so‘ng, ushbu sivilizatsiyalar ichida rivojlangan madaniyatlarning ko‘rinishini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishadi. Lekin O. Shpengler nazariyasi bundan mustasno. Birinchi mavzuda ta’kidlab o‘tilganidek, O. Shpengler madaniyat va sivilizatsiyani bir vaqtida yuz beradigan jarayon, biri ikkinchisining ichida uchraydi, deb hisoblamaydi. Uning fikricha, sivilizatsiya vujudga kelganda, madaniyat o‘ladi. (O. Shpengler o‘zining «Zakat Yevropы» (1918 yil) asarida sivilizatsiyani texnik-mexaniq elementlar yig‘indisi davri, madaniyatni esa «organik hayotning shohlik davri» deb tushuntiradi).

Shunday qilib, boshqa mutaxassislar singari madaniyat va sivilizatsiyani bir-biriga bog‘liq deb hisoblamaydigan O. Shpengler ulardagi rivojlanish bosqichlari ham boshqa-boshqa, bir-biriga bog‘liq emas, deb ta’kidlaydi. O. Shpengler o‘z asarida 8–9 ta sivilizatsiyani ko‘rsatib o‘tadi. Rus madaniyatshunosi N. YA. Danilevskiy (XIX asr) 10 ta sivilizatsiyani, ingliz olimi A. Toynbi (XX asr) 20 ga yaqin sivilizatsiyani turli madaniyat tiplari bilan ajratib ko‘rsatgan.

Umuminsoniy madaniyatlar birligini ta’kidlash bilan bir qatorda, turli xil madaniyat turlari ham mavjudligini tan olish kerak. Jahon madaniyati ham, turli madaniyat turlari ham bir-birini inkor etmaydi, aksincha, ular bir vaqtning o‘zida parallel ravishda yashab kelishgan.

Insoniyat rivojining qaysidir davrida madaniyatning turlanishi tabiiy bo‘lgan: bir madaniyat ikkinchi madaniyatdan diniy, axloqiy qarashlar tizimi, moddiy va ma’naviy madaniyat shakllari bilan orqali farqlanadi. Juhon madaniyati haqida gap ketganda, uni turli madaniyatlar yig‘indisi, majmuasi sifatida tasavvur qilish haqiqatga yaqinroq bo‘ladi.

Vaqt o‘tishi bilan insoniyat umuminsoniy qadriyatlargacha umumiy madaniyatga ehtiyoj sezaga boshladi. Umuminsoniy qadriyatlar ilk bor qadimdan, jahon dinlarining axloqiy qarashlari shakllana boshlagan davrdan boshlab vujudga kela boshlagan bo‘lsa-da, XX asrga kelibgina ular umuminsoniy qadriyatlar deb tan olina boshlandi.

XX asr nemis mutafakkiri K. Yaspers fikricha, er. av. VIII-II asrlarda vujudga kela boshlagan ilk umumdiniy va axloqiy qadriyatlar umuminsoniy qadriyat va madaniyatning yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Bu tarixiy davrni K. Yaspers umuminsoniyat tarixining asosi, boshlang‘ich nuqtasi, deb ta’riflaydi. Din esa har qanday jamiyatda qadrlanganligi sababli, undan boshlangan umuminsoniy madaniyat ham elatlar va millatlar madaniyati ildiziga mustahkam singdirilgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga qaramasdan, umuminsoniy madaniyatning oyoqqa turishi qiyin kechgan. U iqtisodiy, siyosiy, milliy, irqiy kabi ko‘pgina muammolarga duch kelgan.

Shuni unutmaslik kerakki, milliy madaniyatlarning umuminsoniy madaniyatga qo‘shilishida ehtiyotkor bo‘lish tabiiydir. Bu ehtiyotkorlik tuyg‘usi milliy madaniyat, undagi milliy til, an’ana, urf-odatlar taqdiri haqida qayg‘uradi. Umuminsoniy madaniyatga qo‘shilish ayrim hollarda milliy madaniy qadriyatlarning yo‘q qilinishiga olib keladi, degan tushuncha mavjud. Bir qarashda bunday hadikni tushunish mumkindek tuyulsa-da, doimo yodda tutish lozimki, umuminsoniy madaniyat har bir madaniy qadriyatga hurmat bilan yondashib, ularni asrab-avaylaydi. Har bir madaniyat hodisasi butun jahon madaniyatining bir elementidir. Demak, jahon madaniyati turli madaniyat ko‘rinishlarining har bir bo‘lagini qadrlaydi.

Ayrim vaziyatlarda milliy madaniyatning o‘zi bir necha turga bo‘linadi, deb qaraladi. Masalan, marksizm qarashlari tarafdorlari uchun har bir milliy madaniyatning o‘zi qatlamlarga qarab, bir necha madaniyat turiga bo‘linadi, deb tushunish xosdir. Marksizm davomchilari ham milliy madaniyatni ikkiga: quyi sinf madaniyati (ishchi-dehqon madaniyati) va burjua madaniyati (oq suyaklar madaniyati)ga bo‘ladi. Agar jamiyatda yuzaga kelgan sinfiy qatlamlarga nazar tashlansa, unda pomeshchik (boy) va dehqon madaniyati mavjudligini ko‘rish mumkin.

Haqiqatan ham, turli ijtimoiy qatlamlarning madaniy qarashlari, qadriyatlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud bo‘lgan va bu farq hozir ham ayrim g‘arb davlatlarida mavjud. Avvalo, bu xususiyat moddiy madaniyatda, ya’ni hayot tarzida, ta’lim olish imkoniyatlari darajasida, badiiy qadriyatlarni tanlash imkoniyatlarida ko‘rinadi. Ammo til, din, axloq -milliy madaniyatning birligini, yagonaligini ta’minlovchi asosiy omillardir.

XX asrga kelib ilm-fan, texnika shu qadar jadal rivojlanib ketdiki, bu hol, ta’lim olish imkoniyatlari, hayot tarzi, badiiy madaniyatni tanlash o‘rtasidagi ijtimoiy qatlamlararo chegarani olib tashladi. XX asr madaniyat turlarining yangicha ko‘rinishini: ommaviy va elitar madaniyatni vujudga keltirdi. Xo‘s, bu madaniyatlar bir madaniyat turi ichidagi har xil yo‘nalishlarmi yoki boshqa-boshqa madaniyat turlarimi? Yuzaki qarashda, har ikki madaniyat ko‘rinishi bir jamiyat ichida vujudga kelgan bo‘lib, bir madaniyat turining ikki xil yo‘nalishidek tuyulsa-da, aslida ularning bir-biriga o‘xshamasligi doimo o‘zaro qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Shu narsa aniqki, bu ikki madaniyat o‘rtasida farq bor. Lekin bu farq siyosiy yoki ijtimoiy tengsizlik natijasi yuzasidan vujudga kelmagan.

XX asrda madaniyat bo‘linishining yana bir ko‘rinishi – bir-biriga aslo o‘xshamaydigan turlarni keltirib chiqardi. Ya’ni, bugungi kun zamonaviy madaniyatida ikki xil ko‘rinishli madaniyat turlari mavjud. Birinchisi, ijtimoiy-gumanitar fanlarga asoslangan odob, axloq, shaxs, san’at va boshq. Ikkinchisi, tabiiy fanlar yutug‘iga asoslangan sanoat, texnologiya kabi texnik jarayonlar madaniyatidir. Bu holat umumiy madaniyatning butunligini, yagonaligini sindiradi. Balki, bu ikki madaniyat turini alohida-alohida olmasdan, bitta, yagona madaniyat turining har xil yo‘nalishi deyish to‘g‘ri bo‘ladimi? Bitta madaniyat turining har xil yo‘nalishi sifatida ommaviy va elitar madaniyatni ham nazarda tutish to‘g‘ri bo‘ladimi? Bu savollarga ingliz olimi CH .P Snou o‘z asarlarida to‘xtalgan.

Biz esa turli sivilizatsiyalarda uchraydigan boshqa-boshqa madaniyatlarning o‘zaro aloqasiga to‘xtalib o‘tamiz. Kitobxon diqqat qilgan bo‘lsa, ushbu mavzu boshida madaniyatshunoslar (O Shpengler-dan tashqari) bir necha sivilizatsiyani sanab o‘tib, shundan so‘ng ushbu sivilizatsiyalardagi madaniyatlarning o‘ziga xosligini o‘rganishadi, deb ta’kidlagan edik. (Yodgingizda bo‘lsa, O Shpengler 8-9 ta sivilizatsiyani, N YA Danilevskiy 10 ta sivilizatsiyani, A Toynbi 20 ga yaqin

sivilizatsiyani bir nechta madaniyat turlari bilan ko'rsatib o'tganligini bayon etgan edik).

Bu bo'limni N.YA. Danilevskiy (XIX asr rus olimi) va O. Shpengler (XX asr nemis olimi) qarashlari bilan boshlaymiz. N. YA. Danilevskiy va O. Shpengler nazariyalari o'zining originalligi, haqiqatga yaqinligi va mashhurligi bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, O. Shpengler g'oyalari «Zakat Yevropy» (1918 yil) asaridan so'ng mutaxassislar orasida mashhur bo'lib ketdi. N.YA Danilevskiy g'oyalari ham O Shpenglernikiga yaqin bo'lsa-da, bu olimga mashhurlik yulduzi kam kulib boqdi. Sababi, N. YA. Danilevskiy o'z qarashlarini O Shpenglerga nisbatan 50 yil avval bayon qilgan bo'lib, bu davrda Yevropa intellegensiyasining ongi, dunyoqarashi hali bu g'oyalarni qabul qilishga tayyor emas edi.

Shunga qaramay, N. YA. Danilevskiy nazariyasi ham intellegentlar e'tiboridan chetda qolmadi. Olimning «Rossiya i Yevropa» (1869) asari chop etilgandan so'ng ayrim mutafakkirlar ijobiy, ayrimlari esa tanqidiy fikr bildirishdi.

N. YA. Danilevskiy nazariyasining boshlang'ich prinsipi mustaqil madaniy-tarixiy turlarni o'rganish davomida ularni biologik organizmga o'xshatish va bu o'xshatish orqali madaniy-tarixiy turlarning rivojlanganlik darajasini kuzatishdir. Ya'ni, madaniy-tarixiy turlar tirik organizm kabi hamisha bir-biri va atrof muhit bilan o'zaro kurashda bo'ladi; biologik turlar kabi ular ham oldindan belgilangan kuchga to'lish, qarish va o'lish kabi bosqichlarni bosib o'tadi. N. YA. Danilevskiy fikricha, tarixning hayot yo'li madaniy-tarixiy turlarning o'zaro kurashib, bir-birini siqib chiqarishdan iboratdir.

N. YA. Danilevskiy quyidagi tarixiy-madaniy turlarni yoki bosh-qacha aytganda, ilk sivilizatsiyalarni ajratib ko'rsatadi:

- 1) Misr;
- 2) Xitoy;
- 3) Vavilon (Bobil);
- 4) Hind;
- 5) Eron;
- 6) Yevropa;
- 7) Grek;
- 8) Rim;
- 9) Arab;
- 10) German-roman yoki Yevropa deyish ham mumkin.

Bu asosiy tarixiy-madaniy yoki ilk sivilizatsiya turlariga N. YA. Danilevskiy yana ikkita amerikacha turni ham qo'shamdi. Bular: Meksika va Peru tarixiy-madaniy turlari yoki ilk sivilizatsiya turlaridir. Oxirgi ikki madaniyatning tugatilishi XVI asrga kelib majburiy ravishda amalga oshgan (Amerikaga ispan bosqinchilari kirib kelishi sabab bo'lgan).

N. YA. Danilevskiy o'zgacha bo'lgan madaniyat turlari yoki sivilizatsiyalarining tarixiy rivojlanan olish yo'li qonunini ishlab chiqqan:

1. Alohida til yoki qardosh tillar guruhiga ega bo'lgan har qanday xalq yoki xalqlar guruhi – o'zi mustaqil madaniy-tarixiy turni shakllantira oladi.

2. Madaniy-tarixiy tur xususiyatiga ega bo'lgan sivilizatsiya o'zining tug'ilma olishi va rivojlanan olishi uchun unga egalik qilgan xalq siyosiy jihatdan mustaqil bo'lmog'i lozim.

3. Bir madaniy-tarixiy turning boshlang'ich sivilizatsiyasi boshqa turga kiruvchi xalqlarga ta'sir ko'rsatmaydi. Har bir tur o'zi uchun alohida sivilizatsiyani ishlab chiqadi.

4. Har bir madaniy-tarixiy turda vujudga kelishi aniq bo'lgan sivilizatsiya gullab-yashnashi uchun ushbu turga kiruvchi xalqlar erkin siyosatga ega bo'lishlari lozim. Shundagina bu sivilizatsiya to'liq ravishda yetuklikka erishgan bo'ladi.

5. Madaniy-tarixiy turning rivojlanish yo'li uzoq yashab hayotida bir marotaba hosil beradigan o'simlikka o'xshaydi: o'sish jarayoni uzoq bo'lib, gullashi va meva berish davri qisqa va bor kuchni sug'urib oluvchi bo'ladi. Natijada bu sivilizatsiya so'nadi.

N. YA. Danilevskiy madaniy-tarixiy turda oliy, nihoyasiga yetgan ijtimoiy birlikni ko'radi. Uning fikricha, biron-bir madaniy-tarixiy turga kiruvchi xalqlarning manfaatlari, xuddi quyi manfaatlar yuqori manfaatlarga xizmat qilishi lozim bo'lganidek, mazkur turning manfaatlari bo'ysunishi lozim.

O. Shpengler nazariyasi N. YA. Danilevskiy g'oyalari bilan ko'p jihatdan bir-biriga mos tushsa-da, lekin u o'z nazariyasida «madaniy-tarixiy tur» tushunchasini ishlatmaydi, aksincha, sivilizatsiyani rivojlanish natijasida vujudga keladigan bosqich, ya'ni uni madaniyat ketidan keladigan hodisa, jarayon deb biladi. O. Shpengler yoshini yashab bo'lgan yoki rivojlanishdan to'xtab, qotib qolgan 8 ta sivilizatsiyani ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, aynan bugungi kunda G'arbiy Yevropa o'zining ma'naviy rivojlanishi yo'lidagi ijodiy

bosqichni yakunlab, tugallab bormoqda, shuning uchun olim XX asrni Yevropa nihoyasining boshlanishi, deb izohlaydi.

Xullas, N. YA. Danilevskiy va O. Shpengler nazariyalari qiyosan o‘rganib chiqilsa, ulardan: turli xil madaniyatlar bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatib, bir-birini boyita olmaydilar, degan xulosa kelib chiqadi. Bir madaniyat turining ikkinchi bir madaniyat omilidan, kashfiyotidan foydalanishi birinchi madaniyat turiga faqatgina zarar keltiradi. Bunday yo‘l bilan boshqa madaniyat yutug‘idan foydalanish holatining amalga oshishi juda qiyin, chunki boshqa negizda yetishib chiqqan begona madaniy omil odatda qabul qilinmay, rad etiladi.

O. Shpengler va N. YA. Danilevskiy g‘oyalari noto‘g‘riligining isboti va dalili sifatida jahon dinlarining mavjudligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Tarixdan ma’lumki, din bir hududda vujudga kelib, bir necha hududlarga tarqalgan. Mana sizga yorqin misol! Bir madaniyat turi omili boshqa madaniyat turi tomonidan o‘zlashtirildi va yashab ketdi. Xuddi shu tarzda ko‘pgina tadqiqotlar, ilmiy kashfiyotlar, yozuv, badiiy asarlar, hattoki odob-axloq normalari boshqa xalqlar tomonidan o‘zlashtirilib, foydalanib kelinmoqda.

XX asrning 60-yillar oxirida sotsiologlar jamiyatda va madaniyatda yuz berayotgan jarayonlarni izohlash uchun fanda yangi «aksilmadaniyat» va «submadaniyat» tushunchalarini qo‘llay boshlashdi. Aksilmadaniyat deganda, jamiyatdagi mavjud hukmron madaniyatga qarshi qo‘yiladigan yangicha nazariya, qadriyatlar, qarashlar va yangicha ideallar tushuniladi. Ko‘pincha bunday holatga bir qism yoshlar va ziyorilar guruhining zamonaviy g‘arb sivilizatsiyasi bilan bog‘liq yangicha madaniyatni qabul qilmaganligini kiritish mumkin.

Xo‘sish, bunday yo‘l bilan g‘arb madaniyatidan bosh tortish, ya’ni aksilmadaniyat holatini keltirib chiqarish qanday yuz berdi? Bunday vaziyatda aksilmadaniyatga – sharqona diniy ta’limga berilish, atayin ongli ravishda g‘arb odob-axloq, xulq-atvor normalariga rioya qilmaslik, ularni rad etish holatlarini keltirib chiqarish kiradi. Bunda aksilmadaniyat – falsafiy, badiiy va ma’naviy jihatdan to‘yinib olib, so‘ngra g‘arbning egoizmga to‘la, ma’naviy saviyasi past madaniyatining qismiga qarshi e’tiroz bildiruvchi «advokat» sifatida vujudga keladi (shuni unutmaslik kerakki, aksilmadaniyatga «advokat» sifatida qarab, uni juda murakkablashtirib yuborish aksilmadaniyatning asl mohiyatini yo‘qotishga olib kelsa, uni tashkil qilgan e’tirozchi guruhlar esa, jamiyat tuzumiga qarshi bosh ko‘tarishgacha borib qolishlari mumkin. Aksilmadaniyat, odatda,

madaniyat niqobi ostida jamiyatdagi mavjud siyosatga qarshi yoki undan qoniqmaslik natijasida vujudga keladi).

Submadaniyat – turli ijtimoiy guruhlar madaniyatidir. Afsuski, ijtimoiy guruhni tashkil qiluvchi a'zolar (kishilar) o'zlarinikiga nisbatan murakkabroq, saviyasi balandroq madaniyat ko'rinishlarini qabul qila olishmaydi, uni tushunishmaydi. Submadaniyatga ijtimoiy qatlamlar – shaharliklar, qishloq aholisi, yoshlar, ishchilar, dehqonlar, o'rta qatlam, quyi qatlam va hatto yuqori qatlam kiradi. Gap shundaki, shu qatlamga kiruvchi kishilar faqatgina o'zlarining qatlamiga tegishli madaniyatni yoqtiradilar, qolgan qatlamlardagi madaniyat turi ularga begonadek, tushunarsiz ko'rinadi. Chunki submadaniyat har bir o'ziga tegishli guruhni boshqa guruh madaniyatlaridan «ihota qiladi». Masalan, eng rivojlangan va faol bo'lgani – yoshlar submadaniyati. Yoshlar submadaniyatining markazini musiqa tashkil qiladi (asosan pop va rok musiqalari). Bu submadaniyatning keyingi elementini esa kiyim, uslub va boshqalar tashkil qiladi.

Ommaviy madaniyat – barcha uchun tushunarli, barcha foydalana oladigan, butun ommani har tomonlama qoniqtira oladigan madaniyat turidir. Biroq XX asrga kelib, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohalari ommaviy madaniyatni boshqacha talqin qila boshladи. Bir qator olimlar tomonidan ommaviy madaniyat, birinchidan, rivojanishning muayyan bosqichiga yetgan jamiyat uchun xos xususiyat; ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari (gazeta, radio, kino, televdeniya va boshq.)ning rivojlanishi bilan bog'liq xususiyat; uchinchidan esa, salbiy holat sifatida izohlandi.

Nega endi salbiy holat? O'ylab qaralsa, barcha uchun tushunarli bo'lgan madaniyat ko'rinishi bo'lsa, barcha san'atkorlar, madaniyat namoyandalari aynan shunday «ommaviy» darajada xalqqa tushunarli bo'lishga intilishlari lozimdek bo'lib tuyulsa-da, lekin ommaviy madaniyatga salbiy munosabatda bo'lувchilar bu madaniyat turini – rivojlanmagan badiiy didga, jo'n va sodda ravishda diniy va axloqiy qadriyatlarni tushunishga asoslangan, haqiqiy ma'naviy madaniyatni buzib talqin qiladigan hamda yuksak mumtoz madaniyatni ommaga yaqinlashtirmaydigan, saviyasi past, «egoist» madaniyat deb izohlaydilar. Odatda, ommaviy axborot vositalari orqali ma'naviy saviyasi past bo'lgan, arzon, qiymati kam madaniyat ko'rinishini omma ongiga singdirib, so'ngra uni sotish yo'li bilan daromad topish maqsadida ommaviy madaniyatdan foydalilanadi.

Ommaviy madaniyat mahsulot yoki iqtisodiy madaniyat turi deb ham yuritiladi.

Amerika sotsiologi D. Bell o‘zining «Massovaya kultura i sovremennoye obshchestvo» nomli asarida bayon qilishicha, ommaviy madaniyatning qanday bo‘lishi kerakligi omma soni yoki xususiyati bilan belgilanmay, balki shu omma a’zolarining aqliy qobiliyati, dunyoqarashi, uning ongi nimani «hazm» (qabul) qila olishiga bog‘liq.

Ommaviy madaniyatda asosiysi – uning mahsulotlilik darajasida bo‘la olishi, ommabopligidir.

Ommaviy madaniyatning asosiy usuli – tomashabinlarning sodda ravishda beriluvchanlik his-tuyg‘ularidan foydalanish, ya’ni chuqur mulohazalantirmaydigan madaniyat ko‘rinishlari orqali ularning his-tuyg‘ularini «qarmoqqa ilintirish».

Ommaviy madaniyat turi ilk bor XX asrda AQSH industrial va postindustrial sivilizatsiya mahsuloti sifatida vujudga keldi.

Ommaviy madaniyatning asosiy shakllariga: western, fantastika, shahvatparastlik (erotika), pornografiya, vahima, dahshat, mistika, melodrama va detektivni kiritish mumkin.

Yuqorida XX asr o‘rtalarida ommaviy madaniyat kuchli tanqidga uchraganini, uni salbiy madaniyat turi deb baholashganini bayon qilgan edik. Tanqidchilardan asosan ingliz yozuvchisi O. Xaksli, nemis faylasufi T. Adorno, ispan madaniyatshunos olimi Xose Ortega-i-Gasset, nemis sotsiologi G. Markuze qarashlari diqqatga sazovordir.

Ommaviy madaniyatni o‘rganishdan avval shu madaniyat iste’molchilari bo‘lmish «omma»ning o‘zini o‘rganib chiqmoq lozim.

XIX asr fransuz psixolog J. Lebon o‘zining «Psixologiya tolpsy» nomli asarida bayon qilishicha, yirik ommalar jamiyat rivojini, ertangi kunini belgilaydilar. Chunki bugungi kunga kelib, madaniyat, siyosat yirik ommalar didiga, talabiga moslashib bormoqda, bu esa jamiyatning majruhlanishiga olib keladi.

Parlament tizimi, saylovlar, referendumlar ommani siyosiy kuchga aylantirib qo‘ydi. Bir tomondan, bu demokratiyaga erishish yo‘li bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yirik to‘dalar ulkan xavf ham tug‘diradilar. Masalan, qaysi yo‘l bilan bo‘lsa ham, o‘z maqsadiga erishmoqchi bo‘lganlar, mashhur bo‘lishni istaganlar, siyosat olamiga o‘ta kuchli ravishda kirmoqchi bo‘lgan siyosiy demagoglar va boshqalar ommani o‘zlarini istaganlaricha boshqarishlari mumkin. Omma esa beriluvchanlikka moyildir. Kishi ommaga kirganda, o‘z aslini yo‘qotib, shu ommaga moslashadi. Uning ongli ravishdagi MENligi – SHAXSligi yo‘qolib,

ongsiz ravishdagi to‘daning bir bo‘lagiga aylanib qoladi. U maxsus yo‘naltirilgan g‘oya va his-tuyg‘ularga, targ‘ibot va tashviqotga tez beriluvchan bo‘lib qoladi. Yakka o‘zi bo‘lganda bajarmaydigan noto‘g‘ri xatti-harakatlarni individ to‘da ichida amalga oshiradi. U o‘zi qilayotgan xatti-harakatiga hamisha ham to‘g‘ri baho bera olmay qoladi.

J. Lebon ta’biri bilan aytganda, «insonlar to‘da ichida o‘zlarini yakka holatlaridagiga nisbatan yomon tutish xususiyatiga egadirlar», «Psixologiya tolpy» asarida J. Lebon insoniyatning agressiv holatlari bo‘lmish – urushlar, inqiloblar, ommaviy terror haqida fikr yuritarkan, «kishi qaysidir muddatga madaniyat ta’siridan chiqar ekan, u bemalol agressiv harakatlarni amalga oshira oladi», deb ta’kidlaydi.

Diniy nizolar va urushlar motivi haqida so‘z ketganda, J. Lebon «qirollar Varfolomey kechasini yaratishmagan, diniy urushlarni ham ular chiqarishmagan, Fransiyadagi terrorizmni ham Robespier, Danton yoki Sen-Jyust keltirib chiqarmagan, yuz bergen mudhishliklarning barchasida «to‘da yuragi», istagi bor bo‘lgan», deb hisoblaydi.

Haqiqatan ham, qirollar, liderlar, yetakchilar yuz berishi kerak bo‘lgan jarayonni faqatgina tezlatishlari yoki sekinlatishlari mumkin, xolos. Individ to‘da ichida o‘zligini yo‘qotib, irodasiz, tafakkursiz bo‘lgan avtomatga aylanadi. Shu yo‘l bilan u o‘zi bilmagan ravishda sivilizatsiyadan bir necha pog‘ona pastga tushgan to‘daning bir qismi bo‘lib qoladi. Oddiy, yakka o‘zi bo‘lgan holatda bu individ madaniyatli inson bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Lekin to‘dada u – madaniyatsiz odam (varvar). Unda – bosh ko‘tarish, agressivlik, shuningdek g‘ayrat, kuch-qudrat, qahramonlikka moyillik tuyg‘ulari uyg‘onadi.

Ommaviy madaniyatga tanqidiy munosabatda bo‘lgan yana bir madaniyatshunos X. Ortega-i-Gassetdir. Olimning fikricha, XX asr jahonga umuman yangicha sharoitni olib keldi: endilikda kishilar ommasi qat’iyatlilik bilan siyosatga aralashadigan, tarixning yo‘nalishini, madaniyatning taraqqiyot yo‘lini boshqaradigan bo‘lishdi. Omma nafaqat kishilar soni bilan, balki sifat darajasi bilan ham belgilana boshlandi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, omma sifati qay darajada ekanligini aniqlab bo‘lmaydi. U tushunarsiz, noaniq bo‘lib, ko‘p holatda sifat darajasi past, quyi pog‘onaga yaqin bo‘ladi. Omma o‘zi uchun tushunarsiz bo‘lgan, ongi qabul qilmaydigan chuqur mazmundagi madaniyat turlarini yoqtirmaydi. Shuning uchun hamisha, elitar madaniyat bilan ommaviy madaniyat o‘rtasida nizo kelib chiqish xavfi mavjud.

G. Markuze ham ommaviy madaniyatni tanqid qilarkan, jamiyat ommaviy axborot vositalari orqali individga bitta shaklli mahsulotni ustalik bilan zo'rlab «tiqishtiradi», deb hisoblaydi.

Amerika sotsiologi E. Shillz ham ommaviy madaniyatni himoya qiladi. Bugungi kunda g'arb madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlarida ommaviy madaniyat oddiy ommaviy kishining talablarini qoniqtiruvchi normal holat, degan tushuncha paydo bo'ldi. Hozirgi paytda bu madaniyat turini yo'q qilib bo'lmaydi va bunga ehtiyoj ham yo'q. Aksincha, yuqori madaniyat namoyandalari o'z aralashuvlari orqali ommaviy madaniyatning sifat darajasini ko'tarishga, yaxshilashga urinmoqdalar. Ular oliy madaniyat ommaviy madaniyatga singish jarayonida uni yuqori darajaga olib chiqadi, deb hisoblashadi.

Oliy – elitar madaniyat. Elita atamasi (fransuzcha – «eng sara» so'zidan olingan) – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv jihatlarini muvofiqlashtirish hamda rivojlantirish funksiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlamdir. Elita haqidagi nazariyalar dastavval Platon, Aristotel, Nitsshe va boshqa olimlarning qarashlarida bayon qilingan.

Hozirgi g'arb sotsiologiyasida elita turli xil talqin etiladi. Bunda elita hokimiyatga intilgan, siyosiy jihatdan eng faol odamlar (Moska), jamiyatda eng ko'p obro', maqom, boylikka ega bo'lgan, ommaga nisbatan aqliy va axloqiy ustunlikka ega odamlar (X. Ortega-i-Gasset), jamiyatning noijodiy ko'pchiligidan farq qiluvchi qismi (Toynbi), eng malakali mutaxassislar, menejerlar va boshqaruv tizimidagi oliy xizmatchilardir, deb izohlanadi.

Elitar madaniyat deganda, odatda, an'anaviy ijtimoiy-gumanitar va ilmiy-texnik (intellektual) madaniyat tushuniladi. Elitar madaniyat – kam sonli kishilar madaniyatidir. Bu madaniyat turi oliy ta'lim-tarbiya ko'rgan, maxsus tayyorlangan, ijtimoiy va intellektual kelib chiqishi eng sara, yuqori bo'lgan kishilarga tegishlidir. Boshqacha aytganda, elitar madaniyat kiborlar – jamiyatning imtiyozli tabaqalariga mo'ljallangandir. «San'at SAN'AT uchun» qoidasi madaniyatda nafis san'at, mumtoz musiqa, faqat kiborlargina mutolaa qiladigan badiiy adabiyot namunalari nazarda tutadi. Bunday madaniyat namunalari murakkab bo'lib, ular maxsus intellektual – estetik maqomga ega bo'lgan, yuksak did vakillari uchun yaratiladi.

Ziyolilarning elitar madaniyatga bo'lgan munosabatlari turli xildir. Elitar madaniyatda tarbiya topgan mutafakkirlarning bir qismi bu madaniyat turini davrning eng sof madaniyati deb hisoblashsa, boshqa

olimlar guruhi bu madaniyat turini umumiy madaniyatning bir yo‘nalishi xolos, deb hisoblaydilar.

Kiborlar – elitar madaniyati boshqa madaniyat turlaridan o‘zining chuqur mazmunliligi, muammolar mohiyatini ochib bera olishi, nozik-nafisligi, mulohaza qildiruvchanligi, butunligi, his-tuyg‘ularga boyligi bilan farqlanadi. Kiborlar madaniyatiga eng sara adabiyotlar, turli san’at asarlari, falsafa, tabiiy, texnik va ijtimoiy sohadagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar kiradi. Bu madaniyat turi o‘z ijodkorining jamiyatdagi obro‘si yoki ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, yaratilgan asarning saviyasiga, yetukligiga qarab belgilanadi.

Bu madaniyat turida asarlar badiiy jihatdan yuqori ma’naiyatli, insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan va umumxalq tomonidan tan olingan bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy texnika va texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari jamiki madaniyat turlari, madaniy qadriyatlarning jamiyat a’zolari o‘rtasida keng yoyilishi va mustahkamlanishiga imkon beradi. Elitar madaniyat bilan jamiyat a’zolari, ijtimoiy qatlamlarning barchasi o‘qish jarayonida, ya’ni o‘smirlik davrida tanishtirilsa, kishilarning qalbida qadriyatlarning barcha turlari shakllanib, umrbod muhrlanib qoladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, qaysi davrda, qaysi jamiyatda bo‘lishdan qat’i nazar, kishilarning o‘zları istagan madaniyat turini tanlash imkoniyatlari erkin bo‘lmog‘i lozim.

3. Madaniy va ma’naviy merosni saqlash va himoya qilishda ichki ishlar organlari xodimlarining o‘rni

Ichki ishlar organlari xodimlari xalqning tinch-osuda hayot kechirishi, halol va fidokorona mehnat qilishi uchun mas’ul bo‘lgan davlat xizmatchilari hisoblanishadi. Ulardagi ushbu mas’uliyat hissi, eng avvalo, o‘zları xizmat qilayotgan yurtning o‘tmishini, avlodlardan meros bo‘lib qolgan va kelajak avlodlarga ham saqlanib qolishi kerak bo‘lgan madaniy va ma’naviy boyliklarni asrab-avaylash va uni himoya qilishdan boshlanadi.

Dunyodagi har bir tirik inson moddiy va ma’naviy olam ehsonlaridan tashkil topgan bo‘lib, moddiy olam unga tana, jismoniy oziq, kuch-kamolot bergen bo‘lsa, ma’naviy olam uning tanasiga ruhiy quvvat, aqliy zakovat ato etadi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta’biri bilan aytganda,

«hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi. Shu bois avvalambor ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko‘rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o‘ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo‘lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi.

Shu munosabat bilan alohida ta’kidlab aytmoqchimanki, mustaqil taraqqiyotimizning o‘tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilarkanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma’lum o‘zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo‘lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarishimiz darkor»¹.

Insondagi ana shu ikki vujud, ya’ni moddiy va ma’naviy vujud bir-biri bilan ko‘shilib, uni hayvonot dunyosidan farqlantradi va olamning oliy zotiga aylantiradi.

Moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylash deganda, ichki ishlar organlari xodimlarining o‘zlarini o‘zbek xalqining bir vakili deb bilgan holda, ona-Vatanning tuprog‘i, suvi, havosi va jamiki boyliklarini ko‘z qorachig‘iday asrashlari hamda har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini qonuniy tarzda chin vijdon, imon, e’tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg‘arazlik, hurmat, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan himoya qilishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmui tushuniladi.

Moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylash sohasida har bir davlat, mamlakat va jamiyat muayyan qonun-qoidalar ishlab chiqadi. Shunday qonunlarning eng asosiysi har bir dalatning Konstitusiyasi hisoblanadi.

Dunyoda mavjud konstitutsiyalarning barchasi ularni ijod etgan xalqning, millatning siyosiy-madaniy tafakkuri, ma’naviyati va madaniyati bilan bog‘liqdir. Har bir konstitutsiya o‘z mazmunida jamiyatning, millatning ma’naviy-madaniy qadriyatlarini, uning tarixan shakllangan an’analari, urf-odatlari va xususiyatlarini ask ettiradi. Aynan shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz

¹ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. — Т., 2010. — 6-б.

tabiatiga xos barcha ma’naviy-madaniy qadriyatlarni, axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan.

Konstitutsiya mazmunida mujassamlashgan o‘zbek milliy madaniyati va ma’naviy merosi uzoq asrlarga borib taqaladi.

Uning tarkibiga qo‘yidagilar kiradi:

- *milliy davlatchilik tajribasi, siyosiy va huquqiy madaniy meros;*
- *ma’naviy-madaniy, ilmiy falsafiy va adabiy meros;*
- *umuminsoniy madaniy qadriyatlarni singdirish asosida qaror topgan, shuningdek islomiy qadriyatlar ta’sirida shakllangan meros.*

Milliy-ma’naviy merosimizning ulug‘vorligiga shak-shubha yo‘q. Unga qat’iy tayangan holda ish ko‘rib bugungi ma’naviyatimizni kamol toptirish va chinakamadolatli ijtimoiy tuzim hamda erkin fuqarolik jamiyatini yaratish mumkin.

Ichki ishlari organlari xodimlari ham jamiyatdagi barcha fuqarolar singari asrlar maboynida saqlanib, sayqallanib kelgan miliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, udum-an’analarga sodiq qolgan holda, o‘z e’tiqodlarini shakllantirishlari lozim. Ularda o‘zbek xalqining milliy xususiyatlari, yurish-turishi, g‘ururi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, dini, huquqiy ongi va umuman ma’naviy-madaniy dunyosi aks etadi.

O‘zbek xalqining madaniyatida millatning o‘tmishi, hozirgi kuni ifodlanishi bilan birga, bu madaniyat oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O‘zbek milliy mafkurasining uzviy tarkibiy qismini boy madaniy merosimiz tashkil etadi, hududimizdagi 9 mingdan ziyod tarixiy, madaniy, me’morchilik yodgorliklari o‘zbek xalqining beqiyos madaniy merosining tirik guvohlaridir. Ularni ta’mirlash, tiklash, saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning ma’naviy-insoniy burchimizdir. Shuning uchun Konstitutsiyamizning 49-moddasida «**Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar**» deyilgan.

O‘zbek xalqining boy madaniy merosini asrab-avaylash, uning kelajak avlodlarga saqlanib qolishini ta’minalash barcha fuqarolar singari, ichki ishlari organlari xodimlarining ham burchidir.

Ichki ishlari organlari xodimlari xalqimizning madaniy-ma’naviy merosini asrab-avaylash va saqlashga mas’ul hamdirlar. Chunki ular jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbazarliklarning oldini olish bilan birga, tarixiy-madaniy boyliklarimizni saqlash, ularni

muhofaza qilish yuzasidan nazorat va profilaktika ishlarini ham olib borishadi.

Bu kabi ishlarni olib borishda o‘rnatilgan tartib-qoidalarga bo‘ysunmagan fuqarolarga nisbatan ichki ishlar organlari xodimlari o‘rnatilgan tartibda chora-tadbirlar qo‘llaydi. Jumladan, **O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida alohida moddalar ko‘rsatilgan bo‘lib, jumladan, 64-modda** «Tarixiy yoki madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish» deb nomlanadi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha madaniy-ma’naviy boyliklar, tarixiy obidalarlar, muzeylar va yodgorlik joylarining muhofaza qilinishi va ulardan foydalanish tartib-qoidalalarini buzgan fuqaro va mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralarining qo‘lanilishi bayon etilgan.

Ushbu Kodeksning 82-moddasi esa, «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tartibini buzish» deb nomlanib, unda Davlat milliy tabiat bog‘lari, buyurtma qo‘riqxonalari, tabiat yodgorliklari, suvni muhofaza qilish tegralari, kurort-tibiiy hududlari, botanika bog‘lari, dendrologiya va hayvonot bog‘lari hamda alohida muhofaza etiladigan hududlar tartibini buzgan fuqaro va mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralarini haqida fikr bildirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga ham madaniy va ma’naviy merosni saqlash va asrab-avaylash haqidagi alohida moddalar kritilgan. Jumladan, ushbu Kodeksning 132-moddasi «Tarixiy va madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish» deb nomlanib, unda Davlat muhofazasiga olingan tarixiy yoki madaniyat yodgorliklarini qasddan nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etilgan bo‘lsa, – eng kam ish haqining ellik baravarigacha yoki 3 yil axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oy qamoq bilan jazolanishi ko‘rsatilgan.

Shuningdek, JKning 172, 173-moddalari («Mulknini qo‘riqlashga vijdonsiz munosabatda bo‘lish», «Mulknini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkashish»)da ham moddiy va ma’naviy merosni saqlash va asrab-avaylash to‘g‘risida alohida jinoiy javobgarlik masalalari o‘rnatilgandir.

Xulosa

Antik davrdan boshlab, jamoatchilik madaniyatni nafaqat bilim va ko'nikma, balki insoniyat amaliy harakatining natijasi sifatida qabul qila boshlagan. Masalan, er. av. 45-yilda yashagan faylasuf Sitseron «ong, tafakkur madaniyati» haqida to'xtaladi. Rimlik notiqning fikricha, ongga, tafakkurga xuddi yerga bo'lgani kabi, ishlov berish lozim. Tafakkuriga ana shunday ishlov bera olgan, ma'naviy qobiliyatlarini rivojlantira olgan insongina madaniyatning asosiy mohiyati bo'lib hioblanadi¹.

Demokrit fikricha ham, madaniyat negizini aynan inson yaratgan. Inson tabiatga taqlid qilish va uni o'ziga bo'ysundirish jarayonida madaniy qadriyatlarni yaratib boradi. Grek falsafasining eng asosiy kulminatsion nuqtasi – insonga qolip sifatida qarashdir. Ya'ni, ular hamma narsani inson qiyofasida ko'rishadi, o'z dunyoqarashlarida hamma narsani inson shakl-shamoyili va xususiyatiga o'xshatishadi. Ularning falsafasida ҳаттоқи xudolar ham xatti-harakatlari va tashqi ko'rinishlari bilan inson sifatida, uning qiyofasida tasvirlanganlar.

O'rta asrlarga kelib madaniyat hodisasini idrok etishda muayyan o'zgarishlar yuz berdi. Endi xudo qadr-qimmat negizi sifatida qabul qilinib, shu asosda madaniyat prinsiplari ishlab chiqildi. Xristianlik falsafasining asoschisi Avreliy Avgustin fikriga ko'ra, «xudo yo'lida yashash – inson uchun yagona qadrli yo'ldir. Eng go'zal, yaxshi, toza va yorug' hislatlar hayotda emas, balki yagona Xudoda mavjuddir. Xudo san'atkori kabi borliqni yaratdi. Inson ham san'atkori, u madaniyatni yaratdi...».

O'rta asrlar madaniyatining oxirgi xudojo'y faylasufi Foma Akvinskiy realizmning mo'tadil namoyandasini sifatida maydonga chiqdi va Xudoning birlamchiligi, ruhning o'lmasligi kabi g'oyalarni targ'ib qiluvchi falsafaga asos soldi.

Uyg'onish davriga kelib vaziyat bir muncha o'zgardi. Odam (individ) mustaqillikni qo'lga kirta boshladidi. Natijada, uning yangicha dunyoqarashi va nuqtai nazari shakllandidi. Inson endi nafaqat xudo tomonidan yaratilgan mavjudot, balki u o'zini o'zi yaratib, shu jihatida bilan tabiatdan farqlanuvchi ijodkor sifatida namoyon bo'la boshladidi.

Ichki ishlar organlari xodimlari xalqning tinch-osuda hayot kechirishi, halol va fidokorona mehnat qilishi yo'lida xizmat qilarkan, jahon madaniyati durdonalarini o'zlarining ong va faoliyatlariga singdirgan holda, yuksak ma'naviy saviyaga ega bo'lishlari darkor. Ichki ishlar organlari xodimlaridagi ushbu mas'uliyat hissi, eng avvalo, o'zlarini xizmat qilayotgan yurting

¹ Цицерон М. Т. Избранные сочинения. – М., 1998. – С. 252.

o‘tmishini, avlodlardan meros bo‘lib qolgan va kelajak avlodlarga ham saqlanib qolishi kerak bo‘lgan madaniy va ma’naviy boyliklarni asrab-avaylash va uni himoya qilishdan boshlanishini aslo esdan chiqarmasligimiz lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Madaniyatning asosiy turlarini ko‘rsating.*
2. *Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda, faqat qaysi madaniyat nazarda tutildi?*
3. *Industrial jamiyatining vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarining tezda almashishi madaniyatshunoslarni asosan insoniyat yaratgan qaysi bir madaniyat turini o‘rganishga majbur qildi?*
4. *Moddiy madaniyatning nechta sohasi mavjud?*
5. *Mehnat qurollari ishlab chiqarishning barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari, texnika qurilmalari moddiy madaniyatning qaysi sohasiga tegishli?*
6. *Moddiy madaniyatning qaysi bir sohasi ijtimoiy hayot va унинг барча tarmoqlarining me’yoriy harakatini ta’minlovchi ko‘plab ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog‘liq?*
7. *Moddiy madaniyatining qaysi bir sohasi (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insonning o‘zi bo‘lib hisoblanadi?*
8. *Madaniyatning mavjud narsalarning jismoniy talablarini, shuningdek ijoddagi hayotiy talablarni qondirish zarurati bilan bog‘liq funksiyasini ko‘rsating.*
9. *Madaniyatning jamiyat va atrof muhit o‘rtasidagi muvofiqlikni saqlash bilan bog‘liq funksiyasini ko‘rsating.*
10. *Madaniyatning xabarlarni yig‘ish va saqlash vositasi bilan bog‘liq funksiyasini ko‘rsating.*
11. *Madaniyatning kishilar xulqini tartibga solish, ularning kuchini bir me’yorda va jamiyatni bir butunlikda saqlash maqsadida muvofiqlashtirish bilan bog‘liq funksiyasini ko‘rsating.*
12. *Madaniyatning bayramlar, diniy marosimlar, o‘yin, tomosha jarayonlarida ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf qilish bilan bog‘liq funksiyasini ko‘rsating.*
13. *Madaniyatning quyidagi funksiyalaridan qaysi biri bevosita shaxs bilan bog‘liq?*
14. *Madaniyatning quyidagi funksiyalaridan qaysi biri urug‘doshlik xususiyatlarini o‘rganadi?*

3-MAVZU. MUSTAQILLIK SHAROITIDA O‘ZBEK MILLIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

∞Mustaqillik sharoitida o‘zbek milliy madaniyatining rivojlanishi

∞Mustaqillik sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar – jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi sifatida

∞Istiqlol yillarida o‘zbek madaniy hayotidagi o‘zgarishlar

1. Mustaqillik sharoitida o‘zbek milliy madaniyatining rivojlanishi

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu zamon va makondagi darajasi ko‘p jihatdan fuqarolar ma’naviyati, turmush tarzi, ma’naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog‘liqdir. Mustaqillik davrigacha va undan keyingi o‘tgan tarixan qisqa muddat ichida ro‘y bergen holatlar, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy-mafkuraviy sohasidagi o‘zgarishlar sho‘rolar mustabid tuzumi hamda istiqlol yillarida O‘zbekistonning real hayotida xolisona javob izlashga va unga erishishga imkon beradi.

Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o‘zbek milliy davlatchilik tarixi, eng avvalo, ma’naviyat-ma’rifatning jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu azaliy an’anaga mustaqillik yillarida ham alohida e’tibor berilishi juda ahamiyatli bo‘ldi. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki davrlaridanoq madaniyatning metodologiyasi o‘zgardi. Agarda, sho‘rolar mustabid tuzimi davrida madaniyatning asosiy vazifasi jamiyat a’zolarining kommunistik mafkura va soxta g‘oyaga e’tiqodini mustahkamlashga safarbar etish bo‘lsa, istiqlol davrida uning maqsadi tamomila o‘zgardi.

Xo‘sh, bular nimalarda ko‘rindi?

Birinchidan, eng avvalo, mamlakat hukumati, Prezident I. A. Karimovning ma’naviy-ma’rifiy omillarga nisbatan munosabati shakllandi. Jumladan, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi, deb hisoblandi. Joylarda ma’naviyat bilan bog‘liq ishlarning amalga oshirilishi uchun butun mas’uliyatning

hokimlar, vazirliklar, organlar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmalariga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, ma'naviyati yuksak millat va davlatninggina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshlandi. Darhaqiqat, iqtisodiy-siyosiy omillarning har qanday davlat, millat hayotidagi o'rni va roli kattadir. Biroq ma'naviy omillargina jamiyatda sodir bo'lgan barcha muammolarni hal etishga qodir omil ekanligi endi haqiqatdir.

Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatni poklantiruvchi kuch ekanligi e'tirof etilmoqda, zero, sho'rolar mustabid tuzumi davridan qolgan yaramas «ma'naviy» merosdan poklanmasdan turib, istiqlolga xizmat qiladigan, fuqarolar qalbi va ongini yangilashga qodir ma'naviyatni shakllantirish mumkin emas.

To'rtinchidan, istiqlol davri O'zbekiston jamiyatni ma'naviyatining eng muqaddas maqsadlaridan biri – o'tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlariga sho'ro davrida tarkib topgan munosabat kabi «illat» sifatida emas, aksincha, jamiyatni poklantiruvchi va keljakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil asnosida qarashdan iborat jamoatchilik fikri shakllandı.

Beshinchidan, istiqlol davrida ma'naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralardan xoliligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning ma'naviyat bilan uyg'unligi ta'minlandi.

Prezident Islom Karimov qayd etganidek, mustaqillik davrida bajarilishi lozim bo'lgan eng ustuvor vazifa «xalqimiz orasida katta ma'rifiy-amaliy ishlarni olib borib, milliy mafkuramizga kuch-quvvat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari safarbar etadigan, keng ommaga ta'sir o'tkazishga, xalqni o'ziga tarafdar etishga xizmat qiladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manbalarni to'g'ri belgilab olishdir¹».

Haqiqatan ham, mustaqillik yillarida ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy maqsadi aniqlab olindi, uning bajarishi lozim bo'lgan vazifalari belgilandi. Ana shunday sharoitda jamiyat fuqarolari tomonidan bildirilgan ijtimoiy ehtiyoj – ma'naviy-ma'rifiy sohalarda yangi asr va umuman, uchinchi ming yillikdagi bosh g'oya qanday bo'lishi aniqlandi.

Xo'sh, hozirgi va yangi asrda ma'naviyat sohasidagi bosh g'oyamiz nimalardan iborat? Mazkur savolga javob bera turib, I. A. Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Modomiki biz huquqiy

¹ Каримов И. А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. – Т., 1999. – 16-б.

demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatni qurayotgan ekanmiz, ma’naviyat sohasidagi yigirma bиринчи asrga mo’ljallangan harakat dasturimiz ham ana shundan kelib chiqmog‘i darkor. Ya’ni erkin fuqarongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxs ma’naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g‘oyamiz bo‘lishi zarur.

Darhaqiqat, mustaqil O‘zbekistonda ma’naviyat sohasida mavjud bo‘lgan vazifalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik sharoitida muttasil ravishda bajarilib kelinmoqda. Chunonchi, agar istiqlolning dastlabki yillarida jamiyat ma’naviy hayotida turgan eng bosh vazifa fuqarolarda sho‘rolar davriga xos tafakkurni eskicha fikrlash sarqitlarini bartaraf etish edi. Mazkur masalada qator yutuqlarga erishildi. Biroq bu borada hali talay ishlarni bajarish lozim»¹.

Ikkinchi, eng muhim vazifalardan yana biri erkin fuqarolik jamiyatining ma’naviyatini shakllantirishdir. Zero, «ozod, o‘z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko‘rinishlarini o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir»².

Istiqlol yillarida O‘zbekiston madaniyati xususida fikrlash asnosida alohida qayd etilishi lozim bo‘lgan masalalardan yana biri ma’naviyat sohasidagi davlat siyosatining tobora aniqlashtirib borilishi, vazifalarni hal etish yo‘llarining oydinlashuvidan.

Ma’naviyat jamiyat a’zolarini ruhan poklantiruvchi, qalban ulg‘aytiruvchi, inson ichki dunyosiga, irodasiga kuch-quvvat beruvchi, milliy vijdonini uyg‘otuvchi va doimiy harakatdagi aniq kuchdir. Shunday ekan, ma’naviyatga umumiy tarzda munosabatda bo‘lish xatodir. Zero, har bir fuqaroning ma’naviy-mafkuraviy, komillik darajasi bir xil bo‘lmagani kabi, ularning bunday sifatlarini uyg‘unlashtirib turuvchi ko‘rinishlari ham aniqdir.

Yuqorida bildirilgan fikrdan tabiiy ravishda kelib chiqayotgan xulosa shundan iboratki, istiqlolning hozirgi bosqichida ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarning tashkil etilishi, bunday ishlarning samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xo‘sh, ma’naviyat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish deganda, nimani tushunish mumkin? Umuman, madaniy-

¹ Ўша жойда. – 18-б.

² Ўша жойда. – 19-б.

mafkuraviy sohadagi ishlarimiz jamiyatni ma’naviy yuksaltirishga qodirmi?

Shu o‘rinda qurilayotgan demokratik, huquqiy insonparvar jamiyat yuksak ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanishini bu jarayon esa milliy g‘oya va milliy mafkuraga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanishini alohida qayd etish juda muhimdir.

Agar, istiqlolning dastlabki yillarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirdardan ko‘zlangan maqsad sho‘ro mustabid tuzumi asoratlaridan qutulish, jamiyatda ma’naviy yakdillik yaratishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, endi esa, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash ustuvor tavsifga ega bo‘lmoqda. Ma’naviyatning mamlakatda demokratik, huquqiy, qudratli davlat qurish yo‘lidagi muhim omil ekanligi endi hech kimga sir emas.

O‘zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida ma’naviy omillar hamda millatlararo munosabatlar masalasiga qarash ham tubdan o‘zgardi. Chunonchi, istiqlolning dastlabki davrlarida «soxta baynalmilallik» oldida yurak oldirib qo‘ygan hamda hadiksirash kasalidan xoli bo‘lmagan holda, har qanday milliylikni ulug‘lash va har qanday «baynalmilallik»dan qochish hissiyoti yuzaga kelgan edi. Bunday jiddiy va qat’iy qutblilik, tabiiyki, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga, ayniqsa, millatlararo munosabatlar masalasiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston hukumati madaniyatdagi milliylik va baynalmilallik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida munosabatda bo‘la boshladi.

Ayni paytda 130 ga yaqin millat va elat yashayotgan O‘zbekistonda har bir millat ravnaqi, uning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va yashash kafolotlariga har qanday tahdidlarning oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining xudbinlik kayfiyatlarini muqarrar tarzda boshqa millat, xalq imkoniyatlarini zo‘ravonlik va zug‘um bilan chegaralab qo‘yadigan davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshirdi.

O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ko‘p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o‘zliklarini anglash jarayonlariga bo‘lgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘ldi. Shu o‘rinda 1989 yili Madaniyat vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta’kidlash lozimdir. Agarda 90-yillarning boshlarida O‘zbekistonda 12 ta milliy-madaniy

markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa¹, hozirgi kunga kelib ularning soni 80 dan ortdi. Mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyati ustidan muvofiqlashtiruvchi ishlarning ko'lami ham ortdi va 1992 yil yanvar oyida hukumat qarori bilan Respublika Baynalmilal Madaniy markazi tashkil etildi.

Ushbu markazning bosh vazifasi qilib esa, milliy madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy an'ana, urf-odatlarni qaytadan tiklash, MDH va xorij davlatlaridagi baynalmilal madaniy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, O'zbekistonda millatlararo aloqalarni yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash kabi muhim masalalar kiritildi.

Istiqlol yillarida ma'naviyat-ma'rifat masalasiga jiddiy e'tibor hukumat tomonidan bu borada mukammal tarzda ishlab chiqilgan dastur asosida ish olib borishni talab etdi. Shu asnoda 1994 yil 23 aprelda mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voqeа yuz berdi: *Prezident Islom Karimov farmoni bilan Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi.*

Ma'lumki, sobiq ittifoq tugatilishi bilan birga, uning kommunistik mafkurasi ham barham topdi. Bu munofiq, yakkahokim mafkuraning achchiq saboqlaridan xulosa chiqarib, mamlakatimizning Asosiy Qonunida «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi», deb yozib qo'yildi. Shu asnoda, jamiyatimizda hech qachon mafkura yakka hokimligi ro'y bermasligi uchun zarur bo'lgan huquqiy poydevor yaratilgan. Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi ayni shu maqsadni ko'zda tutib tashkil etildi².

Qayd etish lozimki, ma'naviyat-ma'rifat markazi qisqa davr ichida xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat va millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish bo'yicha yirik ishlarni bajardi. Shu bilan birga, ma'naviyat va ma'rifat masalalarini bevosita jamoatchilik yo'li bilan rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi o'z samarasini bermoqda.

Ushbu yo'nalishdagi faoliyatni yanada rivojlantirish maqsadida, 1998-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada tako-

¹ Ўзбекистон миллатлараро ҳамжихатлик йўлида. – Т., 1996. – 111-б.

² Жўраев Н. Агар огоҳ сен ... – Т., 1998. – 148-б.

millashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi farmoni jamiyatni ma’naviy barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan mazkur masalada jiddiy ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, ayrim hollarda, ma’naviyatning mohiyatini, uning siljishi, farovon jamiyatga tezroq yetishimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik holllari mavjudligi, bu ishga daxldor rahbarlarda mas’ullik hislari past ekanligiga e’tibor qaratildi.

Farmonga asosan, 1997 yildan boshlab 1 oktabr «O‘qituvchilar va murabbiylar» kuni deb e’lon qilindi, «Ma’naviyat» nashriyoti tashkil etildi, «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi qoshida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi ta’sis etildi.

Bu boradagi ishlarni tartibga keltirish, faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1999 yil 3 sentabrda «Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi. Ushbu farmon ma’naviyat va ma’rifat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani yanada mustahkamladi va yanada unga kuch berdi.

2. Mustaqillik sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi sifatida

Insoniyat tarixida o‘z ijtimoiy ahamiyati jihatdan alohida e’tiborga loyiq holatlar, qadriyatlar mavjudki, bular u yoki bu millat, elat, xalqning mavjudlik belgisi, taraqqiyot mezoni sifatida baholanishi mumkin. Millat mavjudligining ana shunday muhim belgilardan biri ta’lim tizimi hamda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasidir.

Darhaqiqat, ta’lim tizimi demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashgan, insonparvar jamiyat barpo etish kabi zarur ijtimoiy ehtiyoj talablariga javob bergandagina u o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsad – barkamol avlodni tarbiyalash va shakllantirish vazifasini ado etishi mumkin.

Kommunistik «nazariya» tomonidan ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad – jamiyat a’zolarini mafkuraviy qullikka, itoatkorlikka majbur qilishdan boshqa narsa emas edi. Mafkuraviy biqiqlik, erkin fikr yuritishdan iborat (shaxs daxlsizligi, demokratik tamoyillarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlar kishilarda ijtimoiy passivlik holatini yuzaga keltirdi).

Bularning bari O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki davridanoq barcha sohalarda bo‘lgani kabi, ta’lim tizimida ham chuqr o‘zgarishlarni amalga oshirishga, tub islohotlarni o‘tkazishga undadi. Istiqlol mamlakat fuqarolarida erkin fikrlashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni uyg‘otdi.

Mafkuraviy qullikdan xoli ravishda, mamlakat va xalq manfaatlariga mos tarzda faoliyat ko‘rsatishga intilish hissiyotini bemalol, emin-erkin ro‘yobga chiqarish O‘zbekiston fuqarolari dunyoqarashida yangilikka tashnalik kayfiyatini paydo qildi. Bu masala, ayniqsa, yangi tayyorlanishi, shakllanishi lozim bo‘lgan mutaxassis kadrlarga nisbatan munosabatni o‘zgartirib yubordi. Istiqlolning dastlabki davrlaridan oq mamlakat hukumati mavjud ta’lim tizimida tub islohotlarni o‘tkazishga alohida ahamiyat berishga kirishishi lozimligini anglab yetdi. Mamlakat Prezidenti ta’kidlaganidek, «oldimizga qo‘yan eng ezgu maqsadlarimiz bilan uzviy bog‘langan bugungi kundagi yana bir g‘oyatda dolzarb masala – kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, bu borada boshlangan ishlarimizni davom ettirish va kuchaytirish bundan buyon ham biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoldi»¹.

Muammoli savol: xo‘sh, yuqorida qayd etilgan holatlardan tashqari, yana qanday sabablar ta’lim tizimida tub islohotlarni o‘tkazishga undadi? Bular, kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida puxta o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi kabilardir.

Bularning bari ta’lim tizimini zudlik bilan isloh etishni, mazkur sohani chuqr insonparvarlashtirishni talab etardi. To‘g‘ri, 1992 yil iyulida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va davlatimizning shu asosdagi ta’lim-tarbiya siyosati ishlab chiqilgan edi.

Unda umumiylar ta’lim quyidagi bosqichlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- I bosqich – boshlang‘ich ta’lim (1–4 sinf);
- II bosqich – asosiy (tayanch) maktab (4–9 sinf);
- III bosqich – yuqori o‘rta maktab (10–11 sinf);

¹ Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пиравард мақсадимиз. – Т., 2000. – 27-б.

10–11 sinflar ixtisoslashgan bo‘lib, o‘quvchilarni oliy o‘quv yurtlariga tayyorlashga xizmat qila boshladi.

Ta’kidlash lozimki, hamdo‘stlik mamlakatlari orasida birinchi bo‘lib respublikamizda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinganligi, «Maktabgacha tarbiya», «Umumiy o‘rta ta’lim», «Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar», «Yoshlar siyosatiga oid» kabi qator konsepsiyalari va dasturlar yaratilganligini, davlat ta’lim tizimi jahon amaliyoti talablariga muvofiq kelishi uchun xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarning o‘rganilayotganligi va shu asnoda 20 dan ortiq yo‘nalishlar, fanlar bo‘yicha standartlar loyihali tayyorlandi¹.

1993–1994 o‘quv yilida barcha viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablari o‘quvchilari bilimlarini tekshirish yuzasidan o‘tkazilgan test sinovlari quyidagi natijalarni ko‘rsatdi. Ushbu sinovga 70 ta tuman va shaharlarning 400 dan ortiq maktablarining o‘quvchilari jalg etildi. 9-sinflarda kimyo va adabiyot fanlaridan test sinovi o‘tkazildi. Yakunlar quyidagi me’yorda baholandi: 90 foizdan ortiq to‘g‘ri bajarganlarga «5» baho, 80 foizdan kamiga «4» baho, 60 foizidan ortig‘iga esa «3» baho.

Mazkur sinovlar natijalari o‘quvchilarning gumanitar yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha chuqur bilim olayotganliklarini ko‘rsatdi. Masalan, adabiyot fani bo‘yicha tayanch maktablarining 10186 o‘quvchisidan 1275 tasi 90 % dan ortiq vazifalarni, 2552 o‘quvchi 80%dan ortiq vazifalarni bajardilar, ya’ni o‘quvchilarning to‘rtadan uch qismi fanni «yaxshi» va «a’lo» baholarga o‘zlashtirganliklarini namoyish etdilar².

Istiqlol yillarida umumta’lim maktablarida ona tilini o‘qitishga muhim e’tiborning qaratilishi va «Davlat tili haqida»gi qonunni bajarish yuzasidan olib borilgan ishlar ta’lim-tarbiya jarayoni sifatining yanada oshishiga sabab bo‘ldi. O‘qish o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarda ona tili soatlar adabiyotiga ajratilgan coatlar hajmi ko‘payib, 2720 soatga yetdi. O‘qish rus tillarida olib boriladigan maktablarda esa, o‘zbek tili faniga ajratilgan soatlar 544 soat o‘rniga 1020 soatga yetdi. Bular o‘quvchilarda milliy o‘zligini anglash hissini kuchaytirdi, o‘z o‘lkasiga, tarixiga qiziqishni va o‘z Vatanining gullab-yashnashi yo‘lida faoliyat ko‘rsatish hissini uyg‘otdi.

¹ Эргашев К. Ўзбекистон халқ таълимининг ривожланиш тарихи. – Т., 1998. – 59-б.

² Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим вазирлигининг жорий хужжатлари. – 2-9-13-иш. – 2–3 вараклар.

Umuman, 1992 yilda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishda ma’lum rol o‘ynadi. Mazkur hujjat sho‘rolar mustabid tuzum davridan «meros» bo‘lib qolgan, kommunistik mafkuraga xizmat qiluvchi mafkuraviy kuchni bartaraf etishda alohida ahamiyat kasb etdi, jahon andozalariga mos tizim yaratilishida dastlabki qadam bo‘ldi.

Biroq qayd etish joizki, mazkur hujjat O‘zbekistonning yangi sharoitdagi vazifalariga to‘liq javob bera olmas edi. Shuning uchun ham O‘zbekiston hukumati ta’lim tizimini to‘liq isloh etishga qodir hujjatlarni qabul qilishga e’tiborni kuchaytirdi va bu borada bosh islohotchilik rolini o‘ynadi. 1997 yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida tamomila yangi, sifat jihatdan mukammal «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqdi.

Prezident I. A. Karimov yuqorida qayd etilgan hujjatlarni qabul qilishga undayotgan omillarni e’tiborga olgan holda, quyidagi fikrlarni bayon etdi:

«Birinchidan, biz eski sho‘rolar zamonidan qolgan ta’lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan hali-beri to‘liq qutulganimiz yo‘q.

Ikkinchidan, barcha amaldagi o‘zgarishlar va tadbirlar, asosan yuzaki bo‘lib, ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bergen emas.

Uchinchidan, bizning amaldagi ta’lim-tarbiya tizimimiz bugungi kun zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko‘p joylarda yaqqol ko‘rinmoqda»¹. Mazkur mulohazalar yangi hujjatlar qabul qilingungacha bo‘lgan davrdagi ta’lim tizimining cheklanganligidan yaqqol dalolat berardi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning eng ilg‘or jihatlaridan biri – unda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarining bayon etilishi bo‘ldi. Ular quyidagilardan iborat edi:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xususiyatga ega ekanligi;
- umumiyligi o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;
- ta’limning uzlusizligi va izchilligi;

¹ Баркамол авлод – Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори. – Т., 1997.
– 6-б.

- o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limining yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta’lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Masalaga bunday tarzda yondoshuv ta’limning mamlakatda ko‘rilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat talablariga to‘liq javob berishi, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidan guvohdir. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim turlariga asos solindi, mavjudlarini takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqildi.

Hukumatimizning ta’lim-tarbiya sohasiga shu darajada katta e’tibor berishi beziz emasdир. Gap shundaki, mamlakatimiz aholisining aksariyat ko‘pchiligi yoshlар, o‘smirlardan iborat bo‘lib, ular o‘z kelajaklarini aynan bilim olish bilan bog‘lagandirlar. Xususan, hozirda O‘zbekistonda 9,5 mingga yaqin umumta’lim maktablari, gimnaziyalar, litseylar, kollejlar, 300 ga yaqin o‘rta maxsus muassasalar, 65 ta oliy o‘quv yurtlari bo‘lib, ulardan 600 mingdan ortiq turli malakadagi pedagoglar mehnat qiladi.

So‘nggi yillarda milliy maktablar tizimini yaratish borasidagi ishlarning tarkibiy qismi sifatida respublikamizda yashayotgan va ozchilikni tashkil etgan (mamlakatlar) millatlar farzandlari ta’lim-tarbiyasiga ham e’tibor kuchaytirildi. O‘zbekistonda 2,5 mingdan ortiq o‘quvchisi bo‘lgan 50 ga yaqin qrim-tatar maktabi, 130 ta o‘quvchisiga ega bo‘lgan 2 ta nemis maktabi, 2400 ga yaqin o‘quvchisiga ega bo‘lgan 24 ta koreys maktabi, 4 ta uyg‘ur, 1 tadan kurdlar, yahudiylar maktablari faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bundan tashqari, 9 mingdan ortiq qozoq farzandlari, 3000 mingdan ortiq tojik farzandlari, 1 mingdan ortiq qirg‘iz farzandlari va 1,5 mingga yaqin turkman farzandlari ham o‘z tillarida ta’lim-tarbiya ola boshladilar¹.

O‘zbekiston hukumati istiqlol talablariga javob bera oladigan iqtidorli yoshlarni tanlab olish, ularning fan yo‘lidagi so‘qmoqlarni sharaf bilan bosib

¹ Эргашев К. Ўзбекистон халқ таълимининг ривожланиш тарихи. – Т., 1998. – 64-6.

o‘tishi borasida ham qator ishlarni amalga oshirmoqda. «Umid» jamg‘armasining O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ta’sis etilishini shu ma’noda tushunish lozim. Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 13 yanvar qaroriga muvofiq ish boshladi.

Ma’lumki, mamlakatimizda tarixiy tub o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun jahon andozalari darajasida bilim olgan iste’dodli, ruhan barkamol yosh milliy kadrlar zarurdir. «Umid» jamg‘armasining o‘z oldiga qo‘ygan eng katta maqsadi ham xalq xo‘jaligining nufuzli tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlashdan iborat bo‘ldi. **Hozirgi kunda o‘zbekistonlik talabalar o‘z tanlagan ixtisosliklari bo‘yicha AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyaning jahonga mashhur oliy o‘quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan shug‘ullanmoqdalar.**

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi jamiyatni ma’naviy jihatdan barqarorlashtirish borasida juda katta vazifalarni bajarmoqda, yoshlarda Vatanga, millatga mehr-muhabbat hissini singdirishda, jahon andozalariga mos faoliyat ko‘rsatishda muhim omil bo‘lmoqda. Shu bilan birga, yangi ta’lim-tarbiya dasturi yoshlarda mafkuraviy e’tiqodni mustahkamlashda, milliy g‘oya va milliy mafkura mohiyatini anglashda alohida ahamiyatlidir, zero, mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash juda zarurdir. I. A. Karimov qayd etganidek, eng muhim vazifa «ularning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning men o‘zbek farzandiman, deb g‘urur va iftixon bilan yashashiga erishishdir»¹.

3. Istiqlol yillarida o‘zbek madaniy hayotidagi o‘zgarishlar

Har qanday sharoitda ham barcha millat va xalqlar o‘zining ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga muhtojlik sezadi. Ma’naviyat – inson

¹ Каримов И. А. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. – Т., 2000. – 6-б.

uchun mavjudlik belgisi. Ma’naviy boylik – u yoki bu millatni boshqa etnik birikmalardan o‘ziga xosligini bildiruvchi, anglatuvchi muhim omildir. Ma’naviyati yo‘q xalqning o‘zi yo‘q. Shu bilan birga, har bir xalq ma’naviyati ham bir xil darajada emas.

Shu o‘rinda mamlakat Yurtboshimizning «biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»¹, degan fikrlarida juda katta mantiq va ma’no bor. Biroq sho‘rolar mustabid tuzumi sharoitida o‘zbek milliy madaniyati haddan ortiq darajada ko‘p zarar ko‘rdi. Barcha mustamlakachilik kabi kommunistik mafkura maddohlari ham o‘zbek xalqini qul qilish uchun, eng avvalo, shu xalqning milliy madaniyatini yo‘q qilishga zo‘r berdilar.

Ta’kidlash joizki, ma’naviy madaniyati yuksak, ildizlari baquvvat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini hech qachon tamomila yo‘q qilish mumkin emas. To‘g‘ri, mustamlakachiliklar natijasida o‘zbek madaniyatiga katta zarar yetkazildi, uning ma’naviy ildizlarini qirqib tashlashga urinildi. Lekin ular buning uddasidan chiqa olmadilar.

O‘zbek xalqi katta yo‘qotishlarga qaramasdan, o‘zligini, o‘z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Bunga yaqin va uzoq tarix guvohdir. Endigi vazifa – ma’naviy hayotdagi barcha yo‘qotishlarning o‘rnini qoplashdan iborat bo‘ldi. Bu narsa xalqimizning ma’naviyat va ma’rifatga muhtojligi va uning tanqisligi bilan belgilandi. Kishining o‘zligini anglashi, o‘z sha’nini himoya qila olishi va barcha yomonliklardan o‘zini tiya olishi uchun orif bo‘lmog‘i, qalbining tubida jinday bo‘lsa-da, ma’rifat shamchirog‘i yonib turmog‘i lozim. Ana shunda odam gunohdan hazar qilish, barcha ne’matlardan aql-idrok va insof doirasida foydalananish yo‘lini tutadi. Nojo‘ya xatti-harakatlari uchun tavba-tazarru qilish zarurligini anglay boshlaydi².

O‘zbek xalqi aynan shu yo‘ldan bordi, o‘z milliy-tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini ko‘rsata bildi. Bu esa mustamlakachiliklar davrida yo‘qotilgan, toptalgan madaniy merosni tiklash, o‘zligini anglashga bo‘lgan rag‘batni uyg‘otdi.

Istiqlol yillarida o‘zbek madaniy hayoti uyg‘ondi, jonlandi va o‘zining butun mavjud bo‘y-bastini ko‘rsata bildi. Teatr, musiqa san’ati rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma’rifiy muassasalar

¹ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., 1998. – 18-б.

² Жўраев Н. Тарих фалсафаси. – Т., 1999. – 150-б.

faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi.

Ayniqsa, teatr san'atining rivoji gullab yashnadi. Bu bejiz emas edi. Zero, mustamlakachilik davrida teatrlar kommunistik mafkuraning xizmatkoriga aylangan, siyosiy maqsadlarnigina bajaruvchi kuchga aylangan edi. Shu asnoda asosiy e'tibor repertuar masalasini hal etish, tomoshabinlarni bezdiradigan sahna asarlari o'rniga ularning ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi spektakllarni fuqarolar hukmiga havola etishga asosiy e'tibor qaratildi.

Hozirgi sharoitda *O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 36 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo'g'irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar*. 1998 yil 26 martda *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi farmoni e'lon qilindi*.

Unga binoan, O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarining faol qatnashishini ta'minlash, respublika Madaniyat ishlari vazirligi Teatr tashkilotlari negizida va Teatr arboblari uyushmasida badiiy zamonaviy sahnabop asarlar yaratish maqsadida, Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va Teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

«O'zbekteatr» birlashmasi o'zining teatr tashkilotlari hamda mintaqaviy bo'limiga ega bo'lib, mulkchilik shakllaridan va qandaydir muassasa organviy daxldorligidan qat'i nazar, mamlakatdagi barcha davlat teatrlari, teatr studiyalarida xalq teatrlari va boshqa tegishli tashkilotlar jamoalarini ixtiyoriy tartibda birlashtirdi¹.

Teatr san'atini rivojlantirish yo'lida 1998 yil noyabr oyida o'tkazilgan «Humo» xalqaro yoshlar teatrlarining festivali alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu festivalda O'zbekiston va Isroil davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiq tomoshabin tomosha qildi.

O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida ma'naviy madaniyatning muhim jabhasi bo'lgan musiqa san'ati ham

¹ Ўзбекистон Республикаси. 100 саволга 100 жавоб. – Т., 1998. – 177-6.

juda rivoj topa boshladi. Zero, tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. Sho'rolar davrida asosan mafkuraviy hukmronlik quliga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'liga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy qo'shiqchilik san'atidan bahramand bo'la boshladilar.

O'zbekiston hukumati xalqimizning milliy qo'shiqchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib, milliy ruhdagi, xalqning ko'ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni doimo rag'batlantirdi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo'yicha qator ko'rik-tanlovlar o'tkazila boshlandi. Xususan, 1992 yil mart oyida Toshkent shahrida tanbur, sato, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining **«Asrlarga tengdosh navolar»** deb nomlangan respublika ko'rik-tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo'g'irchoq teatrлari jamoalarining ko'rik-tanlovi, shuningdek, mashhur san'atkorlar Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janaq Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining **«Boqiy ovozlar»** deb nomlangan ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Ayni paytda, 1992-yil may oyida Xorazm viloyatida folklor jamoalarining, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning iyun oyida Qo'qonda o'tkazilgan IX an'anaviy va lapar, yalla ijrochilarining avgust oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan XI an'anaviy ko'rik-tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Mamlakatimiz rahbari qo'shiqchilik san'atidan mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda ham unumli foydalanishga e'tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda 1995 yil dekabrda **«O'zbekiston – Vatanim manim»** mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi e'lon qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat, shahar va tumanlarda juda katta ko'tarinkilik ruhida o'tkazildi va uning natijasida yuzlab yangi, mustaqillik davri qo'shiqlari yaratildi, ko'plab iste'dodli san'atkorlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

«O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq ko'rik-tanlovining 1996-yil mart oyida bo'lib o'tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi, 10 mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi. Qayd etish lozimki, mazkur tanlov istiqlolni, Vatanni, o'zligini anglashda muhim qadam bo'ldi. Xalqimizning bunday tadbirga qiziqishi ortiq bo'ldi.

Bularning barchasini e'tiborga olib, 1996 yil avgustda **«O'zbekiston – Vatanim manim»** qo'shiq bayrami haqida» maxsus farmon qabul

qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg‘usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo‘sishlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida, har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «*O‘zbekiston – Vatanim manim*» qo‘sish bayrami kuni, deb belgilab qo‘yildi. Ayni paytda, xalqimizning qo‘sishchilik san’atiga bo‘lgan buyuk qiziqishini e’tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi huzurida «*O‘zbeknavo*» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada mazkur ko‘rik-tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o‘zbek milliy, shu bilan birga, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o‘z san’atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san’atning qo‘sishchilik turiga teng e’tibor berilishi, ularning uyg‘un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san’at turi yanada rivoj topmoqda.

Ma’lumki, O‘zbekistonda jahon sivilizatsiyasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan buyuk moddiy madaniyat yaratildi. Ular xalqaro hamjamiyat tomonidan allaqachon e’tirof etilgan. Biroq sho‘rolar mustabid tuzumi davrida O‘zbekiston moddiy madaniyatiga katta zarar yetkazildi. Minglab noyob madaniyat durdonalari, asori-atiqalar xorijga, xususan, Moskva, Sankt-Peterburg muzeylariga tashib ketildi. Milliy o‘zlikni anglashda bunday yodgorliklarning ahamiyati katta ekanligini e’tiborga olib, mustamlakachilar, iloji boricha, ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyatni kansitishga harakat qildilar.

Ammo mustaqillik bunday jirkanch siyosatga barham berdi. Istiqlolning dastlabki davrlaridanoq muzeylar, qo‘riqxonalarning o‘rni va rolini belgilab berishga alohida ahamiyat berildi. Ma’lumki, hozirda birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo‘yicha 68 ta muzey mavjud bo‘lib, bular 21 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 ta me’morial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta tabiiy-ilmiy muzeylardir.

Shu bilan birga, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi, Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi, Xivada «Ichon-Qal’a» davlat muzey-qo‘riqxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. 1999 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizdagi muzeylar fondida 1305786 eksponat saqlanmoqda. Birgina 1999-yilda ularning asosiy fondiga 7544 ta eksponat qabul qilindi. Shu yilning o‘zida barcha muzeylarga 1655400 kishi tashrif buyurdi¹.

¹ Мозийдан садо. – Тошкент, 2000. – 1–2-сон. – Б. 22.

O‘zbekiston hukumati xalqimizning milliy o‘zligini anglash jarayonini yanada jadallashtirishni e’tiborga olib, 1994 yil 23 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 1999 yil 5 dekabrda esa «Muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida»gi qarorlarni e’lon qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni esa, muzeylar ishida tubdan burilish yasadi. Unga binoan, barcha turdagи muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, qo‘llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatishni ta’minalash maqsadida, Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O‘zbekmuzey» jamg‘armasi tashkil etildi, o‘zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnali ta’sis etildi.

Ko‘rilgan barcha tadbirlar natijasida muzeylarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ancha ortdi, ularning o‘zbek xalqi milliy o‘zligini anglash jarayonidagi roli kuchaydi. Muzeylarga e’tibor xorijlik fuqarolarning O‘zbekistonga, uning boy va qadimiy madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Istiqlol o‘zbek xalqiga o‘z milliy adabiyotini qaytarib berdi. Kommunistik mafkuraning jarchisiga aylangan «soviet adabiyoti» vayronlari o‘rniga paydo bo‘lgan o‘zbek milliy adabiyoti tezlikda o‘zining qaddini ko‘tardi, partiyaviylik, sinfiylik kabi xato metodologik asoslardan voz kechila boshlandi. Mumtoz adabiyotga munosabatda diniy adabiyot, feodal-klerikal adabiyot, saroy adabiyoti kabi tushunchalar va bir millat adabiyotini reaksiyon va progressiv deb ikkiga bo‘lib o‘rganishdek xato nazariy cheklashlarning daf etilishi milliy adabiyotning xolisona baholanishiga imkon yaratdi. Shunday qilib, mustaqillik O‘zbekiston ma’naviy hayotini barqarorlashtirish uchun zamin yaratdi, ma’naviy-ma’rifiy hodisalarga munosabatni o‘zgartirdi. Istiqlol tufayli ma’naviy turmushimizdagi ko‘plab muammolar hal etila boshlandi. Qurilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat, bozor munosabatlariga o‘tish, jahon hamjamiyati bilan mafkuraviy tazyiqlarsiz o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyati – bularning bari O‘zbekiston madaniyatini xalqchil qildi. O‘zbekiston, o‘zbek xalqining dunyodagi o‘ziga xos va mos o‘rni borligi, uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘sghan beba ho hissasining e’tirof etilishi tufayli ma’naviy hayotning gullab-yashashi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar – jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi sifatida oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni hayotga tatbiq etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ichki ishlar organlari xodimlarining oldiga quyilgan vazifalarni sidqidildan bajarishlari, o‘z xalqiga, Vataniga bo‘lgan sadoqatliliqi, jamoaga bo‘lgan hurmat va ehtiromi, kasbiga bo‘lgan fidoyiligi, o‘ta og‘ir va turli xil favqulodda vaziyatlarda o‘zini va jamoani himoya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari, har bir bajarilayotgan xizmat vazifalarini to‘g‘ri va haqqoniy amalga oshirishlari lozim bo‘ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari ta’lim jarayonida olgan nazariy bilimlarini mukammal darajada egallashlari, ta’limning rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini kompleks ravishda o‘rganishlari o‘z bilim va mahoratlarini yuqori savida rivojlantirishlari lozim bo‘ladi.

Buning uchun esa har bir ichki ishlar organlari xodimlari o‘z vazifalarini his qilib, egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga, hayotga tatbiq eta bilish qibiliyatiga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek, bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining tashkiliy-taktik usullarni, tezkor, tergov harakatlarini bekamu ko‘sit bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishlari talab etiladi. Shunday ekan, ichki ishlar organlari xodimlari o‘zbek milliy madaniyatini yanada rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shishlari yoki, aksincha, o‘zbek milliy madaniyatining ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatida namoyon bo‘lishida har bir xodimning o‘z fazilati va xislatlarini ijobiy tomonga yo‘naltirishi maqsadga muvofiqli.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Ma’naviyat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish deganda, nimani tushunasiz?*
2. *O‘zbekistonda Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi qachon tashkil topgan?*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni qachon qabul qilingan?*
4. *«O‘qituvchilar va murabbiylar» kunini nishonlash to‘g‘risidagi Prezident farmoni qachon qabul qilingan?*
5. *«Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-kuvvatlash to‘g‘risida»gi Prezident farmoni qachon qabul qilingan?*
6. *O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?*

7. O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?
8. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?
9. «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati va ma’naviyati orqali bilamiz» degan fikr muallifini toping.
10. «Ma’naviyat» atamasiga berilgan to‘g‘ri ta’rifni belgilang.
11. Ma’naviy boylik – nima?
12. 1998 yil 26 martda Prezident qanday farmonga imzo chekdi?
13. 1994 yil 23 dekabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qanday qaror qabul qilindi?
14. «Modomiki, biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini qurayotgan ekanmiz, ma’naviy sohadagi dasturimiz ham shundan kelib chiqmog‘i darkor» degan fikr muallifi kim?
15. Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi qanday vazifalarni bajaradi?

4-MAVZU. JAHON MADANIYATINING VUJUDGA KELISHI, UNING BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

- ∞ Arxaik (*ibtidoiy*) madaniyat haqida umumiy tushuncha
- ∞ *Jahon madaniyatining vujudga kelishida an'anaviy va diniy madaniyat*
- ∞ *Texnogen madaniyati shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari*

1. Arxaik (*ibtidoiy*) madaniyat haqida umumiy tushuncha

Arxaik yoki ibtidoiy madaniyat – insoniyat madaniyatining ibtidosi va eng uzoq davom etgan davridir. Bu davr insoniyat tarixi umumiy ko'laming 99 foizini tashkil qilgan holda, zamonaviy madaniyatga beqiyos ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. O'sha vaqtida vujudga kelgan arxaik madaniyatning ayrim ko'rinishlari bo'lmish fikrlash tarzi, fe'l-atvor hozirga qadar yo'qolgan emas. Insoniyat hayotining boshlang'ich davri keyingi barcha o'zgarishlarga zamin tug'dirgani sababli, bu davrni o'rganish insoniyat evolutsiyasi asoslarini, uning madaniyati negizini tushunish va sharhlashga yordam beradi.

Bu borada ko'plab olimlar tomonidan ma'lumotlar to'plangan bo'lib, biz ushbu ma'lumotlarning ikki yo'nalishini ko'rib chiqamiz:

I. Antropologik va arxeologik topilmalar – ibtidoiy odamning jismoniy va madaniy rivojlanishini, ovchilik jamoasining turmush tarzini yorug' olamga chiqardi. Bu ma'lumotlar o'ziga xos belgilari bilan emperik (tajriba) tahlilni yuzaga chiqardi va ibtidoiy bosqichni umum qabul qilgan **Paleolit – qadimgi tosh asri va Neolit – yangi tosh asri** tasnifiga asos soldi:

Paleolit bosqichining o'zi ham **ilk (quyi)** va **so'nggi (yuqori)** davrlarga bo'linadi. Shuningdek, poleolit va neolit bosqichining o'rtasi **mezolit – o'rta tosh asri davriga** bo'linadi.

II. Etnografik ma'lumotlar – zamonaviy xalqlar va hozirgi vaqtida ham ovchilik va termachilik bilan kun ko'rvuchilarning hayoti haqidagi ma'lumotlardir. Bu ma'lumotlar saqlanib qolgan arxaik madaniyat ko'rinishini etnik, ijtimoiy va ruhiy o'xshashliklar bo'yicha qayta tiklashga yordam beradi.

Tosh asrining davri bundan 2,6 mln. yildan (Kenyaning Rudolf ko'li sohilidan topilgan qadimgi tosh qurollari) to er. av. 2 ming yilgacha

(mehnat quollarini jezdan tayyorlay boshlagan davrgacha) bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida qazib topilgan gominidlar ham ilk paleolit davriga oiddir. Arxeolog U. Ismoilov Selung‘ir g‘oridan topgan «fergantrop» qoldig‘ining yoshi 700 ming yilga teng.

Ilk paleolitning oxirgi davri ko‘pincha alohida davrga ajralib «**o‘rta**» yoki «**mustye**» deb nomlanadi (200 minginchi yildan 40 minginchi yilgacha). Bu qonuniy hodisa bo‘lib, mustye davrida madaniy ijodkorlik jarayonining o‘sishi seziladi, ya’ni bu davrda neandertallar paydo bo‘ldi. Neandertallar keng hududlarga tarqalib, murakkab va turli xil quollar tayyorlagan, eng muhimi, ulardan muayyan marosim va madaniyatni rivojlantirish boshlandi. Neandertallar yashagan g‘orlardan ayiqning bosh suyagi topilgan, maxsus o‘rnatilgan tosh supa olovdan qoraygan, unda muayyan marosim o‘tkazilgan. Neandertallar qabri ko‘pincha Sharq-G‘arb yo‘nalishi bo‘yicha joylashib, murda «yonbosh uxlayotgan holatda, tizzalari engagiga qayirilgan, yoniga tosh quollar qo‘yilgan». Bu marosim udumi madaniyatda o‘limdan keyingi hayot mavjudligi haqidagi eng qadimgi va barqaror tasavvurning paydo bo‘lganligidan dalolatdir.

Neandertal qabri O‘zbekistonning Teshiktosh g‘ori (Surxandaryo viloyati)dan ham topilgan, shuningdek o‘sha davrga oid ko‘plab manzilgohlar (Omonqo‘ton, Zirabuloq, Obirahmat, Ko‘lbuloq, Uchtut va boshq.) ochib o‘rganilgan.

Ilk paleolitda madaniy muhitning mavjudligi alohida joylar bilangina chegaralansa, **so‘nggi paleolitda** esa madaniyat tizim sifatida shakllanadi. So‘nggi paleolitning boshlarida gominid evolutsiyasi yakunlanib, zamonaviy «aqlli odam» turi paydo bo‘ladi. So‘nggi paleolitda turli-tuman tosh va boshqa quollar notekis tarzda ko‘payishi natijasida tarkibiy quollar – tasma, uchlik, shuningdek to‘qimachilik paydo bo‘ladi.

Nihoyat, dastlabki tartibli ijtimoiy tashkilot – urug‘ tashkil topadi. Bu inqilobning mahsuli insonlarning asosiy antropologik, ruhiy fiziologik, ruhiy ijtimoiy va ma’naviy birligi bo‘lib, insonlar uyushmasining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, til, maishiy rivojlanishidagi tafovutlarga qaramasdan, tarixda saqlanib qoldi.

Ibtidoiy odamlar tabiatni, iqlimni sharoitdan kelib chiqib kuzatishi asosida ob-havoni oldindan aytib berish qobiliyati paydo bo‘ladi. Tarbiya ham mehnat va turmush bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, odat va udumlar asosiy ahamiyat kasb etgan.

Ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biri **ibtidoiy san’at** ham odamning mehnat faoliyati bilan uyg‘un holda vujudga kelgan. Urug‘chilik jamoasining paydo bo‘lishi davrida ibtidoiy odamlar san’atning nimaligini to‘la anglamagan holda tirikchilik jarayonida san’at shakllana boshladi. Ibtidoiy san’at xilma-xil bo‘lib, bir necha turlarga bo‘linadi:

1) suyak, tosh parchasi, shox, kulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va har xil narsalarning tasvirlari;

2) g‘or devorlariga har xil ranglar bilan ishlangan hayvon, odam va buyumlar tasviri. Ularda ov, mehnat, jang va boshqa manzaralar tasvirlangan. Bunday tasvirlar Turon, Sahroi Kabir, Markaziy Osiyo, G‘arbiy Yevropada ko‘plab uchraydi;

3) qoyatoshlarga o‘yib, chizib, ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlarda hayvon, buyum, qurollar va ibtidoiy kishilarning kundalik mehnati bilan bog‘liq manzaralar o‘rin olgan. Qoyatosh tasvirlari Osiyo, Afrika va Yevropada ko‘p uchraydi;

4) arxaik san’at turlaridan yana biri haykaltoroshlik ham urug‘chilik jamoasining rivojlangan davrida paydo bo‘lib, asosan ayollar, qisman erkaklar, shuningdek hayvonlar haykallari ishlangan. Bunday haykalchalar, suyak, tosh va boshqa narsalardan tayyorlangan. Haykallarda ibtidoiy mehnat va e’tiqod ramzları namoyon bo‘ladi;

5) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik (neolit) faoliyati bilan bog‘liq sopol buyumlarga chizilgan rasmlarda oddiy chiziqlar, hayvon va o‘simgilik tasvirlari uchraydi;

6) ibtidoiy san’at turlaridan biri – niqoblar qadimgi odamlarning ovchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, niqob tutib hayvon qiyofasiga kirgan, hayvonlarni qo‘rkitib, o‘zlarini himoya qilgan. Niqoblardan marosim va udumlarda foydalangan;

7) musiqa, qo‘sish, o‘yin ibtidoiy san’at turlari hisoblanib, ibtidoiy odamlar urib, chertib, puflab chaladigan asboblarni kashf qilishgan;

8) xalq og‘zaki ijodi – asotir, rivoyat va afsonalar ham ibtidoiy davr mahsuloti bo‘lib, ibtidoiy odamning turmushi, o‘y-fikri va kayfiyatini ifodalagan, diniy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo‘lgan¹.

Umuman, ibtidoiy san’at kishilarning dastlabki umumiyligi ijodi bo‘lib, u odamlarning mehnat faoliyati, ichki ruhiyati va diniy tasavvurlari bilan

¹ Musaev N.U. Azimov H.I. Madaniyatshunoslik. – T., 2010. – 36-б.

uyg‘un bo‘lgan. Diniy tasavvur va e’tiqod shakllari madaniyatning moddiy va ma’naviy turlarining rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Ibtidoiy odamlar turli mintaqalarga tarqalib, turli xil tirikchilik bilan shug‘ullana boshlaydi. Tabiatning va tirikchilikning xilma-xilligi turli e’tiqodlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Tabiat va jamiyat hodisalariga bog‘liq g‘ayritabiyy kuchlarga ishonish ibtidoiy e’tiqod deyiladi. Uning totemizm, animizm, sehrgarlik kabi turlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida keng tarqalgan.

Totemizm – jamoaning hayvon yoki o‘simlik turi bilan g‘ayritabiyy qarindoshlik aloqasiga ishonishi bo‘lib, ovchilik va termachilik rivojlangan davrda paydo bo‘lgan. Bu e’tiqodda totem – hayvon yoki o‘simlik nihoyatda hurmat qilingan. Totemizmning ilk bosqichida hayvon muqaddas sanalib, uni o‘ldirish yoki go‘shtini iste’mol qilish taqiqlangan. Faqat urug‘ning urf-odat marosimlaridagina bu hayvon go‘shti iste’mol qilingan.

Animizm – «ruh», «jon» ma’nosini bildirib, bu dunyoda ruhlar, jonlar shaklidagi g‘ayritabiyy kuchlarning borligiga ishonishgan. Tabiatdagi narsalar, odam va boshqalarning ruhlari – shular jumlasidandir. Urug‘chilik jamoasining rivojlanishi bilan urug‘ boshliqlar, harbiy yo‘lboshchilar ruhiga-ajdodlarga sig‘inish paydo bo‘lgan. **Matriarxat davrida ruhlar ayollar nomi bilan atalgan.** Xo‘jalik shakllari paydo bo‘lgach, tabiatdagi narsalar (quyosh, suv, yer)ning ruhiga topinish kuchayadi.

Sehrgarlik – *odamning g‘ayritabiyy kuchlarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga asoslangan amallardir.*

Bu ibtidoiy san’atda ham o‘z ifodasini topgan. Qoyatosh tasvir-laridagi yaralangan hayvon ifodasida ovchilar bo‘lg‘usi ovning baroridan kelishini ko‘zlab, hayvonlarni sehrlaganligini kuzatish mumkin.

O‘zbekiston hududidagi ibtidoiy tasviriy san’at namunalarining eng qadimgisi mezolit-neolit davrlariga oid bo‘lib, ular jahon tasviriy san’at tarixining ajralmas qismidir. Shuningdek, bu tasviriy san’at tarixi bir qator alohida ko‘rinish, o‘ziga xos va farqli jihatlariga ega bo‘lib, quyidagi bosqichlardan iborat:

1) g‘orlar, qadimgi toshlar va turli qoyalarda saqlanib qolgan ibtidoiy tasvirlar yaratilgan davr;

2) loy, ganch, tosh va yog‘ochdan ishlangan qadimgi haykallar namunalari va turli hunarmandchilik buyumlaridagi tasvirlar yaratilgan davrlar;

Mamlakatimizning tog‘lik tumanlarida keng tarqalgan qoyatosh tasvirlari ishlanish usuliga ko‘ra, ikki xil: bir xillari bo‘yoq (oxra) bilan; ikkinchi xillari esa, o‘yib-ishqalash-chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogiflalar).

Tasviriy san’atning ibtidoiy davrga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi **Taqatosh nomli toshdagi tasvir-yozuvlardir**.

Mif va mifologiya, eng avvalo, antropomorfizm – *tabiatdagi narsalarga ham odamga xos deb qarashni va xudolarni odam qiyofasida tasavvur qilishni ifodalaydi.*

Mif va mifologiyaning qadimgi e’tiqodlardan farqi shundaki, u olamdagи barcha mavjud munosabat va qadriyatlarni izohlashni o‘z ichiga oladi. Bu o‘scha davrlarni bilishning o‘ziga xos nazariy asosi va maxsus shaklidir. Negaki, bilim – yorqin rang-baranglik, ifodalilik, jo‘shqinlikdir. Mifologiya dastlabki bosqichda kishilar uchun bilim o‘rganish va mustahkamlashning yagona manbai va usuli emasligi dargumon. Biroq L. S. Vasilyevning ta’kidlashicha, bilimni mustahkamlash mifni o‘rganish yo‘li bilan emas, balki uning udumlari, marosimlarining amalda takrorlanib tarqalishida sodir bo‘ladi. Mif va marosim arxaik madaniyatning go‘yoki ikki tomoni, ya’ni so‘zdagi va harakatdagi, nazariy va Amaliy jihatlaridir. Mifologik bilim ilmiy haqiqatga muayyan miqdorda daxldordir.

Mifologik bilimning ikkita asosiy ijtimoiy vazifasi bor:

1) ushbu umumiyligining asosiy vazifalarini, ularning odatiy mavjudligini kishilar ongiga sindirish va mustahkamlash, xususan, shakllangan qoidalarni tasdiqlash, qonuniylashtirish va hatto jamoani tiklash va barqarorlikni ta’minalash uchun ularni an’anaga aylantirish;

2) jamoani qo‘rquvdan xalos qilish maqsadida va ruhiy halovatni kafolatlashda atrof muhit bilan hamda butun tashqi olam bilan mustahkam aloqa o‘rnatish va uni ta’minalash¹.

Mif olamning mavhum g‘oyalardan buzilgan tarzini o‘zida namoyon qilib, noaniq va quruq muhokamalarning shakllanishiga imkon beradi. Ya’ni, dastlabki davrda insonni o‘zini chulg‘ab turgan aniq kundalik ishlardan chalg‘itib, xayoliy poetik olamga olib kiradi. Mif olamni jamoa bo‘lib an’anaviy his qilishdir, negaki, shu asosda u har doim ilk diniy tasavvurlar majmuuning negizi hisoblangan. Mif – dastlabki dunyoqarashning zaruriy, muqarrar shaklidir. Umum tasavvurlar mifning

¹ Musaev N.U. Azimov H.I. Madaniyatshunoslik. – T., 2010. – 40-6.

shakllanishiga sabab bo‘lolmaydi va hissiy tajriba-kuzatishlar uchun ham, noaniq – mavhum mulohazalarga ham asos bo‘lolmaydi. Guruhlar tushunchasi, eng avvalo, butun borliqni o‘ziga qo‘shib hissiy qayg‘urishga tayanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida neolit davri ancha oldin boshlangan. Bunga mil. av. VI ming yillikda Kopetdog‘ etagida vujudga kelgan Joytun madaniyati guvohlik beradi. O‘troq dehqonlar va chorvadorlarning bu madaniyati asosan samonli loydan qurilgan uylardan iborat manzilgoh bo‘lib, Eron va Mesopotamiya xalqlari madaniyati bilan yaqin aloqada shakllangan joytunliklarning ma’naviy madaniyati rivojiga katta umumiy ibodatxona devorlariga ishlangan rangtasvir dalil bo‘ladi. Mil. av. IV–III ming yillikda Xorazm hududida neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati shakllandi.

Neolit inqilobi o‘z mohiyatiga ko‘ra arxaik madaniyatning oxiri hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatining yangi turi – dehqonchilik va chorvachilikka o‘tish bilan inson tabiatda mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyatini namoyon qildi, bu insonning ijtimoiy va ma’naviy g‘alabasi edi. Agar arxaik madaniyatda jamoat fikri yetakchilik qilib, urug‘ a’zosi, urug‘ manfaatlari doirasida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, endi individual ong va qiziqish kuchaya boshladi. Neolit davrining oxiri va jez asrida arxaik madaniyat barham topdi.

Bu davrda jamoa mulki o‘rniga xususiy mulk vujudga kelib, ***hunarmandchilik ajralib chiqadi va mahsulot ayrboshlash shakllanadi***.

Qayiq va yelkanli kemalar, taqvim, hisob va o‘lchov tizimi vujudga keldi. ***Xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi huquqning shakllanishiga olib keldi***. Ayrimlari hozirgacha saqlanib kelayotgan an’analar va qadimgi folklor namunalari (miflar, dostonlar, hikoyalar, marosim qo‘shiqlari) vujudga keladi, ***yozuvning ilk tizimi***: piktografik (rasm-yozuv), belgi yoki hindularning tugunli yozuvlari shakllanadi.

2. Jahon madaniyatining vujudga kelishida an’anaviy va diniy madaniyat

Qadimgi Sharq hududida mil. avv. X–VII ming yillikda insoniyat sivilizatsiyasi va madaniyati rivojlanishining ibtidosi bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim jarayonlar ro‘y beradi. Bu davrda Sharqda madaniy faoliyatning turli shakllari va sohalari vujudga keladi. ***Yozuv, adabiyot, san’at, fan, birinchi jahon dini – buddizm paydo bo‘ladi***. Bu

boshlang‘ich jarayonsiz insoniyat madaniyatining keyingi barcha taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin.

Qadimgi Sharq tushunchasi Sharq haqidagi hozirgi tasavvurlarga mos kelmaydi. Negaki, Qadimgi Sharq yer sharining Misrdan to Xitoygacha bo‘lgan keng mintaqasini o‘z ichiga olib, bu yerda mil. avv. VII ming yillikdan boshlab insoniyat tarixida dastlabki sivilizatsiya vujudga kela boshladi.

Madaniyatning shakllanishi eng yirik daryolar – Nil, Dajla va Frot, Hind va Gang, Xuanxe va Yanszi vodiysida, ya’ni dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo‘lgan joylarda ro‘y berdi.

Xuddi shu joylarda dastlabki davlatchilik tuzilmasi, siyosiy, diniy va savdo markazi sifatida shaharlar, yozuv vujudga kelgan. Bu yerda dastlab ma’naviy madaniyat ishlab chiqaruvchi mehnat faoliyatidan bevosita ajralib mustaqil faoliyatga aylanadi. Jamiyat hayotida alohida kishilar qatlami – boshqaruv, ta’lim, ma’lumotlarni to‘plovchi va uzatuvchi sohalarda shug‘ullanuvchilar ajraladi va ko‘payib boradi.

Misr, Mesopotamiya, Hind va Xitoy sivilizatsiyalari eng ko‘hna va yirik madaniyatlar edi. Bu madaniyatlar ta’sirida Urartu, Finikiya, Xett, Elam sivilizatsiyalari shakllanib, insoniyat madaniyati tarixida sezilarli ta’sirga ega bo‘ldi.

Mifologik tafakkur – bu predmetlilik – hissiy, jonli tafakkur yetarli rivojlanmagan mavhum tushunchalarga xos bo‘lib, bunday tushunchalarni ishlatish va so‘zda ularni ifodalashning sustligi va qiyinligidir (shumerliklar «o‘ldirish» deyish o‘rniga «boshiga tayoq bilan urish» deyishgan).

Qadimgi Sharq kishisi sabab-oqibat munosabatlarini tushungan va farqlagan, biroq ularni mujmal va qonunga mos bo‘lmagan hodisa sifatida, ko‘pchiligi esa shaxsiy qudrat sifatida ongli va ixtiyoriy idrok qilgan. Sabablarni izlashda «qanday» deb emas, balki «kim» deb so‘rashadi («hodisada kim aybdor»), «ixtiyoriy, aniq maqsadda harakat qilganni» izlashgan. «Sabablarni» bunday idrok qilish oqibatida mifologik tafakkur ayrim va butunicha, bir-biriga o‘xshash har qanday tashqi moslikni qabul qiladi. Xususan, «asl namuna» tamoyili keng tarqalgan bo‘lib, unga ko‘ra hayotdagi barcha muhim narsalar (ehrom, podsho hokimiyati, inson) ilohiy qudratning «asl namunasiga» muvofiq yaratilgan.

Olamni mifologik tasavvur qilish uning nihoyatda tartibli, qat’iy iyerarxik qurilishda ifodalaniib, uning asosi turli xil oppozitsiyalar tizimi

hisoblanadi. Aynan shular mifologik ramziy tasniflashdagi dastlabki «poydevor» hisoblanadi (qarama-qarshi tiplar: yuqori-quyi, o‘ng-so‘l, osmon-yer, mag‘rib-mashriq, kun-tun, biz-ular, katta-kichik, er-xotin, hayot-o‘lim va boshqa). Shuningdek, o‘ng, yuqori, katta, yaqin, o‘z, yorug‘ taomilga ko‘ra qarama-qarshilikning musbat-ijobiy tomonini, so‘l, quyi, kichik, uzoq, begona, qorong‘i esa manfiy-salbiy jihatini tashkil qiladi.

Mifologik tafakkurning muvofiq va o‘xshash jihatlari uning an’ anaviyligi bilan bevosita bog‘liq.

An’ana bir-biriga yaqin, biroq mohiyatan boshqa-boshqa bo‘lgan hodisalar, urf-odat, marosim, ibodat, udum, odob singari faoliyatda namoyon bo‘ladi. Bularning bari u yoki bu vaziyatdagi aniq axloq dasturiga ega bo‘lib, harakatning to‘g‘riligini kafolatlaydi, noto‘g‘ri harakatlardan ogohlantiradi, negaki an’ analar negizida sotsiumning katta tajribasi mujassamdir.

Qadimgi Sharq madaniyatida an’analarga asoslanish ustun turadi. Ajdodlar an’ anasi, tajribasi mutlaq haqiqat kabi baholangan. *Mutlaq haqiqat hukmronligi bilan, D. S. Lixachev ta’kidlashicha, «odoblilik» bog‘liq bo‘lgan.* Qadimgi Sharq kishisining axloqi harakat va faoliyatda muqaddas an’ analarni qayta tiklashga qaratilgan «ilohiy o‘rnatilgan» me’yor va qoidalarga borib taqaladi.

Mifologik tafakkurning o‘ziga xos xususiyati shundaki, qadimgi Sharq kishisi o‘zini har doim sotsiumning bir qismi deb his qilgan, sotsium esa koinot kuchiga bog‘liqlikda, tabiatga aralashgan holda ko‘rinadi. Garchi, qadimgi Sharq madaniyatining turli qirralarida shaxsni individuallashtirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ular har doim individning turmush sharoitlarini belgilovchi asosiy sohalarga nisbatan ikkinchi darajali hisoblangan.

Qadimgi Sharqda makonning paydo bo‘lishi, chegaralanishi alohida o‘rin tutadi. Qadimgi Sharq mifologiyasida kosmogenez jarayoni Xaosning ajralishi sifatida namoyon bo‘ladi (masalan, hindlarda Indra, Mesopotamiyada esa Marduq haqidagi miflar).

Shohning asosiy majburiyatları fuqarolarga bog‘liq ishlar bo‘lgan: mamlakatda tartib va osoyishtalik, moddiy farovonlik va ijtimoiy adolatni ta’minlash. *Qadimgi Misrdagi «Geraklıopol shohining o‘z o‘g‘li Merikarga nasihatlari»da aytılıshicha, «haqiqat o‘rnat va yerda uzoq yashaysan. Shunday qilki, yig‘layotganni ovut, bevaga jabr qilma, insonni otasining mol-mulkidan benasib qilma».* Yana hukmdor zaminda tartib-intizom bo‘yicha yuksak missiyani bajarib, gohida behad

katta hajmdagi qurilish-xo ‘jalik faoliyatini amalgaloshirgan. Ulug‘ va bahaybat Misr piramidalari, Buyuk Xitoy devori, Baolbek ehromi, Persepol saroyi qurilishlari xudolar oldidagi hukmdorlarning «ijobiy» xususiyatlaridan dalolat beradi.

Diniy aqidalar hukmronligi kishilar hayotini belgiladi. Inson qayerda osmon bo‘lsa – xudolar dunyosi va yerni – odamlar dunyosi deb bildi. Ular doimo o‘zaro munosabatda, bir butunlikda olam daraxtining tanasi va shoxlari kabi viqor bilan yashashgan. Xudolar insonlar hayotining barcha sohalariga faol aralashgan, uning tug‘ilishi, o‘limini va o‘limidan keyingi taqdirini belgilagan. O‘sha darvlarda diniy ta’limotdan tashqari hech qanday boshqa dunyoqarash bo‘lmagan. Inson xudolardan hatto arzimas narsalar haqida maslahat so‘ragan va unga xatlar yozib ibodatxonaga olib bergan. Misol uchun, qadimgi Bobil aholisining maktubidan birida shunday so‘zlar bitilgan: «Mening otam, Xudo ayt! Sening quling Apil-Adat shunday deydi: Nimaga sen menga e’tibor qilmaysan? Sendan boshqa kim ham bor? Seni sevuvchi xudo Marduqqa yoz: mening gunohimdan o‘tsin».

Hindiston va Xitoyda tabiiy va texnika fanlari ertaroq shakllandi va o‘z navbatida sermahsul taraqqiy etdi. Biroq, bu fanlar G‘arbdagi kabi madaniyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatmadni. Bu oliy haqiqatni anglash yo‘lidagi mustaqil ta’limot bo‘lib qolish bilan bog‘liq.

Masalan, Hindistonda bilim uch darajaga ajraladi:

- 1) bilmaslik (avidya);
- 2) tushuncha, «ilmiy» bilim (vijnana);

3) hamma narsani bilish (prajnya), ya’ni birinchi daraja mantiqsiz fikrlash, ikkinchisi – mantiqiy, uchinchisi mantiqdan ustun idrok qilishga muvofiq keladi.

Yer yuzidagi eng ko‘hna va bir qadar o‘rganilgan, ko‘plab xalqlar madaniyatining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan madaniyatlardan biri – qadimgi Misr madaniyatidir. Qadimgi Misr yozuvi ko‘plab hozirgi yozuv tizimi uchun asos bo‘ldi. Qadimgi misrliklar ko‘llagan so‘zlar «papyrus», «oazis», «ximiya», «bazalt» va boshqalar hozirda ham muomalada saqlanib kelmoqda. *Misrda turli, o‘ta chalkash topinishlar tizimi mavjud bo‘lgan: xudolarga sig‘inishgan, jonivor, o‘simplik, tuproq, suv, Nilni muqaddaslashtirishgan.* Quyoshga, tirik xudo – Fir‘avnga sig‘inish qonun tusiga kirgan.

Misrliklar madaniyatida dafn marosimi alohida o‘rin tutgan. Ular o‘limni insonning ikkinchi hayoti boshlanishi deb bilgan. Mangu hayot

tushunchasi Osiris va Izida haqidagi mifdan paydo bo‘lgan. Qadimgi yunon muallifi «Misrliklar hayoti o‘limga tayyorgarlik ko‘rishdan iborat», deb bekorga yozmagan.

Hindlar shu tariqa o‘z dunyoqarashidan narigi dunyo haqidagi g‘oyani istisno qilganlar. Mutlaq «dunyoviy qonun» borliq hukmdori Braxma – olamning obyektiv ibtidosi. Ularni taqqoslaganda aniq xudolarning roli uncha katta emas, faqat «dunyoviy qonun» tamoyillarining individuallashgan timsolidan iboratdir. Hech kim, shuningdek xudo ham inson karmasini o‘zgartirishga qodir emas. Karmaning sanskrit tilidan tarjimasi «faoliyat» (taqdir)ni bildiradi. Bu tushunchaning mazmunini aniqlash murakkab. Karma insonning oldingi hayotidan meros bo‘lib o‘tadi va hozirgi hayotining mazmuni va faoliyatida namoyon bo‘ladi, u bo‘lg‘usi moddiy timsolning sifatini belgilaydi.

Xitoy madaniyatining o‘ziga xos farqli jihat shundaki, qadimdan dinlardagi mistik ibtidoga axloqqa nisbatan ikkinchi darajali deb qaralgan, madaniyatdagi belgilovchi g‘oya Osmon tasdiqlagan buyuk «axloqiy-ijtimoiy - siyosiy tartib» bo‘lgan.

Xitoy madaniyati va sivilizatsiyasining ming yillar davomida asosiy ruhiy, axloqiy va g‘oyaviy manbai mil. avv. 551–479 y. yashagan buyuk mutafakkir Konfutsiy ta’limoti hisoblanadi. Barcha eng muhim narsalar har qanday sivilizatsiyaning «qiyoqasini» belgilaydi – hayot tamoyillari, davlat va ijtimoiy tashkilot shakllari, umum qabul qilgan axloqiy me’yorlar va qadriyatlarning barchasi Xitoyda konfutsiylik ta’sirida shakllangan. Bejizga L. S. Vasilyev konfutsiylikni «Xitoy sivilizatsiya-sining kvint essensiyasi (mohiyati)» deb atamaydi.

«Osmon vakolati» yo‘nalishi **Konfutsiy tomonidan yangicha talqinda** rivojlantirilib, unda ijtimoiy axloq asosiy o‘rin tutadi va siyosiy madaniyatni belgilaydi. An’analarni hurmat qilish, burchni jiddiy his qilish, axloqiy sifatning yuqoriligi, o‘zini jamiyat uchun baxsh qilish, haqiqatni anglash uchun doimo urinish, ishonch va oljanoblik kabi ideallar boshqalarni boshqarishni istaganlar uchun mo‘ljal bo‘lgan. Bu ideallar davlatning bosh tayanchi bo‘lib, Xitoy imperiyasi to‘ralari uchun namuna hisoblangan.

Konfutsiylikni Xitoyda paydo bo‘lgan ikkinchi buyuk falsafiy ta’limot – **daosizm** to‘ldirdi. **Daosizmda** turmush, tabiat, umumlik muammolari aks etadi. Agar konfutsiychilik insonning ijtimoiy faoliyatini nazarda tutsa, daosizmda uning ruhiy hayoti, dunyoqarashi aks etadi. **Daosizmda qadimgi Xitoydagi fikrlarning bosh g‘oyasi aks etib, jahon madaniyatini yangi hayot bilan boyitdi.**

Uning g‘oyalari: in-yan tamoyillarga asoslangan dunyoning dualistik xususiyati; usin-beshta asosiy unsurdan iborat bo‘lgan materiya (yer, suv, olov, ma’dan); dunyoning o‘zgaruvchan harakatdaligi, asosiy unsurlar doimo sifat o‘zgarishida bo‘lishini bildiradi. Daosizmga ko‘ra dunyoning paydo bo‘lishi uchta kuchning faoliyatidan kelib chiqqan: Dao – Oliy Mutlaq, Ilk ibtido, De-dao nuridan dunyoning paydo bo‘lishi, Si – Oliy materiya, u moddiy dunyoni yaratib, narsa va mavjudotlarni bunyod qiladi¹.

Sharqning qadimgi sivilizatsiyasi moddiy va ma’naviy sohalardagi ko‘plab o‘ta muhim yangiliklarni vujudga keltirdi. Xususan, mil. avv. I ming yillik ma’naviy g‘alayonlar jarayoni bilan ajralib turadi. Bu davrda dastlab ikki tamoyil vujudga keldi: umuminsoniy birlik va shaxsning ma’naviy mustaqilligi. G‘oyalari erkinligi boshlanib, inson o‘z hayotini unga asoslanib qurdi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi G‘arbgaga nisbatan ertaroq boshlandi. Yunonlar madaniyati Qadimgi Sharq madaniyati ta’sirida juda yuksaldi, buni ellinlarning o‘zлari ham e’tirof etishgan. Bu ta’sirlar natijasida shunday davr boshlandiki, Sharq va G‘arb madaniyatları sintezi ellinistik madaniyatni vujudga keltirdi: Yunon-Baqtriya va Gandhar san’ati, Iskandariya fani, Fayum portretlari bunga misol bo‘la oladi. Qadimgi Sharq bizga barhayot boyliklarni qoldirdi. Bular «Gilgamesh» va «Mohabhorat» dostonlari, Kalidasi drammalari va Chjuanszining ramziy masallari, Misr ehromlari va Buyuk Xitoy devori va boshqa.

Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatları Yevropa sivilizasiyasining poydevoriga asos soldi. Qadimgi Sharq madaniyati ta’sirida shakllangan bu madaniyat an’anaviy madaniyat taraqqiyoti davrining davomchisi va yakunlovchisi bo‘ldi. Qadimgi Yunonistonda shakllanib, keyinchalik yuksak bosqichga ko‘tarilgan bu madaniyat er. avv. III asrda Rim madaniyatining vujudga kelishiga katta ta’sir ko‘rsatdi va «antik madaniyat» nomi bilan dunyo madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Lotin tilidagi «antik» (antiguus) so‘zining ma’nosи «qadimgi» demakdir. Lekin tarixiy davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, antik davr qadimgi dunyoning oxiri – qadimgi madaniyat va davlatchilikning eng taraqqiy etgan bosqichidir. Bu davr asosan Yunoniston va Rimga xos bo‘lib, Yunonistonda mil. avv. XI–IX asrlarda antik jamiyatning tashkil topishidan boshlanib, mil. avv. V–IV asrda antik (mumtoz) madaniyat takomili bilan to‘la mohiyat-mazmunga ega bo‘ldi. Milodiy V asrda

¹ Гулметов Э. Маданиятшунослик. / Маъruzalар курси., – Т., 2000. – 76-б.

varvarlar tomonidan Rim imperiyasining qulatilishi antik madaniyatni inqirozga olib keldi. Shuningdek, Yunon-Rim jamiyatni va madaniyatiga nisbatan qo'llanilib kelayotgan «antik» so‘zini ko‘proq Yevropaga tatbiqan anglamoq darkor, negaki, Yevropa xalqlari o‘zlarining madaniy taraqqiyotlari yo‘lida yolg‘iz Yunon-Rim madaniyatini bilan aloqador bo‘lganliklari sababli, shu xalqlar buniyod etgan ma’naviy boyliklarni eng qadimiy deb taniganlar.

O‘z o‘rnida antik madaniyat Yunon-makedonlar va Rim ta’sirida Egey dengizidan Hindistongacha va Misrda ellistik madaniyatning vujudga kelishiga va kosmopolitizm (dunyo fuqaroligi) tushunchasiga asos soldi.

Barcha qadimgi madaniyatlar kabi yunon mumtoz (antik) madaniyatining muhim tarkibiy qismi din bo‘lgan. Din me’morchilikning, tasviri san’atning, adabiyotning ajoyib namunalarida o‘z aksini topdi. Qadimgi yunon dinining asosiy shakllari arxaik davrdayoq tarkib topgan, uning ildizlari esa eng qadimgi krit-miken davriga va qadimgi Sharq ta’sirlariga borib taqaladi.

Ibtidoiy jamoadan sinfiy jamiyatga o‘tish davrida ma’budlar haqidagi tasavvurlar o‘zgaradi. Er. avv. VIII–VII asrlarda ko‘plab mahalliy va ayrim umumyunon ma’budlarini tartibga solish ehtiyoji tug‘iladi. Arxaik davrda (mil. avv. VIII–VII asrlarda)gi dinning rivoji antropomorfizmdan, ya’ni insonning ilohiylashtirishdan, xudolarni o‘lmaydigan va abadiy yosh bo‘lib turadigan kuchli, go‘zal kishilar deb tasavvur qilishdan iborat edi.

Quldorlik munosabatlarining shakllanishi va ijtimoiy ahvol Gesiodning «Mehnatlar va kunlar» poemasida aks ettirilgan. Shuningdek, diniy mifologiya ham Gesiod tomonidan tartibga solingan shaklidan to antik davrning oxirigacha yunonlarning tasavvurida asosan mavjud bo‘lib kelgan. Yunonlar uchinchi avlodga oid bosh ma’bularning makoni Olimp tog‘i deb bilishgan.

Qadimgi Sharq fani Yunon dunyosida ilm-fanning rivojlanishiga ta’sir etgan. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Yunonistonda madaniyat va fan rivojlanib Gerodot, Demokrit, Pragor, Gippokrat, Suqrot, Aflatun, Arastu kabi olimlar ijod qilganlar.

Miloddan avvalgi VI asrda Kichik Osiyodagi Milet shahri ilm-fan markazi bo‘lgan. Kichik Osiyo olimlari Misr va Mesopotamiya olimlarining ilmiy bilimlarini rivojlantirganlar. Ular tabiat va jamiyat hodisalarining sabablarini tushuntirishga harakat qilib, tabiat va hayotning ibtidosini suv, havo yoki olov deb faraz qilganlar.

«Tarixning otasi» deb nom olgan yunonistonlik tarixchi **Gerodot** (mil. av. V asr) Misr, Bobil, Suriya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohilidagi mamlakatlarga sayohat qilib, o‘zining «Tarix» kitobida turli xalqlar haqida ma’lumotlarni yozib qoldirgan.

Yunon olimlaridan biri **Demokrit** (mil. av. 460–370 y.) «Hamma narsalar eng mayda zarracha, atomlardan tashkil topgan», degan fikrni ilgari surgan. U fanning ko‘p sohalari bilan shug‘ullangan.

Kos orolida tug‘ilgan yunon tabibi **Gippokrat** (mil. av. 460–375 y.) tibbiyot bilimlarini otasi Geraklitdan o‘rganadi. U mashhur tabib bo‘lib, tibbiyotning barcha masalalari bilan shug‘ullangan va ulug‘ faylasuf ham bo‘lgan. U shogirdlari bilan birga 72 kitobdan iborat «Gippokrat to‘plami» nomli tibbiy asar yozib qoldirgan.

Afinalik faylasuf **Suqrot** (mil. avv. 441–399 y.) birorta kitob yozmagan. U odam gavjum joylarda shogirdlarini haqiqatni bilishga undab, haqiqat bahs orqali bilinadi, degan. Suqrot o‘z qarashlarida odamlarni tenglashtirishga qarshi chiqqani uchun Afina quldorlik demokratiyasi namoyandalariga yoqmagan va uni o‘limga hukm qilishgan.

Makedoniya saroy tabibining o‘g‘li **Arastuni** (mil. avv. 384–322 y.) Sharqda «birinchi muallim» deb ataganlar. U juda ko‘p asarlar yozib, ilmiy bilimlarni alohida sohalarga bo‘lib chiqqan va mustaqil fanlarga birlashtirgan. Arastu Yer koinotning markazi deb hisoblagan. Uning mashhur asari «*Siyosat*»dir.

Yunoniston afsona va rivoyatlar yurti bo‘lib, qadimdan adabiyot rivojlangan. «Prometey», «Gerakl», «Didal va Ikar», «Argonavtlar», «Odisseya» va «Iliada» kabi afsona va dostonlarda yunonlarning turmush tarzi va tarixi bayon qilingan. «Iliada» va «Odisseya» dostonlarini mil. avv. VIII asrda yashagan ko‘r baxshi Gomer yaratgan edi. Dostonlarda Troya urushlari hikoya qilinadi. Arxeologlar Gomer dostonlariga asoslanib qadimgi Troya madaniyatini topganlar.

Doston va afsonalar teatr uchun boy ma’lumot bergen. Qadimgi Yunon teatri mil. avv. VI asrlarda qishloq ho‘jaligi homiysi, xudo Dionis sharafiga o‘tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan qo‘shiqlar va o‘yinlar asosida vujudga kelgan. Yunonlar teatrni «katta yoshdagilar maktabi» deyishgan.

Teatr yunonchada «tomoshalar joyi» degan ma’noni anglatadi. Keyinchalik qurilgan Yunon teatrlariga 17–25 ming tomoshabin joylashgan.

Teatr san'atining rivoji mashhur yunon adiblari ijodi bilan uyg'un bo'lgan. Adiblar afsona va rivoyatlar asosida tragediyalar yaratganlar. Tragediya yunonchada «echkilar qo'shil'i» degan ma'noni anglatadi.

Mil. av. VI-IV asrlarda Esxil, Sofokl, Yevripid tragediyalari Aristofan komediyalarini teatrda tomoshabinlar maroq bilan ko'rishgan. Esxilni «tragediya otasi» deb ataganlar. Uning «Zanjirband Prometey», «Forslar» tragediyalari, Sofokolning «Shoh Edip», «Antigona» tragediyalari mashhur bo'lgan. Sofokol 120 dan ko'proq tragediya yozgan.

Aristofan «Tinchlik», «Suvoriyalar» degan komediyalarida urush voqealarini va o'sha davrdagi illatlarni tasvirlagan. Bu ijodkorlarni xalq hurmat qilib Afina teatriga haykallarini o'rnatganlar va «donishmandlik yo'boshchilari» deb ataganlar.

2. Diniy madaniyat (VI-XVI asrlar) davri tarix fanida o'rta asrlar deyilib, qadimgi va an'anaviy madaniyatlar o'rtasidagi davrni bildiradi. Bu davr madaniyatida mifologik tafakkur va an'analarning kuchli ta'siri hamda yangi davrning texnogen madaniyatidagi aqliy-mantiqiy tafakkur, ilmning amaliy xususiyatlari seziladi. Arab xalifaligi va Yevropa mamlakatlari o'rta asrlar madaniyatidagi xususiyatni islom va xristianlik belgilaydi.

Diniy madaniyat umuminsoniy madaniyat taraqqiyotining eng muhim davri hisoblanadi. O'rta asrlar davrida davlatchilik, millatlarning yangi shakllari vujudga kelishi yuz beradi, hozirda muomalada bo'lgan tillar shakllanib, ta'lim va fan tizimi yanada taraqqiy etadi. Fanning turlari va uslublari zamonaviylik kasb etib bordi.

A. Gumbold ta'kidlaganidek, arablar «tabiiy fanlar ijodkori» bo'lib, ular tajriba va mezon yo'liga asos soldilar. IX asrda musulmon Sharqida rasadxona qurildi; yulduzlarning aniq joyi belgilangan katalog tuzildi; geometriya, trigonometriya, optika, alximiya, mexaniqa, tibbiyot, jug'rofiya sohalari bo'yicha ko'plab asarlar yozildi. Ulug' alloma al-Xorazmiy matematikaning yangi tarmog'i bo'lgan algebraga asos soldi. Buyuk Sharq olimlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushdiy kabi ko'plab allomalar asarlaridan Yevropaning yangi avlod olimlari ta'lim oldi. Tabiatni ratsional anglash an'analarini o'zlashtirib va yanada takomillashtirib, XIII asrda R. Bekon induktiv mantiq usulini yaratadi hamda ilmiy idrokninig bosh usuli sifatida malaka va tajribani tasdiqlaydi.

VI–XVI asrlarda badiiy qadriyati yuksak yodgorliklar yaratildi: al-Hamrodag'i saroy, Qurdoba, Jazoir, Sammadra, Dehlidagi masjidlar, Reyms, Parijdagi gotik uslubidagi soborlar, Istambuldagi Avliyo Sofiya ibodatxonasi; ajoyib ikona va haykaltaroshlik asarlari, kalligrafiya va kitob miniaturasi, ayniqsa, Sharqda she'riyat yuksak darajada taraqqiy etadi.

Bu davrning muhim badiiy yutuqlari qatoriga aholining barcha qatlamlari e'tirof etgan madaniyat qadriyatlarini qo'yish mumkin. Xristian va islom dinlari boy va kambag'alni, kuchli va ojizni turli irqdagilarni va turli ijtimoiy guruahlarni bir-biridan ajratmaydi. Barcha e'tiqod qiluvchilar uchun umumiy axloq mezonlari: mo'minlik, tavba, yaxshi va rahm-shafqatli bo'lish, gunoh qilmaslik kabilar mavjud. O'rta asrlarda umum e'tirof etgan axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishi umuminsoniy xulq-atvor va axloq mezonlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'rta asrlar madaniyatining ko'p qirrali ekanligi yuqorida ta'kidlangan edi. Bu davr madaniyati ijodkorligi jarayonida ilk marta aholining barcha tabaqalari ishtirok etib, har bir qatlam o'zining madaniyatini yaratadi va o'z navbatida, an'anaviy madaniyat sifatida jamiyatning ma'lumotli, yuqori qatlamining madaniyatigina namoyon bo'ladi. Ruhoniylar inson ruhiyati, ritsarlar davlat ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar.

O'rta asr Sharqi madaniyatida tabaqaviy submadaniyatlar emas, ikki yirik madaniyat – shahar va ko'chmanchilar madaniyati ajralib turadi. Shahar sharoitida «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Lubna va Qays» singari dostonlar turli poetik shakl va janrdagi (qasida, masnaviy, g'azal, madhiya, ruboiy) adabiy asarlar, hikoya va ertaklar to'plamlari, («1001 kecha ertaklari», «Kalila va Dimna») latifa va rivoyatlar yaratildi. Miniatura bezagiga boy kitoblar, musiqa san'ati va raqsning xilma-xil janrlari xalq orasida keng tarqaldi.

Ko'chmanchilar orasida turli musiqa asboblarida kuyga solib aytildigan (baxshi va oqinlar tomonidan) xalq og'zaki ijodining yirik badiiy shakllari – epos, dostonlar yaratish ustuvorlik qildi. Shahar, ritsarlik, dunyoviy, monaxlik va so'fiylik kabi submadaniyatlarning paydo bo'lishi madaniyatni sezilarli boyitdi, yanada rivojlanishida ko'plab yo'naliishlar yaratdi hamda Renessans (Uyg'onish) deb atalgan yuksak taraqqiyotga zamin tug'dirdi.

Uyg‘onish davri tadqiqotchilar asarlarida turlicha baholanib, turlicha yondoshuvlarga sabab bo‘ldi. Xususan, Uyg‘onish yo‘nalishi umumjahon jarayoni sifatida Xitoyda VII–VIII asrlarda boshlanib, IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqni qamrab oldi, XIV–XVI asrlarda Yevropada takomiliga yetdi. Shuningdek, tadqiqotchilar Uyg‘onish davrining bosh maslakdoshi haqiqiy gumanizm bo‘lganligini bir ovozdan e’tirof qiladilar. Xitoyda «insonparvarlik» so‘zining sinonimi «jen», Sharqda «odamiyat» atamalari hisoblanadi.

Uyg‘onish davri madaniyati –diniy madaniyat taraqqiyoti va yangi texnika madaniyati rivojini bog‘lovchi ko‘prikdir.

3. Texnogen madaniyati shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy madaniyatni texnikaviy, texnika hukmdorligi, dunyoviy-elektron yoki axborot madaniyati deb ataydilar. Bunday munosabat hozirgi madaniyatda fan va texnikaning o‘rni muhimligini ko‘rsatadi. «Zamonaviy» yoki «Yangi» fan antik yoki o‘rta asrlardagi fandan tubdan farq qiladi. Agar ilgarilari fan dunyoni asl holida, unga daxl etmasdan o‘rgangan bo‘lsa, endi fan bilish, yaratish, ixtiro, loyiha tuzish kabi jarayonlarni mujassamlashtirib «inson idroki yordamida hal bo‘ladigan muammolarga e’tiborini jalb qilmoqda». Hozirgi fanning jo‘shqin qiyofasi mana shundan iborat. Haqiqatni anglashga urinish o‘rniga insonning qiziqish va ehtiyojlari mos keluvchi aniq imkoniyatlarni hisobga olish harakati ustun bo‘lmoqda.

Fan va madaniyatdagi yangi yo‘nalish shakllanishining boshlanishi **Uyg‘onish davri bilan bog‘liq. (XIV–XVI asrlar).** Uyg‘onish Yevropa madaniyati taraqqiyotidagi muhim davr bo‘lib, davriy jihatdan o‘rta asrlarga mansub. Biroq bu davr mutlaqo yangi madaniyat bosqichini ochdi. Shaharlar ko‘payishi, Yevropada ichki va tashqi savdoning vujudga kelishi, hunarmandchilikning rivojlanishi Yevropa madaniyatida yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Qisqa vaqt ichida o‘rta asrlar jamiyatida moddiy madaniyat va texnologiyalar o‘zgarib ko‘plab muhim ilmiy kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar diniy «dunyo qiyofasini» o‘zgartirdi, aqliy va iqtisodiy hududni kengaytirib jahon savdosining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Antik davr merosini o‘rganish yangi falsafiy yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga turtki bo‘lib, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida mutlaqo o‘zgacha andoza shakllandı.

Jamiyatdagi shaharliklar orqasida «gumanizm» deb nomlanuvchi yangi g‘oya shakllandi.

Bu nom inson haqidagi yangi dunyoviy fandan (studia humanitatis) kelib chiqqan bo‘lib, ilgarigi «ilohiyat haqidagi fan» (studio divinus)ni asta-sekin siqib chiqardi. Insonparvarlik g‘oyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) tabiat qonunlarini «tabiiy-muvofiq» tamoyili asosida tushuntirishga asoslanish;
- 2) insonni muammolar markazi qilib olish (antropotsentrizm) – insonga tabiatning toji sifatida qarash;
- 3) aqliy tafakkur (ratsionalizm) – inson idrok va zakovat orqali atrof muhitni, o‘zini o‘zi biladi deb hisoblash¹.

Insonparvarlik g‘oyalarining rivojlanishi dunyo va insonning diniy konsepsiysi buzilishiga va XVIII asrda inson shaxsining o‘zini qadrlash haqidagi ta’limot paydo bo‘lishiga olib keldi. Gumanistlar o‘z ta’limotining ishonch mezoni deb emprik-tajriba va ratsionallikni hisobladi. Bu xulosa ularni cherkovni Isloh qilish (M. Lyuter, J. Kalvin), utopik sotsializm (T. Mor, T. Kampanella) va ijtimoiy pragmatizm (N. Makkiavelli) kabi g‘oyalarni nazariy asoslashga olib keldi.

Uyg‘onish davri gumanistlari dunyo va inson paydo bo‘lishidagi ilohiy g‘oyalarni butunlay inkor qilmadi, balki olam doimiy va qat’iy qonunlarga muvofiq ravishda bunyodga kelishini tasdiqladilar. *Idrok insonga shuning uchun berilganki, idrok yordamida inson bu qonunlarni tushunib, o‘z jamiyatlarini tuzishda qo‘llashi yerda baxtning qaror topishiga garov bo‘lib, oxiratini ham obod qilishlari mumkin.* Inson tabiat qonunlariga mos ravishda rivojlanuvchi tabiatan aqlii mavjudot hisoblanib, nafaqat moddiy dunyo markazida turadi, u, shuningdek badiiy tushunish va tasvirlash obyektining asosi hamdir.

Antropotsentrizm, ratsionalizm, ssiyentizm – Uyg‘onish davri madaniyati yaratgan asosiy qadriyatlar keyingi asrlar Yevropa madaniyati asosini belgiladi. Uning keng rivojlanishi natijasida XVII asrda «ilmiy inqilob», XVIII asrda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining tarqalishi va sanoat inqilobi boshlanishiga, nihoyat, XIX–XX asrlar davomida madaniyatning mumtoz texnikaviy shaklidagi yutuqlarga olib keldi.

¹ Худойқулов Ҳ.Ж., Баратов Р.Ў. Маданиятшунослик. – Т., 2008. – 117-6.

Fanning shakllanishi va sekin-asta jamiyat hayotiga muhim asos bo‘lib kirishi yangi davr kishisining turmush tarzi, fikr yo‘sini, tafovutli qiyofasi sifatida ratsionalizmning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ratsionalizmning keng ko‘lamda namoyon bo‘lishi XVIII asrdagi ma’rifatparvarlik harakati bilan bog‘liq. Ma’rifatparvarlar barcha baxtsizlik va nohaqlikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga, faqat ma’rifatli xalq va uning hukmdori «Ozodlik, Tenglik, Qardoshlikni» o‘rnatishiga ishonganlar. **Ma’rifatparvarlar vakili D. Didro va D. Allamberning «Fan, san’at va hunarmandchilik ensiklopediyasi»ni nashr qilishi katta madaniyat yutug‘i bo‘ldi.** «Ensiklopediya» nafaqat insoniyatning muhim ilmiy yutuqlarini tartibga soldi, balki yangi madaniy qadriyatlar tizimini ham tasdiqladi.

Ma’rifatparvarlarning ratsionalistik yo‘nalishi XVIII asrdagi ishlab chiqarishni tashkil qilish, davlatning ichki va tashqi siyosati, huquq institutlari va siyosiy partiyalarning shakllanishi, san’at taraqqiyotida ko‘plab tamoyillarni belgilab berdi. Ma’rifatparvarlar Buyuk Fransuz inqilobining ideologlari hisoblanib, Uyg‘onish davri gumanistlari boshlab bergen madaniy qadriyatlarni ulug‘lash jarayonini nihoyasiga yetkazdi. XVIII asrda ilmiy bilim jamiyat ongini butunlay yangi sifat darajasigi ko‘tardi. **Fan insonning ma’naviy hayotiga, chuqur kirib borib, uning madaniyatiga mazmun bag‘ishladi.** Kishilarning tabaqaviy, milliy-irqiy yoki boshqa farqlaridan qat‘i nazar, barcha uchun bir xil mohiyat kasb etdi.

Yevropa va Shimoliy Amerikaning ko‘plab mamlakatlarida XIX asrning o‘rtalarida industrlashtirish yoki sanoat burilishi nihoyasiga yetdi. **Ratsionalizm va utilitarizm** (manfaatparastlik)ning madaniyatdagi belgilovchilik o‘rni fan va texnika taraqqiyotiga yangi turtki berdi. Oddiy to‘quv dastgohi «Jenni»dan J. Uattning bug‘ mashinasi (1784 yil) va R. Fultonning bug‘ kemasi, Stefensonning parovozidan (1814 yil) birinchi yer osti temir yo‘liga (1863 yil) o‘tilishi injenerlik fikrining o‘sishini ko‘rsatdi. **Bug‘ va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya, geologiya, biologiya, ximiya sohalarida ajoyib kashfiyotlar bo‘lgan vaqt insoniyat madaniyatini yangi bosqichga ko‘tardi.** P. Sorokinning xulosasi bilan aytganda, «faqat birgina XIX asrdagi kashfiyot va yangiliklarning o‘zi oldingi asrlardagi kashfiyotlarning hammasini jamlagandan ham ko‘pdir». ¹ Xususan, bu asrdagi 8527 ta kashfiyot makon, zamon va materiya ustidan texnika

¹ Худойқулов Х.Ж., Р.Ў. Баратов. Маданиятшунослик. – Т., 2008. – 119-6.

hukmronligining cheksiz o'sganligidan dalolatdir. Ispan faylasufi X. Ortegi-i Gassetning ta'kidlashicha: «biz haqiqatan ham XIX asrda ro'y bergan inson taqdiridagi radikal o'zgarishlar oldida turibmiz. Zamonaviy inson uchun ham jismonan, ham ijtimoiy jihatdan mutlaqo yangi manzara, yangi faoliyat yaratildi. *Bu yangi dunyoning qiyofasini uchta muhim jihat belgilaydi. Bu demokratiya, eksperimental fan va industrlashtirishdir. Ikkinchi va uchinchi jihatlarni «texnika» nomi bilan umumlashtirish mumkin*»¹.

XIX asrda texnika taraqqiyoti g'ayriqonuniy ravishda madaniyatning butun rivojini bir xil qolipda o'lhashi jamiyat fikrida iqtisodiy omillarning ahamiyati oshuviga olib keldi. Bu esa olamni texnik o'zlashtirish suratining sezilarli o'sishiga sabab bo'ldi. Oqibatda taraqqiyotning butunlay va shubhasiz o'sishi jarayonida sivilizatsiya butunlay halok bo'lishi mumkin (Y. Xeyzinga). Bu muammolar XX asrda yaqqol ko'zga tashlandi.

XX asrda texnika surati haddan tashqari o'sdi. Keyingi yuz yilda yer yuzida sanoat ishlab chiqarishi 50 martadan oshdi, bu o'sishning 4/5 qismi 1950 yildan keyingi davrga to'g'ri keldi. Haqlı ravishda *XX asr insoniyat tarixiga ilmiy-texnika inqilobi asri bo'lib kirdi*. Insonlarning hozirgi vaqtdagi ta'sir kuchini tabiatning eng beshafqat kuchlari bilan teng qo'yish mumkin. Shuning uchun ham XX asrda texnika muammosi va uning madaniyatdagи o'rniga olimlar o'z e'tiborlarini alohida qaratdilar.

Texnika so'zining o'zi mahorat, san'atni anglatib, ishlab chiqarishga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan faoliyatni amalga oshirish uchun kishilar yaratgan vositalar yig'indisi uni belgilaydi yoki anglatadi. Insonlar jamiyatni paydo bo'lishi bilan amalda texnika paydo bo'ldi, dastlab kishining mehnat faoliyatida yordam beruvchi mehnat quroli sifatida, keyin har xil maqsadlarda ishlatiladigan texnikaning boshqa turlari vujudga keldi. **Texnikaning xususiyatlari shundaki:**

1) texnika sun'iy ravishda, kishilar tomonidan tabiatni o'zgartirish natijasida yaratilib, oqibatda oldindan yaralgan ideal andozalar moddiylikda mujassamlanadi;

2) texnikaning ommaviy xususiyati – u, avvalo, kishilarning amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, shu ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi;

¹ O'sha manba.

3) texnikaning muhim parametrlaridan biri ratsionallik hisoblanadi, muayyan jamiyat doirasida u yoki bu texnika qurilmasini imkon qadar tezroq ishlab chiqarishga mo’ljallanadi.

Texnika madaniyatning favqulodda hodisasi sifatida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatni ta’minlaydi, u ijtimoiy madaniyat jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Texnika taraqqiyoti insonning tabiat ustidan hukumronlik qilishida uning imkoniyatlarini kengaytirdi, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarni muqarrar amalga oshiradi. Madaniyatda texnikaning o‘rni xususida turlicha qarashlar mavjud.

Texnodeatamasistik konsepsiya texnikaning har doim insonga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ishonchli asoslaydi. Ilmiy taraqqiyot va texnika yutuqlari insonga ko‘plab sirlarni olib, uni ulkan miqdorda moddiy boylik bilan ta’minlaydi. *Ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq barcha muammo va qarama-qarshiliklar, ya’ni texnik vositalarning biosferani halokatga yaqinlashtiruvchi ta’siri axborot aloqa davri deb ataluvchi insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichida ijobiy bartaraf qilinishini ta’kidlaydilar.* Texnikani optimistik baholashda texnokratik nazariya katta ahamiyatga ega. Texnokratiya jamiyatdagi shunday kuchki, u jamiyatning texnik-texnologiya taraqqiyoti istiqboli xususidagi ilmiy bashoratida nufuzli ilmiy xulosalarga tayanadi.

Biosferik tamoyilning asoschilari V. I. Vernadskiy, K. E. Sialkovskiy, A. L. Chijevskiy bo‘lib, bu nazariya D. J. Forrestr, D. Medouz, M. V. Mesarovich, E. Pestele, A. Pechchen kabi Rim klubı olimlarining asarlarida takomillashtirildi. Biosferik tamoyil Yerning evolutsiyasini umumiyligi geologik, biogenik, ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida qaraydi, sayyoraning koevolutsiya asosida tabiiy va sun’iy hamkorlikda rivojlanishi zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun omma ongida «Hayotga etikaning tan berishi»ni singdirish lozim (A. Shveyser), bunga O. Leopold tomonidan ishlab chiqilgan «aksiologik uchlik» tushunchasi asos bo‘lishi mumkin; ya’ni, insonning artof-muhit bilan o‘zaro munosabatini quyidagi qadriyat mezonlari belgilashi lozim: butunlik, barqarorlik va go‘zal olam.

Madaniyatdagi biosferik konsepsiya tarafidolari insoniyat tarixida o‘zlarining madaniyat tasnifini tuzdilar. Unda ta’kidlanishicha, insoniyatning ilk bosqichlarida madaniyatning turli xil biogenik ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan, keyinchalik sun’iy ravishda «tabiat ustidan hukumronlik qilish» shioriga tayangan holda, **texnogenik madaniyat**

yaratildi. Zamonaviy odamlar yerdagi ekologik qonunlarga asoslanib, turmushi taqozo qiluvchi *noogenik madaniyatga* o'tadi.

Tabiiy va sotsial, tabiiy va sun'iy jarayonlarning o'zaro ta'sir aloqadorligining optimallashuvini **ekologik madaniyatning** boshlanishi» deb hisoblash mumkin. Bu insoniyat tomonidan tabiiy va sun'iy ikki tizimning teng huquqligini tan olish demakdir. Ayniqsa, bu qishloq xo'jalik sohasi uchun o'ta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon qishloq xo'jaligi uchun mahsuldarlik va tovar ishlab chiqarish hajmi asosiy strategik maqsad emas, gap ekologiya qonuniyatlariga muvofiq tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni asrashdan iborat. Sanoat ishlab chiqarish uchun ekologik qonunlar tabiat resurslariga tejamkorlik asosida yondoshish imkoniyatini beruvchi texnika va texnologiyani yaratishdangina iborat bo'lmay, ayni paytda, insonning mavjudligi va yashash muhiti – biosferani asrash, qayta tiklashdan iboratdir.

XX asr o'rtalaridan fan va texnika taraqqiyoti kuchli axborotlar yig'imini paydo qildi. Ommaviy axborot vositalari (OAV) – matbuot, kino, radio, televide niye, kompyuter aloqasi zamonaviy **sotsmadaniyat** jarayonida salmoqli o'rinni egallay boshladи. OAV yoki buning boshqacha mass media deb nom olgan turi axborot uzatishdagi kanallarning ko'pligi, tezligi va uzoq ishlashi bilan ulkan hajmdagi axborotlarga ega bo'lmoqda.

1940–50 yillarda G. M. Makmoen asarlarida ommaviy kommunikatsiya birinchi marta madaniyatning yangi tipi va kishilarning ijtimoiy munosabatidagi mutlaqo yangi tip sifatida ta'riflandi. Uning fikricha, bu vosita insonlarning axborot olishdagi raqobat kurashida qudratli kuchga aylanadi.

OAV elektron texnika va yo'ldosh aloqalardan foydalanib, kishilarni ijtimoiy hodisalar va madaniy boyliklarni bir vaqtida idrok qilishga undaydi. **G. E. Makmoen** ta'kidlaganidek, «*hammabop va omma yoqtiradigan yangi dunyoviy elektron madaniyat*» shakllanmoqda.

Haqiqatan ham zamonaviy madaniyatning xolisona tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ma'naviy madaniyat ko'proq ommaviylik kasb etib bormoqda. **Ommaviy madaniyatning** qiyofasi quyidagicha:

a) u millati, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga bog'liq bo'lмаган оmmaviy iste'molchilarga ega bo'ladi;

b) bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonning o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko'rinishini o'zida namoyon qiladi, ya'ni unda yuz minglab kishilar band bo'lib, ularning «matbuot qiroli», «Buyuk shou tomoshachilari», «kino, TV, estrada yulduzлari» bo'ladi.

Ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik ehtiyoji bilan bog'liq. Buning asosida iste'mol, talab, tovar sifatida haridorgir bo'lish ma'naviy ehtiyoji yotadi. Oqibatda hozirgi zamon madaniyatidagi ma'naviy qadriyatlar tor doiradagi ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylanadi. «**Omaviy madaniyat**» muammolariga ham alohida e'tibor berishimiz lozim. Ayrim kishilarda yallo qilib yashash, zo'ravonlik, harom-xarishlik ruhi hukumrondir. Ba'zan odobsizlik, behayolik, ko'ngilni aynitar darajadagi namoyishlardan odamlarning fig'oni oshmoqda. Ular asriy an'analarimiz, diyonat, vijdon, odob borasidagi xalq udumlari oyoq osti qilinayotganini aytib, bizni muhofaza eting, demoqdalar. Biz bu bilan hisoblashmog'imiz kerak¹» Madaniyatning chuqur ma'no-mohiyati, xotira cheksizligi «odatiy», «umumiy» qimmatlar bilan, haqiqiy ijod avvaldan ma'lum, mavjud namuna asosidagi «asarlar» yaratish va ishlab chiqarish (kinoseriallar, sayoz TV va adabiy asarlar) bilan almashinadi. Shaxs o'zining ijodiy qobiliyati, milliyatidan ayrilib, tayyor «madaniy mahsulotlar» iste'molchisiga aylanib qoladi.

Prezidentimiz I. A. Karimov Konstitutsiyamizning 18 yilligiga bag'ishlangan tantanada ta'kidlaganidek, «dastur doirasida yoshlarda «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi xurujlar, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, xalqimizga yot bo'lgan g'oya va qadriyatlarning chetdan «eksport» qilinishiga qarshi qat'iy pozitsiyani shakllantirish bo'yicha axborot va pedagogik texnologiyalarning zamonaviy, yangi shakllari joriy qilindi. Tabiiyki, bu borada «ommaviy madaniyat»ning saviyasi past, yengil-yelpi namunalariga qarshi haqiqiy san'at asarlarining yuksak durdonalarini keng targ'ib va tashviq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda»¹.

«Buyuk ipak yo'li» nafaqat tarix, u bugungi kun hamdir. 1993 yilning mayida Yevropa komissiyasi Bryusselda Markaziy Osiyo, Kavkaz hamda Yevropa ittifoqi davlatlari vakillarini to'pladi. Maqsad – ajdoddlardan qolgan qadim yo'llarni tiklash orqali Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi mustaqil davlatlarni jahon iqtisodiyotiga

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2012. – 222-б.

¹ Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш –тараққиётимизнинг муҳим омилидир: Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишлиган тантанали маросимдаги маърузаси //Халқ сўзи. – 2010. – 8 дек.

integratsiyasini ta’lim etish. Uchrashuvda Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport yo‘lagini tashkil etish to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilindi. **I. A. Karimov** ta’kidlaganlaridek, TRASEK (transport yo‘lagi) loyihasini amalga oshirish – Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklash ayrim shaxslar faoliyatining mahsuli emas, u zamon, jahon taraqqiyotining obyektiv zaruriyatidir. YUNESKOning amaliy qadamlaridan biri – «Ipak yo‘li – muloqot yo‘li dasturi asosida *Samarqandda Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixini* o‘rganishga qaratilgan xalqaro Markaziy Osiyo tadqiqotlari institutining tashkil etilishi bo‘ldi.

Mustaqil davlatimizning milliy madaniyatni tiklash, rivojlantirish va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitish yo‘lidagi yutuqlari tufayli **1997 yili O‘zbekiston YUNESKO Ijroiyligining a’zoligiga qabul qilindi**. Prezidentimiz I. A. Karimov «Ibn Sino» medali bilan taqdirlandi. Yurtimizda jisman va ma’nana sog‘lom avlodni tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish yoshlarda tarixiy ong va mustaqil tafakkurni shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2000 yil O‘zbekistonda «Sog‘lom avlod yili» deb belgilandi. Buning mohiyati shundaki, kechayotgan islohotlarning mohiyati insonga qaratilgan va u inson uchun amalga oshirilmoqda. Binobarin, sog‘lom avlod – millat, yurt kelajagi demak. Yurtimizning birinchi ordeni ham «Sog‘lom avlod uchun» deb nomlangani bejiz emas. Bu buyuk kelajak yo‘lidagi umidli qadam timsolidir.

Xulosa

Shunday qilib, jahon madaniyatining vujudga kelishi, uning taraqqiyot bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, eng avvalo, bugungi kunda mustaqil davlatimizning milliy madaniyatini tiklash, rivojlantirish va insoniy qadriyatlar asosida boyitish yo‘lida har bir ichki ishlar organlari xodimlari o‘tmishdagi boy madaniy tariximizni, shuningdek Sharq va G‘arb mamlakatlarining o‘zaro aloqalarini hamda ularning bir-biriga ta’sirini, jahonni hayratga solgan ajdodlar merosini mukammal bilishlari, unga munosib voris bo‘lishlari lozim.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi G‘arba nisbatan ertaroq boshlandi. Yunonlar madaniyati Qadimgi Sharq madaniyati ta’sirida juda yuksaldi. Bu ta’sirlar natijasida shunday davr boshlandiki, Sharq va G‘arb madaniyatları sintezi ellistik madaniyatni vujudga keltirdi: Yunon-Baqtriya va Gandhar san’ati, Iskandariya fani, Fayum portretlari buning yaqqol misolidir. Qadimgi Sharq bizga barhayot boyliklarni qoldirdi. Bular «Gilgamesh» va

«Mohabhorat» dostonlari, Kalidasi drammalari va Chjuanszining ramziy masallari, Misr ehromlari va Buyuk Xitoy devori va boshq.

Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatlarini Yevropa sivilizasiyasining poydevoriga asos soldi. Qadimgi Sharq madaniyatini ta'sirida shakllangan bu madaniyat an'anaviy madaniyat taraqqiyoti davrining davomchisi va yakunlovchisi bo'ldi. Qadimgi Yunonistonda shakllanib, keyinchalik yuksak bosqichga ko'tarilgan bu madaniyat Rim madaniyatini vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi va «Antik madaniyat» nomi bilan dunyo madaniyatini tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Xususan, yoshlar uchun ommaviy madaniyatning xatarli oqibatlarini **Prezidentimiz** bir necha bor qayd etgan edilar. Jumladan, «Fidokor» gazetasi muhbirining savollariga javoblarida: «Dunyoda bir qarashda beozor, siyosatdan xoli bo'lib tuyulgan shunday mafkuraviy ta'sir vositalari ham borki, ularga ko'pda yetarlicha e'tibor beravermaymiz», deb keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan jangari filmlar, yalang'och asarlar yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini, ular insonni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo etishga qaratilganligini ta'kidlab,... har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, **mafkuraviy immunitetni** kuchaytirishimiz zarur», deb ko'rsatadi.

Bugungi kunda yoshlarni millat va istiqlol manfaatlariga zid g'oyalar, qarashlar ta'siriga tushib qolmasliklarining oldini olish ichki ishlar organlari xodimlari oldiga qo'yilayotgan asosiy va eng muhim vazifalardan biri ekanligini talab etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Qadimgi Sharq madaniyatining shakllanishida quyida ko'rsatilgan tafakkurning qaysi biri asosiy rol o'ynagan?*
2. *Jahon madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan eng muhim daryolar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?*
3. *Quyidagi qaysi sivilizatsiyalar eng ko'hna va yirik madaniyatlar edi?*
4. *Qadimgi Sharq madaniyatining shakllanishida quyidagilarning qaysi biriga asoslanish ustun turgan?*
5. *Hozirgi qadar Mesopatamiyada tuzilgan vaqt va burchak o'lchovida qanday tizimdan foydalananamiz?*
6. *Mil. avv. VII asrda Xitoyda ixtiro qilingan asboblarning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?*

7. *Gomer, Geraklit va Platonlar asosan qaysi mamlakatda faoliyat olib borishgan?*
8. «*Hamma narsa eng mayda zarrachalar, atomlardan tashkil topgan*», degan fikrni quyidagi olimlardan qaysi biri ilgari surgan?
9. *Afinalik faylasuflardan qaysi biri bironta ham kitob yozmagan ?*
10. *O'rta asr Yevropasi – bu....?*
11. *Qanday madaniyat umuminsoniy madaniyat taraqqiyotining eng muhim davri hisoblanadi?*
12. «*Ikki haqiqat g'oyasini – falsafa olam haqida o'z haqiqatini, din Xudo haqida o'z haqiqatini beradi, deb*» asoslagan olim kim ?
13. *Qaysi davrdan boshlab savdogar va hunarmandlar bolalari uchun dastlab dunyoviy maktablar, keyin esa universitetlar paydo bo'lgan?*
14. *Utilitarizm – bu...?*
15. *Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri (Renessans) qaysi davrlarni qamrab oladi?*

5-MAVZU. MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MADANIYATI VA UNING JAHON MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI

- ∞ *Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari*
- ∞ *Jahon madaniyatining rivojlanishida Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro aloqadorligi*
- ∞ *XV–XX asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati*

1. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari

Madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Madaniyat insonning kelib chiqishi bilan uzviy bog'liqdir.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati juda qadimiy bo'lib, uning tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Xalqimiz madaniyati jahon madaniyati bilan yonma-yon yuzaga keldi va rivojlandi. Bironta xalq madaniyati o'z mamlakati doirasidagina, tor darajada turib rivojana olmaydi. Aksincha, boshqa xalqlar madaniyati bilan o'zaro aloqada rivojlanadi. O'zbek xalqi madaniyati ham faqat milliy asosda emas, balki umuminsoniy madaniyatlar ta'sirida rivojlanadi¹.

O'zbek xalqi Markaziy Osiyo xalqlari bilan bir ajdodga, umumiyligi tariixa, umumiyligi madaniyatga, umumiyligi ma'naviyat, urf-odat va san'atga ega bo'lган. Ushbu elatlar yashagan hududlar turli davrlarda turli nom bilan atalgan: So'g'd, Baqtriya, Turon, Turkiston. Bu davlatlar tarixi hozirda Markaziy Osiyo madaniyati sivilizatsiyasi deb o'rjaniladi.

O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston egallagan Markaziy Osiyo hududida er. av. davrlardan boshlab elatlararo madaniyatning almashinushi, quda-andachilik, hududlararo ko'chishlar, savdo-sotiq jarayonlari, urf-odat va rasm-rusumlar, umuman yirik tarixiy hodisalar bo'lib turgan. Ayniqsa, Eron va Turk xalqlarining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi badiiy madaniyatning yangicha «tovlanishiga» sabab bo'ldi. Shuni aytish kerakki, O'zbekiston

¹ Туленов Ж., Гофурев З. Фалсафа. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 272-6.

madaniyati tarixini o‘rganishda albatta Markaziy Osiyo madaniyati tarixiga ham murojaat qilish lozimdir. Qadim davrdan boshlab to yaqin tarixgacha Markaziy Osiyo hududi davlatlari bilan birgalikda Afg‘oniston, Sharqiy Eron, Sharqiy Turkiston yagona iqtisod, siyosat, madaniyat va ma’naviyatga ega edilar. Bu esa, o‘z navbatida, Markaziy Osiyo xalqlari – o‘zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoqlarning bir-biri bilan yaqin aloqada bo‘lishlariga olib keldi. Shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari bir-biri bilan nafaqat so‘zlashuv tillari yaqinligi, yashash tarzi, g‘oyaviy, mafkuraviy qarashlari bilan birlashibgina qolmay, balki geografik o‘rni, tabiiy sharoitlarining yagonaligini bilan ham uzviy zanjirda bog‘landilar.

Markaziy Osiyo hududi hamisha ulkan imperiyalar diqqatini o‘ziga tortgan va natijada geosiyosiy markazlardan biriga aylanib qolgan. Markaziy Osiyoning geografik jihatdan bir nechta imperiyalar markazida joylashganligi uning nafaqat moddiy va ma’naviy qadriyatlar, diniy g‘oyalar va oqimlar qarashlarini bir imperiyadan ikkinchisiga, bir sivilizatsiyadan uchinchisiga o‘tkazib beruvchi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishiga olib keldi, balki yangi madaniyat turlarini shakllantirib, rivojlantiruvchi markazga aylanishiga ham sabab bo‘ldi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval, uning geografik o‘rni va tabiiy vositalariga e’tiborni qaratish lozim. Bu yerlarning iqlim sharoiti juda erta dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish, katta-katta yerlarga suv chiqarish ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Bu ishlarni esa faqatgina ko‘pchilikning kuchi bilan amalga oshirish mumkin. Natijada bu yerlarda, odamlar yashaydigan katta manzillar yuzaga kela boshladi. Er. av. III – II ming yilliklarning boshlarida 10.000 va undan ortiq odamlar yashaydigan manzillar – shaharlar yuzaga kela boshladi.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, bu hududlarda dehqonchilik va chorvadorlik bundan 5–6 ming yil avval vujudga kelgan bo‘lib, o‘troq shahar madaniyati esa 4 ming yil burun paydo bo‘lgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, o‘zbeklarning madaniyati, tarixiy ildizlari, ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, diniy, badiiy qarashlari shakllana va rivojlana borishining ilk davrlari qadim-qadim zamonalarga borib taqaladi. Avlodu ajdodlarimizning hayoti, urf-odatlari va an’analari, madaniyati, tili va tarixini badiiy-falsafiy jihatdan o‘ziga xos tarzda aks ettiradigan og‘zaki ijodiyoti nihoyatda boy va xilma-xildir.

Vaqt o‘tishi bilan insonlar sekin-astalik bilan tabiat hayotiga aralasha boshladilar. Ko‘pgina tabiiy hodisalarining sababini aniqlashga: meva va o‘simliklarni farqlash, qaysi biri iste’molga yaroqli, qaysi biri yaroqsizligini aniqlash – botaniqa fanini; hayvonlar fe’l-atvorini aniqlash – zoologiya fanini; hududlar kengligini, qaysi taraf issiq, qaysi taraf sovuqligini aniqlash – geografiya fanini; keyinchalik kasalliklarni davolash, o‘limning oldini olishga intilish – tabobat kabi fanlarni kashf qilishga erishdilar.

(Shuni unutmaslik lozimki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jarayon-larning barchasini aniqlashda boshlang‘ich davrda odamga aynan ehtiyoj sabab bo‘lgan. Odamning eng birinchi ehtiyoji – bu qorin to‘ydirishdir. Aynan qorin to‘ydirish maqsadida, odam barcha fan turlarini, mehnat qurollarini, san’at namunalarini, masalan, kiyik kabi raqs tushish, qushlar kabi sayrash va boshq. yaratgan. Aynan ehtiyoj sabab bo‘lib, kishilar kasalliklarni davolash, sehrgarlik va tabobatni shakllantirganlar va rivojlantirganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodiyotining eng qadimgi tur va janrlaridan biri asotir – mifdir. Yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o‘rtasidagi kurash va bu kurashda ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishi haqidagi g‘oya dunyoning boshqa xalqlarinikida bo‘lganidek, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan miflar uchun ham xosdir. Qayd etilishicha, yaxshilik olamiga Axuramazda, yomonlik olamiga esa Axriman boshchilik qiladi. Ezgulik miflarida Mitra kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxsh etadigan, dushmanlarga dahsat soladigan, kishilarni ofatdan qutqaradigan Quyosh xudosi sifatida, Anaxita esa yer, suv va unum ma’budasi, qahramonlarga kuch-quvvat va muvaffaqiyat baxsh etuvchi tarzda tasvirlanadi. Sharq xalqlaridagi yovuzlik, zulmat kuchlari miflarda ko‘pincha dev, ajdar, jinlar qiyofasida tasvirlanadi. Bular ofat va zulmat, qabohat va razolat, o‘lim va kulfat, baxtsizlik, ochlik va qahatchilik timsolidir.

Markaziy Osiyoda yashagan avlod-ajdodlarimizning falsafiy fikrlari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishimizda «Avesto», «Behistun», «Bundaxishn», «Denkard» singari yozma yodgorliklar muhim tarixiy hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Er. Av. VI–IV asrlarda Markaziy Osiyoning kattagina qismi, yangi Baqtriya va So‘g‘d – eron Ahamoniylari imperiyasi tarkibiga kirdi. Shu davr mobaynida Markaziy Osiyo xalqlari Ahamoniylar davlatiga kirgan xalqlar bilan yaqin munosabatda bo‘ldi, ulardan ta’sirlandi. Shuningdek,

ularga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu imperiya tarkibiga kirish yagona boshqaruv, qonunchilik, pul tizimining o‘rnatalishi, oromiy yozuvning umumdavlat miqyosida qo‘llanilishi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ahamoniylar davrida xalqaro savdo, shaharlar rivojlandi. Markaziy Osiyoga sayyoh va olimlar ko‘plab tashrif buyurishdi. Er. Av VI–IV asr Markaziy Osiyo me’morligi haqida Ko‘zali qir, Kallali qir (O‘zbekiston), Erka qal’a (Turkmaniston) me’morlik majmuasi qoldiqlari taassurot beradi. So‘zsiz, bu me’morlik komplekslari avvalgi davr an’analarini davom ettirish asosida yuzaga kelgan. Ular qalin devor bilan o‘rab chiqilgan, darvoza va minoralar mavjud bo‘lgan. Ularning markazida sun’iy tepalik bo‘lib, unda saroy yoki ibodatxona joylashgan.

Er. av. VI–IV asrlarda Markaziy Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan «Amudaryo boyligi» («Oks boyligi») muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko‘za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan aravacha va qurollar diqqatga sazovordir. Bu topilmalarning ayrimlari markaziy Eronda, boshqa birlari esa Markaziy Osiyoning shimoliy yeridagi xalq va elatlar tomonidan ishlanganligi yoki ularning kuchli ta’siri borligini aytish mumkin. Jumladan, skiflar san’ati an’analarini yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu yodgorliklar ichida grek ustalari ishlagan uzuk-muhr hamda haykallarning mavjudligi ham Markaziy Osiyo badiiy hayoti va intilishining kengligidan dalolat beradi. Demak, Markaziy Osiyo so‘zsiz o‘z atrofidagi mamlakatlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan va shu davrda nafis buyumlarga intilish kuchli bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo yerlarida topilgan sopol buyumlar maxsus kulolchilik dastgohlarida ishlanib, maxsus pechlarda pishirilgan. Ular shu asrlarda kulolchilik hunarmandchiligi ancha yuksak bo‘lganligini bildiradi. Bular ichida geometrik naqshlar solib bezatilgan idishlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy er. av. IV asrlarda Ahamoniylar davlatini tor-mor etib, Markaziy Osiyo yerlarining ko‘pgina qismini o‘ziga qaratib oldi. Aleksandr Makedonskiy bosib olgan yerlaridagi barcha xalqlarni birlashtirishga harakat qildi. Shu maqsaddan kelib chiqib, u o‘z atrofiga greklar bilan birga mahalliy sharq zodagonlarini, boylarini ham jalb eta boshladi. Aralash nikohlarni ma’qulladi, o‘zi ham shunga amal qilib, Baqtriya malikasi Roksana (Rakshona)ga uylandi. Savdo-sotiq ishlari rivojlandi, shahar qurilishiga

e'tibor berdi. Baqtriya, So'g'd va Parfiyada qator shaharlar barpo etdi. San'at rivojiga homiylik qildi. O'z armiyasiga baqtriyalik va sug'dlik qismlarni kiritdi. 30 mingdan ortiq o'g'il bolalarga yunoncha tarbiya berishga hukm etdi.

Markaziy Osiyoning islomgacha bo'lган madaniyati haqida Samarqand yaqinida topilgan Afrosiyob (VI–VIII asrlar) madaniy yodgorligi ko'pgina ma'lumot bera oladi. Saroy qoldiqlarining devorlariga ishlangan tematik suratlar va naqsh ko'rinishlari o'rta asr boshlaridayoq Markaziy Osiyoda yuksak madaniyat mavjud bo'lganligiga yorqin misol bo'la oladi.

2. Jahon madaniyati rivojlanishida Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro aloqadorligi

Sharq Uyg'onishi, Sharq Renessansi haqida gap ketganda, turli soha olimlari – tarixchilar, adabiyotshunoslar, madaniyatshunoslar va san'atshunoslar bu masalaga befarq bo'lмаганларидек, qarashlar ham asosan ikkiga bo'linadi. «Uyg'onish» atamasi (italyancha-fransuzcha – Renaissans – Uyg'onish)ni dastavval shu madaniyat sohiblari – italyan gumanistlari ishlatganlar. Jumladan, italiyalik yozuvchi J. Bakachcho bu atamani Djotto ijodiga qarata, «u antik san'atni uyg'otdi» deb birinchi bor ishlatgan edi. Butun bir davrni anglatuvchi tushuncha sifatida esa, «uyg'onish» atamalarini san'at tarixchisi J. Vazari (1511-1574 y.)ning «Mashhur san'atkorlar hayotidan lavhalar» kitobida (1550) tilga olgan. Bu tushuncha, dastavval, Italiyada antik madaniyat an'analarining «ming yillik yovvoyilikdan so'ng» tiklanishini anglatib, so'ngroq ilmiy tadqiqotlarda keng ishlatila boshlandi. YA. Burhart Uyg'onish (Renessans)ni alohida tipdagи madaniyat deb baholadi. Y. Xeyzing o'zining «o'rta asr chilikning kuz fasli» asarida Uyg'onish davri – o'rta asr madaniyatining intiho davri deb boshqa olimlar Uyg'onish davri yangi davr madaniyatining boshlanishi deb hisoblaydilar. Ko'pchilik olimlar Yevropa Uyg'onishni mumtoz tarzda davrlashtirib, u XIV–XVI asrlarga xos deb bilsalar, boshqalar Uyg'onish madaniyatini birmuncha ilgariroq XII asr – Karolinglar Renessansidan boshlab, Ispaniya, Italiya shimolidagi mamlakatlardagi Uyg'onish (Shimoliy Uyg'onish)ni XVII asr bilan yakunlaydilar¹.

¹ Musaev N.U. Azimov H.I. Madaniyatshunoslik. – T., 2010. – 150-6.

O‘zbekistonda Sharq Uyg‘onish davri masalasi mahalliy material-larni umumlashtirgan holda yetarli ishlanmagan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi Uyg‘onish (IX–XII asrlar) haqida gap borganda, avvalo, xorijiy madaniyat va qaror topgan islomiy e’tiqodga nisbatan rivojlangan va boyigan qadimiy madaniyat negizidagi milliy Uyg‘onish deb qaralmog‘i lozim. Markaziy Osiy uzoq yillik tarixida ko‘p bosqin va talonchiliklarni ko‘rdi, ularga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurash olib bordi. Haqiqat shundaki, har bir bosqindan so‘ng milliy davlatchilik va madaniyat tiklandi. Mustaqillikka intilish g‘oyasi va harakati o‘zga xalqlar tomonidan yaratilgan madaniyatlarning inkori emas. Markaziy Osiyo madaniyatida umuminsoniy ahamiyatga molik jamiki madaniyat yutuqlari ijodiy uyg‘unlashganidek, ayni paytda, mintqa madaniyati boshqa xalqlar madaniyatlariga samarali ta’sir ko‘rsatdi va ularni boyitdi.

Markaziy Osiyodagi xalqlar milliy-madaniy Uyg‘onishini uch davrga bo‘lish mumkin:

1. IX–XII asrlar – arab bosqinidan keyingi davr.
2. XIV–XV asrlar – mo‘g‘ul istilosidan keyingi davr.
3. XX asr boshi va hozirgi davr kolonial bosqin va Sovet davridan keyingi siyosiy, milliy, madaniy Uyg‘onish.

Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davri madaniyatining belgilari quyidagicha:

- ∞ dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;
- ∞ turli xalqlarning ma’naviy-madaniy merosi, o‘tmish madaniy qadriyatlari (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari)dan foydalanish;
- ∞ tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o‘rganishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;
- ∞ bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;
- ∞ insonga muhabbat, uning axloqiy, aqliy hislatlarini, qobiliyatlarini o‘rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e’tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk, fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;
- ∞ diniy tasavvur, diniy ta’limotlar rivojida diniy-axloqiy mavzuning ustunligi, inson xulqi, manfaatlarining diniy g‘oyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma’naviy kamolot, Ollohga subyektiv ichki

mukammallahuv, ma'naviy-ruhiy ko'tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muyassar bo'lishga qaratilgan faoliyat;

∞ og'zaki va yozma so'zga katta e'tibor, uning ijtimoiy-axloqiy qudratini kuylash, ta'riflash, she'riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so'z san'ati, ritorika bilan shug'ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib qolishi¹.

Uyg'onish davrida milliy madaniyatni yuksaltirishga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan Somoniylar shajarasining birinchi hukmdorlari milliy-madaniy qadriyatlarni barqaror etmasdan turib, to'la davlat mustaqilligiga erishish mumkin emasligini angladilar.

Kitob yozishning kuchayishi xattotlik san'atining, uni bezash, naqshlar bilan ko'rkan qilish musavvirlik san'atining rivoj topishiga olib kelgan.

Umuman, bu davrda qo'lyozmalarni ko'chirish, tayyorlash, to'plash madaniy hayotning muhim sohasiga aylangan. Ma'lumki, asar faqat qo'lda bir nusxadangina yozilar edi. Bosmaxona esa bir necha asrdan so'nggina paydo bo'lgan. Yozilgan asarning nusxasini ko'paytirish, boshqalarga yetkazish, undan nusxa olish zarur edi. Shuning uchun nusxa ko'chirish, asarni ko'paytirishga katta e'tibor berildi. Asta-sekin maxsus nusxa ko'chirish san'ati va hunari shakllandi, shu tufayli bir joyda yozilgan asarlarni boshqa shahar, o'lkalarda tarqatish imkonи vujudga keldi.

Maxsus nusxa ko'chirish bilan shug'ullanuvchilar, husni xat sohiblari paydo bo'lib, ular buyurtma yoki sotish uchun asarlardan nusxa ko'chirish bilan shug'ullanganlar. Kitobdan nusxa ko'chirish, kitob savdosining keng yo'lga qo'yilishi hamda ma'rifat ahlining tinimsiz faoliyati tufayli Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur, Bag'dod, Damashq singari shaharlarda katta kutubxonalar vujudga keldi. Bozorlarda kitob rastalari ko'paydi, kitob savdosi, uni tarqatish bilan shug'ullanuvchilar faoliyati kengaydi. Markaziy Osiyoga Bag'dod, Misr, Eron va Ispaniyaning turli shaharlaridan qo'lyozmalar keltirilib, yurtdoshlarimizning qo'lyozma asarlari boshqa o'lkalarga olib ketiladigan bo'ldi².

¹ Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. – Т., 1994. – 71–72-б.

² O'sha asar. – 33-б.

Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil etadi. Madaniyat tarixida mumtoz davr hisoblangan bu davr o‘zbek madaniyatining bugungi huquqiy joylashuvida asos bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, bu davr madaniyati Temur asos solgan kuchli davlatchilik tamoyillari asosida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liqdir.

Amir Temur davrida O‘rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Temur markazlashgan davlat tuzish jarayonida ishlab chiqarishga, xususan, qishloq xo‘jaligiga alohida e’tibor qaratdi.

Ulug‘bek davrida Bog‘i maydonda turli o‘simgiklar ekilib, Bog‘cha nomli bog‘ barpo etilgan. Temur Samarqand atrofida Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomli qishloqlar qurdiradi. Temur va Ulug‘bek davrida qo‘ychilik va yilqichilikka alohida e’tibor berilgan.

Tog‘-kon ishlari yo‘lga qo‘yilib, turli ma’danlar qazib olinishi tufayli hunarmandchilik rivojlangan.

Kulolchilik eng sertarmoq soha bo‘lgan. XIV–XV asrlarda sirli sopol turli sohalarda ishlatilgan va badiiy rang-baranglikda turli buyumlar yasalgan. Toshtaroshlikda naqsh, hattotlik keng qo‘llanila boshlangan. Binokorlikda g‘isht teruvchilar «Banno», peshtoq, ravoq hamda toqlarga parchin va chiroq qoplovchi pardozchilar «Ustoz» deyilgan.

Samarqandda shishasozlik rivojlanib turli idish va buyumlar yasalgan. Qurilishda rangli oynalardan foydalanilgan. Yog‘och o‘ymakorligida naqshin binolar qurilgan va buyum, jihozlar yasalgan. Samarqand qog‘ozi hatto chet o‘lkalarda mashhur bo‘lgan.

Bu davrda hunarmandchilik mollari ishlab chiqaradigan korxona boshlig‘i «Usta» shogirdlar «Xalfa»lar bo‘lgan, hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasiga mansub bo‘lgan.

Temuriylar davlati **Xitoy, Hindiston, Eron, Rusiya, Volga bo‘yi, Sibir bilan muntazam savdo-sotiq aloqalari olib borgan**. Chet davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishda temuriylarning elchilik aloqalari muhim ahamiyat kasb etgan. Temur savdo rastalari, bozorlar va yo‘llar qurdiradi, karvon yo‘llarida karvonsaroylarni ko‘paytiradi. Ayniqsa, Samarqand va Buxoroda bozor, chorsu, tim, toq, kappon kabi savdo-hunarmandchilik inshootlari qad rostladi.

O‘rtalik Osiyo zaminida temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot, san’at sohlari kamolot bosqichiga ko‘tarildi. Temuriylar davlatining qudrati, ayniqsa, me’morchilikda namoyon bo‘ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «Qudratimizni ko‘rmoq istasang – binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur sultanat poytaxti Samarcandni bezatishga alohida e’tibor berdi. Shaharda «Hisori», qal’a, ulug‘vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi.

Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr va Xuroson me’morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur va Ulug‘bek davri me’morchiligida bezakda ko‘p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, hattotlik san’atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan.

Temur davrida Saroymulk xonim Go‘ri Amir majmuasida madrasalar qurdirgan. Ulug‘bek Samarcand, Buxoro va G‘ijduvonda madrasalar bunyod ettirdi. XV asrda madrasa me’morchiliqi o‘zining uzil-kesil qiyofasiga ega bo‘ldi.

Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo‘lgan. Birinchisi – ma’muriy-siyosiy maqsadda bo‘lib, qal’a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi – shahar tashqarisidagi bog‘larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o‘tkazilgan va hordiq chiqarilgan.

Amir Temur davrida Samarcandda miniatura rassomchilik maktabi tashkil topdi. Hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko‘chirma – homaki miniatura nusxalari XIV–XV asrlarga oid bo‘lib, naqshlardagi chiziqlar uyg‘unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o‘z o‘rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Samarcand miniatura maktabi XIV–XV asrning birinchi yarmida qaror topgan bo‘lib, turli turkumda yaratilgan bu miniaturlarda Sharqiy Turkiston san’atiga xos bo‘lgan Turkiy obrazlarda Xitoy rassomchiliqi ta’siri sezilib turadi.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g‘amxo‘rlik qilishi tufayli Samarcand dunyoning ma’rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarcandga keldi. Masalan, Qozizoda Rumi, tabib Xusomiddin Kermoniy, falakiyatshunos Mavlono Ahmad, Ulug‘bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko‘rsatgan.

Mirzo Ulug‘bek davrida Samarcandda birinchi Akademiyaga asos solindi, Yer kurrasini o‘lchash va falakiyatshunoslik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarcand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqealari bo‘lib, jihozasi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng

keladigan rasadxona yo‘q edi. Rasadxonada Ulug‘bek matematika, geometriya, falakiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylar uning sevimli shogirdlari bo‘lgan.

XV asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo‘lib, bu yuksaklik Temuriy Boyqaro va o‘zbek adabiyotining porloq quyoshi Navoiy nomlari bilan bog‘liq. Boyqaro hukmronligi davrida adabiyot, san’at va fanning ko‘p sohalari rivojiga katta ahamiyat bergen. «Husayniy» taxallusi bilan she’rlar yozgan, bu ulug‘ zot o‘z hukmronligi davomida Navoiyga «muqarrabi hazrati sultoniy» mansabini berib, birgalikda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qilishgan. Navoiy ustoz Jomiy bilan hamkorlikda ma’naviyat taraqqiyotiga rahnamolik qildi. Ular timsolida badiiy adabiyot eng buyuk yutuqlarga erishdi. Navoiyning «Hamsa» va «Xazoyinul-maoniy» devoni, Jomiyning «Haft avrang» va she’riy devonlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo‘ldi. Husayn Boyqaro o‘z «Risola»sida uning hukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas.

Bu boy adabiy meros o‘zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga ham o‘zining chuqur ta’sirini ko‘rsatdi. Boburning «Boburnoma» asari shu davr o‘zbek adabiyoti va ilmining hayotbaxsh an’analari asosida yuzaga kelgan edi.

XV asrda o‘zbek adabiyoti, ayniqsa, Navoiy ijodi misolida adabiy janrlar rang-barangligi nuqtai nazaridan ham eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. O‘zbek adabiy tili shakllandi.

Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zaro uzviy bog‘langan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma’naviy yuksaklikni yuzaga keltira olgan.

Bulardan, **birinchi navbatda, siyosiy-ijtimoiy omilni** ko‘rsatish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda tarqoq, o‘zaro nizo va urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga bo‘linib ketgan va kelgindi hukmronlar – mo‘g‘ullar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan qutulishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalaring joriy etilishi, zo‘ravonliklar, o‘zboshimchaliklar kabi illatlarning tugatilishi, ijtimoiy yuksalish ta’minlandi.

Ikkinchi – iqtisodiy omil – Movarounnahr va Xurosonda yagona organ tizimining joriy etilishi, iqtisodiy osoyishtalik ishlab chiqarishning so‘nggi rivojlanishiga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik,

hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada qator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchi – ma'naviy omil – avval madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan, IX–XIII asrlarda yaratilgan ma'naviy-madaniy boyliklardan, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag'miniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumiy, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan: musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy boyliklaridan keng foydalanildi.

To'rtinchi – g'oyaviy omil – ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy hayotida katta rol o'ynaganligi uchun alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Bu XV asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf, xususan, Naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniy, Abu Xoliq G'ijduvoniy ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan Naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV–XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda muhim rol o'ynadi.

XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug'ullangan yirik olimlar paydo bo'ldi. Bu fanlarning rivoji asosan ikki yirik mutafakkir Saiddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayid Jurjoniy nomlari bilan bog'liqdir. Jurjoniy va Taftazoniylardan tashqari, Samarqandda o'sha davrda Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Xokiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar.

3. XV–XX asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati

Markaziy Osiyoda Temur va Temuriylar davrida madaniyat rivojlandi va kamol topdi. XIV–XV asrlardagi Movarounnahr va Xurosondagi madaniy taraqqiyotning tamal toshini buyuk sohibqiron Amir Temur qo'ygan edi.

XV asrda metall buyumlar – uy-ro‘zg‘or buyumlari, asbob-uskunalar, qurol-yarog‘lar ko‘plab ishlab chiqarilgan. Samarcand qurolsuzlik markaziga aylanib, sovutsozlar mahallasi bunyod etilgan. Shaharlarda mis va jezdan buyumlar va mis chaqalar zarb qilingan. Temur farmoni bilan Usta Izzoddin Isfahoni yasagan jez qozon va shamdon hozirgacha saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyoda Temuriylar davrida madaniyat mumtoz darajasi bilan dunyoga mashhur bo‘ldi. Shayboniylar va Ashtarkoniylar davri (XVI–XVIII asrlar)da mamlakat feodalizmning murakkab jarayonlarini boshdan kechirdi. XVI asrda hunarmandchilikning rivojlanishi tranzit va ichki savdoning kengayishiga yordam berdi. Bu davrda hunarmanchilikning 60 dan ortiq turi mavjud edi. Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron, Balx, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan savda-sotiq, diplomatik aloqalar bo‘lgan. XV–XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-fan ancha rivojlandi.

Markaziy Osiyoda xonliklar va amirlik o‘rtasidagi nizolar bo‘lib tursa-da, ma’lum darajada dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivoj topdi. Fan, adabiyot, san’atning rivojlanishi ko‘proq saroy doirasida bo‘lib, ham diniy, ham dunyoviy asarlar yozildi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Farg‘onada Muhammad Sharif – Gulxaniy taxallusi bilan tanilib, ajoyib lirik she’rlar, masallar yozdi. Uning «Zarbulmasal» asari qahramonlari qushlar bo‘lib, shoir ular orqali saroy a’yonlarining kirdikorlarini fosh etadi. Yana bir qo‘qonlik shoir G‘oziy ham o‘z asarlarida zodagonlar va ruhoniylarni fosh qiladi. XIX asrning 30 yillarda Shahrisbzda shoir Hiromiy hind, fors adabiyotida mashhur bo‘lgan «Chor darvesh» va «To‘tinoma» hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi, xalq dostonlari «Yusuf va Zulayho», «Tohir va Zuhro» «Bo‘z o‘g‘lon», «Yusuf va Ahmad» va boshqa dostonlar vujudga keldi. Shahar maydonlarida qiziqchi va qo‘g‘irchoqbozlar, o‘yinchi san’atkorlar xalq hayotidan hikoya qiluvchi lavhalarni o‘ynab, tomosha ko‘rsatar, boylar va saroy ahlining ochko‘zligini fosh etib, ustidan kular edi.

Bu davrda Markaziy Osiyoda ikki turdagи maktab mavjud edi: quyisi – maktab va oliy – madrasa. Boshlang‘ich maktabda savod o‘rgatilar va diniy matnlar yodlanar edi. Madrasada ham ilohiyat o‘qitilar, shuningdek arab tili sarfu nahvi (grammatikasi), notiqlik san’ati, aljabr va handasa asoslari o‘rgatilgan. Bundan tashqari, Hofiz, Bedil, Navoiy asarlari o‘qitilgan.

O'sha davr shoirlari, fan arboblari musiqani chuqur tushunganlar. Musiqa san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Mavlono Muhammaddin Mug'anniy, Mavlono Kavkabiy, Xo'ja Muhammad, Rizo Samarqandiyning nomlari bizgacha yetib kelgan.

Bu davrdagi me'morchilik yodgorliklari hajmi va pardozining jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Samarqanddagi Registon maydoni shu davrda shakllandi. Sherdor madrasasining old peshtoqida rangin koshinlar bilan chekilgan bir juft sher tasvirlangan. Tillakori madrasasining nomi «tilla bilan pardozlangan» degan ma'noni beradi. Devorlardagi ajoyib naqshu nigorlar va ichki devorlardagi to'kis tilla bezaklar juda nafis ishlangan.

XVIII asr oxirlaridan Xiva xonligida ta'mirlash va shaharsozlik ishlari avj oladi. Ollaqulixon madrasasi, Rahmonquli inoq saroyi hajm jihatidan ancha mahobatli qurilgan. Qo'qon xonligi me'morchiligidagi rang-baranglik va yorqinlik, pardozdagi koshinlarning yorqin tovlanishi kabi xususiyatlar, ayniqsa, Xudoyorxon saroyida yaqqol namoyon bo'ladi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yaratilgan me'morchilik yodgorliklarida hajm jihatdan ixcham, goho bezak-pardozlardan butunlay xoli binolar bilan ko'zga tashlanadi.

Rossiya Markaziy Osiyon bosib olgach, mahalliy aholi rus va Rossiyaning boshqa xalqlari bilan aloqa o'rnatishga majbur bo'ldi. Sanoat va qishloq xo'jaligi texnikalari kirib kela boshladи. O'z o'rniда Rossiya va Yevropa madaniyati elementlari kirib keldi. Rus tuzem maktablari ochildi. Tipografiya va litografiyaning paydo bo'lishi madaniy hayotda katta voqeа bo'ldi. Avval rus tilida, so'ngra mahalliy tillarda gazeta, jurnal va kitoblar chop etila boshladи.

XIX asrning 80-yillarida A. S. Pushkin va I. A. Krilyov asarlari ilk bor o'zbekchaga tarjima qilindi. 1880-yilda Toshkentda jamoat kutubxonasi ochildi. 1870-yilda rasadxona va kimyogarlik tajribaxonasiga asos solindi. Ilmiy jamiyatlar tuzildi, tarixiy va arxeologiya muzeylari ochildi.

Rus madaniyati ta'sirida xalq ma'rifatparvarlari shakllandi. Ular V. I. Gersei, N. T. Chernishevskiy, N. V. Dobrolyubovlar ta'sirida xalq ozodlik masalasini ko'tarib chiqdilar. O'rta asr qoloqligini tugatish, ta'lim-tarbiyaning ilg'or usullarini joriy qilishni o'z asarlarida kuylagan Furqat (1858–1909) misol tariqasida rus maktablarini ko'rsatdi. U A. S. Pushkinning bir qancha she'rlarini o'zbekchaga tarjima qildi. Muqimiyl (1850–1903) o'zining hajviy she'rlarida xalq ommasining

burjuaziya tomonidan ezilishini fosh etdi. Zavqiy (1853–1921) o‘z she’rlarida ijtimoiyadolatsizlikni qoraladi.

XIX asr Turkiston adabiyoti ikki yo‘nalishda rivojlandi: shohlik va saroy muhitini kuylovchi adabiyot hamda zo‘rovonlikka qarshi norozilikni va qoloqlikni tugatishga qaratilgan taraqqiyatning xalq adabiyoti. Umuman, rus va dunyo madaniyati ta’sirida mehnatkash xalq bilan bog‘liq Turkistonda milliy madaniyatning rivojlanish jarayoni kuchayib bordi.

Musulmonlar va qolaversa, turkiylar dunyosining jahon taraqqiyotidan uzilib qolganligi, bu g‘oyat xavfli holga barham berish kerakligini hamda umumturkiy qavmlardagi jaholatni yo‘q qilib, ma’rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlarga tenglashish zarurligini birinchi bo‘lib turkiy qrim-tatar xalqining ulug‘ farzandi Ismoil G‘asparali (1851–1914) tushunib yetdi. U jadidchilik harakatining butun turk dunyosidagi «g‘oyaviy otasi»dir.

1898 yilda Qo‘qonda Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabiga asos soldi. Shu yili To‘qmoqda ham shu tipdagi maktab ochildi. 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903 yilda Turkiston o‘lkasida 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid maktablari bor edi.

Asr boshida jadidlar ziyolilarning butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og‘ir ishga fidoiylik bilan kirishdilar. Ularning boshida M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Ayniy, A. Fitrat, Munavvar qori, Bobooxun Salimov va boshqa ko‘plab taraqqiyoparvar insonlar turar edilar. Ular doimo quvg‘in, qamoq, surgun kabi xavf-hatarlar boshida charx urib turgan holda ish olib borishga majbur bo‘ldilar.

Ayniqsa, Toshkent jadidlarining otasi sifatida ziyolilar o‘rtasida katta obro‘-e’tibor qozongan Munavvar Qori Abdurashidxonovning xizmatlari juda katta bo‘ldi.

XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab «usuli jadid» maktablari ochildi.

Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi davrda feodal tuzum va tartiblarini tanqid qilish, madaniy yangiliklarni egallash, Yevropaning turli tillarini o‘rganishni targ‘ib qilish, yangicha ilm-fanning ahamiyatini ko‘tarish kabi masalalar olg‘a surildi. Ahmad Donish, Avaz o‘tar, Furqat, Muqimiyy, Zavqiy singari ma’rifatparvarlar yetishib chiqdilar.

Ikkinchchi bosqichda ma'rifatchilikdan jadidizm o'sib chiqdiki, u endilikda yangicha ta'lim-tarbiya, yangi usul maktablarini yo'lga qo'yish, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash, maorif-madaniyatda yangi tartiblarni o'rnatish, yangi ijtimoiy-siyosiy masalalarini qo'yish darajasiga ko'tarildi. Bu davrda Turkistonda ma'rifatparvarlik va jadidchilikning turli, yangi ta'lim-tarbiya, o'quv-o'qituv masalalarini o'zida aks ettiruvchi juda ko'p jurnallar nashr etildi. «Taraqqiyot», «Oyna», «Tujjor», «Sadoyi Turkiston», «Samarqand» kabi jurnallar shular jumlasidandir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda juda murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan birga, uning madaniy hayotida ham tez va shiddatli o'zgarishlar ro'y berdi. Madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiya, din, mafkura sohasida turli oqimlar paydo bo'ldi, ular orasidagi munosabatlар murakkab tus oldi. Yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar harakati vujudga keldi.

1917 yildagi Butun Rossiyada yuz bergen fevral va oktabr inqiloblari uning mustamlakasi bo'lmish Turkistonda ham to'ntarishlarga olib keldi.

Sovet davrida juda ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har xil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgartishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda yo'naliшlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

30-yillarda madaniy-oqartuv masalalari tarmog'i kengayishda davom etib bordi. Yirik sanoat korxonalarida madaniyat saroylari bunyod etildi, qishloq xo'jaligi artellari qoshida kolxoz klublari ochildi, rayon madaniyat uylari barpo etildi, kutubxonalar tarmog'i kengayib, ularning kitob fondlari boyib bordi, kinoteatrlar, klub va madaniyat uylari qoshidagi kino qurilmalarining soni ko'paydi, stadion va sport maydonchalari jihozlandi. Ko'p miqdorda kitob, gazeta va jurnallar nashr etildi. Radio eshittirishlari aholining kundalik turmushida rasm bo'lib qoldi.

Biroq 30-yillarda qaror topib borgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mafkurasi respublikaning ijodiy xodimlarini, uning butun ma'naviy hayotini qattiq iskanjaga oldi. Ijodiyotni partiyaviylik tamoyillariga, mafkuraviy qonun-qoidalarga bo'ysundirish, dunyonи badiiy tasvirlashni qo'pol ravishda sotsiologiyalashtirish uchun keng yo'l ochib berdi, dunyoviy imkoniyatlarni toraytirib qo'ydi. Partiyaning yangi

turmushni madh etishga, xalq o‘tmishiga nigilik munosabat paydo bo‘lishiga qaratilgan siyosati badiiy jarayondagi tarixiy izchillikni unutib yuborishga olib keldi. Madaniyatda murakkab ijtimoiy muammolarni bezatib, yengil tusga kiritib ko‘rsatish, xato va kamchiliklar to‘g‘risida sukut saqlash tendensiyalari paydo bo‘la boshladi. Oqibatda hayotiy haqiqat buzilib, san’atning tarbiyaviy salohiyati pasaytirib yuborildi.

30-yillardagi qataq‘onlar milliy madaniyat uchun dahshatli fojiaga aylandi. Qonunchilikning qo‘pol ravishda buzilishi va inson qadr-qimmatning poymol etilishi tufayli milliy madaniyat o‘rni to‘lmaydigan darajada zavol ko‘rdi. Iste’dodli adabiyot va san’at arboblari Abdulla Qodiriy, Cho‘Ipon, Fitrat, Shokir Sulayman, Ziyo Said, Elbek, A’zam Ayub, Usmon Nosir, Qosim Sorokin, Muhammad Hasan, Abdusalom Niyoziy, Otajon Hoshimov va boshqalar milliy madaniyat quchog‘idan uzib olinib xalq dushmanlari deb e’lon qilindi. Qataq‘on qilingan va ta’qib ostiga olingan shoир va yozuvchilarning asarlaridan foydalanish necha-necha yillar mobaynida taqiq bo‘lib turdi. Nohaq unuttirib yuborilgan, ko‘pincha esa jismonan ham yo‘q qilingan jasur xalq farzandlarining asarlari shaxsga sig‘inish tugatilganidan keyin garchi xalqqa qaytarib berilgan bo‘lsa-da, o‘limidan keyingi hech qanday shon-shuhrat ular boshidan kechirgan taxqir-u qiynoqlarning alamini bosa olmaydi.

Din va dindorlarni ta’qib qilish xalqning ma’naviy madaniyatiga nihoyat darajada katta zavol yetkazdi. Ma’muriy-buyruqbozlik tartiboti o‘rnatalishi bilan dinga ilmiy nuqtai nazardan yondoshish inkor etila boshlandi. Din bilan ateizmning dunyoqarash jihatidan bir-biriga qarama qarshiligi siyosiy qarama-qarshilik bilan almashтирildi. «Sotsializmda dinga o‘rin yo‘q, unga din begona» degan qoida ustun bo‘lib qoldi. Shunday qilib, unga nisbatan salbiy munosabat dinga qarshi zo‘rlik ko‘rsatishga aylanib ketdi. Na masjidlar, na cherkovlar, na dindorlar shu qadar miqyosdagi ta’qiblarni boshidan kechirmagan edilar. O‘zbekiston ruhoniylarning asosiy qismi 30-yillarda qamoq lagerlariga jo‘natildi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi o‘tmishda garchi diniy marosimlarni o‘tkazish o‘choqlari bo‘libgina qolmasdan, xalqning buyuk merosini saqlab, boyitib kelgan madaniyat, ilm, tarbiya, san’at markazlari ham bo‘lganiga qaramay, berkitib qo‘yildi.

Sobiq sho‘ro davrida Respublika madaniy hayotida progressiv va regressiv taraqqiyotning bir-biriga qarama-qarshi tendensiyalari tobora kuchayib bordi. 70-yillar va 80-yillarning birinchi yarmida, xuddi boshqa sohalarda bo‘lganidek, O‘zbekistonning ma’naviy hayotida ham inqirozga xos vaziyat vujudga keldi.

Uzoq va yaqin o‘tmishni xayoldan o‘tkazib, mohiyatini anglashda 1991 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining Mustaqil deb e’lon qilinishi tarixiy voqeа bo‘ldi. U milliy o‘zlikni anglash, tom ma’nodagi milliy yuksalish uchun sharoit yaratdi.

Jamiyat va millat tarixi, taqdirida yangi davr – Istiqlol davri boshlandi.

«Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi, – degan edi I. A. Karimov. – kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan yaratadigan bo‘ldik. Hayotimiz va yashayotgan xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga umumbashariyat e’tirof etgan demokratik mezonlarga monand qilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo‘ldik».

Darhaqiqat, shunday ekan, ichki ishlar organlari xodimlari o‘z oldida turgan asosiy vazifani sidqidildan his etmog‘i, Vatan oldidagi burch va mas’uliyatni teran anglamog‘i lozim. Buning uchun esa, o‘tmish tariximiz haqidagi bilimlarni mukammal darajada bilishimiz hamda mustaqil O‘zbekiston xalqining tinch va osoyishta, faravon hayot kechirishini ta’minlashda, jamoat tartibini saqlashda, jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishdaadolat tamoyillariga rioya etgan holda, xizmat faoliyatini teran anglab, vazifalarni to‘liq bajarish talab etiladi.

Xulosa

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati juda qadimiylar bo‘lib, uning tarixi bir necha ming yillarni o‘z ichiga oladi. Xalqimiz madaniyati jahon madaniyati bilan yonma-yon yuzaga keldi va rivojlandi. Bironta xalq madaniyati o‘z mamlakati doirasidagina, tor darajada rivojiana olmaydi. Aksincha, boshqa xalqlar madaniyati bilan o‘zaro aloqada rivojlanadi. O‘zbek xalqi madaniyati ham faqat milliy asosda emas, balki umuminsoniy madaniyatlar ta’sirida rivojlandi.

Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiylarini aniqlash shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zaro uzviy bog‘langan va yaxlit bir butun holdagini madaniy-ma’naviy yuksaklikni yuzaga keltira olgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda juda murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan birga, uning madaniy hayotida ham tez va shiddatli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Madaniyat, adabiyot, ta’lim-tarbiya, din, mafkura sohasida turli oqimlar paydo bo‘ldi, ular orasidagi munosabatlar murakkab tus oldi.

Shunday qilib, «madaniyat» atamasi, aytib o‘tganimizdek, kishilik jamiyatining eng qadimi bosqichlariga borib taqaladi. Madaniyat insonning kelib chiqishi bilan uzviy bog‘liqdir. Madaniyat tarixi jamiyat tarixining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati jahon madaniyati rivojiga qo‘shtan hissasi va o‘rni bebahodir. Sharq va G‘arb madaniyatining o‘zaro aloqadorligida, Temuriylar davri madaniyatining jahon madaniyati rivojlanishiga ta’siri haqida tinglovchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *So‘g‘d, Baqtriya, Turon, Turkiston davlatlarining tarixi hozirda qanday nomlanib o‘rganiladi?*
2. *Eron va Turk xalqlarining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi nimaga sabab bo‘ldi?*
3. *Hozirgacha «Avesto»ning qancha kitobi saqlanib qolgan?*
4. *Avestoning qaysi kitobida zulmat va yovuzlik xudosi Axrimani boshqaruvchi yomonlik kuchlarini qaytarish haqida fikrlar bildirilgan?*
5. *Avestoning qaysi kitobida ibodat namozlari to‘plangan?*
6. *Avestoning qaysi kitobida xudolarga sig‘inish va murojaatdan iborat Zardo‘shtning muqaddas qo‘shiqlari to‘plangan?*
7. *Avestoning qaysi kitobida xudolarni sharaflovchi qadimgi madhiyalar va ezgulik xudolariga yovuzlikka qarshi kurashda yordam beruvchi kuchlar haqida fikrlar bildirilgan?*
8. *XVIII asr oxirida Qo‘qonda tug‘ilgan shoir Maxmur qanday faoliyat bilan shug‘ullangan?*
9. *«Hapalak» nomli mashhur hajviy asar qaysi shoirning qalamiga mansub?*
10. *«Zarbulmasal» asari kimning qalamiga mansub?*
11. *«O‘rtar» she’ri quyidagi keltirilgan shoirlardan qaysi birining qalamiga mansub?*
12. *«Qullar» romani kimning qalamiga mansub?*
13. *Quyida keltirilganlardan jadidchilik harakatining butun turk dunyosidagi «g‘oyaviy otasi»ni ko‘rsating?*
14. *Ismoil G‘asparalining «Rahbari muallimin» yoki «Muallimlarga yo‘ldosh» kitobi qachon nashrdan chiqdi?*
15. *Buxorodagi «Mazaffariya» jadid maktabi qachon ochildi?*
16. *1898 yilda Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan qanday maktabga asos solindi?*

6-MAVZU. MARKAZIY OSIYODA ISLOM MADANIYATI VA UNING DINIY EKSTREMIZM VA FUNDAMENTALIZMGA QARAMA-QARSHILIGI

- ∞ *Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida islam dinining o‘rni*
- ∞ *Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mohiyati, maqsadi va xavfi. Ularning Markaziy Osiyodagi islam madaniyatiga zidligi*
- ∞ *Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari*

1. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida islom dinining o‘rni

Bugungi kunda dunyoda dinga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarib borishi insonlar tafakkurida yangi diniy Uyg‘onish (**Renessans**) davrining yuzaga kelganligidan darak berayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Madaniyat keng qamrovli fenomen sifatida kishilik jamiyatining ko‘plab sohalarini qamragan holda namoyon bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, dinga ham madaniyatning bir hodisasi sifatida qarash mumkin. Prezidentimiz I.A Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida «Din – madaniy, ma’naviy, insoniy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avlodan-avlodga yetkazishda beqiyos xizmat qilgan ota-bobolarimizning dini bo‘lmish islam dini misolida shunday xulosa chiqarish uchun hamma asoslarga egamiz»¹, degan fikrni bayon etgan.

Diniy madaniyat inson tafakkuri taraqqiyotida muhim omillardan biri sifatida kishining e’tiqodi, ma’naviyati, axloqiy va estetik dunyoqarashiga, umuman olganda, uning turmush tarziga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi hodisadir.

Islam dinining hozirgi davrdagi jahon miqyosidagi mavqeい tobora mustahkamlanib bormoqda. Hozirda islam diniga deyarli 1.5 mlrd. kishi e’tiqod qilmoqda. Agar islam dini paydo bo‘lgan davrlarda, u asosan Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lsa, XX asr oxiriga kelib, islam dini va madaniyati Osiyo, Afrika, Yevropa va Shimoliy Amerikaning

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1998. – 315-б.

qator mamlakatlarida keng tarqalib bormoqda. Buning obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Obyektiv sababi shundaki, islam dini va madaniyati yahudiylik, xristianlik dinlari va madaniyatlarining ijobiy jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Diniy e’tiqod va sig‘inishni inson hayotining turli holat va vaziyatlariga moslashtira oladi, diniy e’tiqod qulayligini ta’minlaydi. Shu bois Yevropa va Shimoliy Amerikaning muqaddam xristian yoki yahudiylik e’tiqodida bo‘lgan yoki diniy e’tiqodi umuman bo‘Imagan fuqarolarini o‘ziga jalb eta oladi. Islom diniga kirish Yevropa va Shimoliy Amerikada muayyan udumga aylanib bormoqda. Bu narsa, tabiiyki, boshqa diniy konfessiyalar rahbariyatini tashvishlantiradi. Islom e’tiqodini qabul qiluvchilar nufuzining oshib borishi jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida islom qadriyatlarining ustuvorligiga olib kelishi boshqa diniy konfessiyalar mavqeini zaiflashtiradi deb xavotir olishadi. Aslida esa bunday tashvishlanishlar o‘rinsizdir. Haqiqiy islom mehr-oqibat, poklik, halollik, shafqat, rahmdillik, xayr-saxovot,adolat va insof kabi qadriyatlarni e’zozlaydi, insonni ezgulikka undaydi.

Bundan islom dini niqobi ostida ish ko‘rvuchi, g‘arazli siyosiy maqsadlar, manfur niyatlarini islom diniga bog‘lovchi siyosiy kuchlar, turli ekstremistik elementlar mustasnodir. Din niqobida ish ko‘rvuchi manfur ekstremistik, terrorchi kuchlar islom e’tiqodining millionlab kishilar qalbiga kirib borish jarayonini aslo to‘xtata olmaydi, aksincha, ular iymonli, diyonatli dindorlar tomonidan uloqtirib tashlanadi, islom olamining ifloslanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Islom dini va madaniyati XXI asrga kelib, jahon ijtimoiyy-siyosiy sahnasida yirik siyosiy-g‘oyaviy omil mavqeiga ega bo‘la boshladи. Agar Sobiq sho‘rolar tuzumi davrida jamiyatda sekulyarizm va dahriylik (ateizm) siyosati hukmron bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo yosh davlatlari siyosatida **sekulyarizm** birmuncha chekindi, diniy e’tiqodga erkinlik berildi. Natijada islom dini va madaniyati siyosiy hayotga aralashish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mustaqillikka erishgan yosh davlatlar o‘z siyosiy yo‘llarini tanlashda G‘arb demokratiyasi an’analariga murojaat qilishdi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi, demokratiya prinsiplarining siyosiy islohotlar uchun asos qilib olinishi jamiyatda islom harakatlari ulg‘ayishi, kuchayishi va hokimiyatga da’vogar kuch sifatida maydonga chiqishiga olib keldi. Mamlakatda diniy e’tiqodga erkinlik berilishidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lgan ekstremistik kuchlar 1991–1992 yillarda Farg‘ona vodiysida rasmiy hokimiyat o‘rniga islom

tartiblarini o‘rnatish uchun ochiqdan-ochiq harakat qilishga kirishdi. Xususan, «Adolat», «Tovba», «O‘zbekiston islam uyg‘onish partiyasi» va boshqa diniy tashkilotlar islam dinining siyosiylashuvi ifodasi hisoblanadi.

Bu harakatlar O‘zbekistonda mustaqillikka erishilgach yuzaga kelgan obyektiv qiyinchiliklar (ishsizlar sonining oshishi, tur mush darajasining pasayishi, o‘zgaruvchan sharoitlarda eskicha boshqaruv uslublarining davlat hokimiyati organlarida inersiya shaklida saqlanib qolganligi va boshq.)dan ustamonlik bilan foydalanib, mamlakat hayotini islam qonunlariga asoslangan o‘zanga burib yuborishga urinib ko‘rdilar. Buni ayrim chet el diniy ekstremistik tashkilotlarining mahalliy gumashtalari (Juma Namangoni, Tohir Yo‘ldoshev va boshq. shaxslar) amalga oshirmoqchi bo‘ldilar. Biroq rasmiy siyosiy hokimiyat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining hushyorligi va qat’iligi natijasida siyosiy islomning payi qirqildi.

O‘zbekiston misoli dinning siyosiylashuvi masalasining faqat bir shingilidir. XX asr oxiriga kelib, islam dini jahon miqyosida yetakchi ijtimoiy-siyosiy mavqega da’vo etmoqda.

Islam ruhoniy rahbarlaridan Oyatillo Humayni bundan deyarli 20 yil muqaddam taniqli italyan jurnalisti Oriana Fallagiga bergan intervyusida «Islam – bu adolatdir. Islam e’tiqodiga muvofiq har qanday diktatura – katta gunohdir. Islam deyarli hamma narsa: erkinlik, madaniyat, demokratiya va boshqalar. dir. Islam siyosiy-diniy ta’limotdir, unda bir tomon dan ruhoniylilik siyosatni to‘ldirsa, ikkinchi tomon dan esa siyosat ruhoniylikni to‘ldiradi. Islomda diniy fatvolardan ko‘ra ko‘proq siyosiy da’vat ustuvordir. Olloh nomi bilan qasamyod qilaman: Islam – siyosatdir», deb ta’kidlagan edi.

Eron islam inqilobining yetakchi rahbarlaridan Oyatilla Humayniyning bu so‘zлari diqqatga sazovordir. Darhaqiqat, XX asr oxiriga kelib, islam nafaqat diniy-axlokiy ta’limot, balki ijtimoiy-siyosiy ta’limot ekanligini isbotladi, jahon iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlariga ta’sir etib turuvchi vositaga aylandi.

Bugungi kunda islam dinining shunchaki bir ta’limot emas, balki g‘oyat katta qudratga va salohiyatga ega bo‘lgan mafkura ekanligini Yaqin va O‘rta Sharqda, Bolqon yarim orolida, Rossiyaning Kavkaz hududida, Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonning Kashmir o‘lkalarida kechayotgan diniy mazmundagi ijtimoiy jarayonlar yanada yaqqol tasdiqlanmoqda. Islam jahon miqyosida jiddiy siyosiy kuchga aylanmoqda. Biroq uning haqiqiy mohiyatini buzish, undan g‘arazli

siyosiy maqsadlarda foydalanish uning xalqaro obro'yiga putur yetkazmoqda, ayrim kaltabin siyosatchilarning islom diniga qolgan barcha dirlarni qarama-qarshi qo'yishiga olib kelmoqda. Bu bilan haqiqiy islomning insonparvarlik, ezgulik va adolatlilik kabi mohiyati xavf ostida qolmoqda, bir guruh ekstremistlar, terrorchilar g'arazli maqsadlari bilan islom mohiyatini qorishtirib yubormoqda. Bu sharoitda islom dini va madaniyatining azaliy insonparvarlik, poklik, halollik, rahm-shafqatlilik, iymonlilik prinsiplari ustuvorligiga erishish, jahon ahlini bu qadriyatlarga ishontirish, uning umuminsoniy tabiatini ilmiy izohlab berish davr talabidir.

Hozirgi davrda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotda vujudga kelgan o'zgarishlar, ilg'or fikrlar natijasida jamiyat taraqqiyotidan ortda qolayotgan g'oyalarga qarshi kurash tobora kuchayib boradi. Bunday jarayon islomga nisbatan ham tobora yaqqol ko'zga tashlanadi va bu jarayonlar quyidagi tushunchalarda ifodalanadi.

Islom modernizmi – islomning diniy ta'limotdagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarga talluqli aqidalarini zamon sharoitlariga moslashtirish orqali taraqqiyotning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Ilom traditsionalizmi – islom aqidalariga qattiq amal qilib, ularning o'zgarmasligini da'vo qilib, modernizmga qarshi chiquvchilar.

Islom fundamentalizmi – sof islomni qayta tiklashni targ'ib qiluvchilar oqimi. Jamiyat hayotida yirik o'zgarishlar boshlangan vaqtida vujudga keladi.

2. Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mohiyati, maqsadi va xavfi: ularning Markaziy Osiyodagi islom madaniyatiga zidligi

Diniy ekstremizm va fundamentalizm ijtimoiy hayotda yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida vujudga keladi va u uzoq o'tmish tariximiz bilan bog'liqdir. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, diniy ekstremizm va fundamentalizm dinning paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan ijtimoiy voqelikdir. Faqat u turli tarixiy davrlarda xilma-xil ko'rinish, shakl va mazmunda namoyon bo'ladi.

XX asrda diniy ekstremizm va fundamentalizm siyosiy islom ekstremizmi va terrorizmi kabi dahshatli ko'rinish kasb etdi. Dastlab, diniy fundamentalizm nima, ekstremizm nima, ular o'rtasida qanday o'zaro aloqadorlik mavjud kabi masalalarga to'xtab o'taylik.

Diniy ekstremizm (lotincha extremum – eng keyingi, oxirgi degan ma’nolarni anglatadi) dindorlarning diniy aqidalar talqinida chekinishlarga yo‘l qo‘ymaslikda, ijtimoiy taraqqiyot yutuqlarini hayotga tatbiq etishga to‘sinqilikda, maishiy turmushda an’anaviylikka amal qilinishining nazoratida namoyon bo‘ladi. Ekstremistik ruhdagi diniy oqimlar o‘ta jangarilik, murosasizlik g‘oyalari bilan qurollangan bo‘lib, ular dunyoviy g‘oyalar tarafdozlarini, dindagi modernistik tendensiya maslakdoshlarini ta’qib qiluvchi, hatto terror harakatlari vositasida jismonan yo‘q qilishga tayyor ashaddiy aqidaparastlardir.

Diniy ekstremizm deb, diniy tashkilotlarning o‘ta mutaassub (fanatik) qismini tashkil etadigan guruhlar mafkurasi va faoliyatiga aytiladi.

Diniy ekstremizm konfessiya (lotincha confessionalis – diniy e’tiqod, cherkovga qarashli degan ma’nolarni anglatadi). Ichidagi turli oqimlarning, mazxablarning o‘zaro kurashi yoki konfessiyalararo qarama-qarshiliklar sababli vujudga keladi. Konfessiyalararo qarama-qarshilikka Isroil va Falastinda yahudiylar bilan arablar o‘rtasidagi urushni, Shimoliy Irlandiyadagi «Ultra» protestantlik harakatini yoki Checheniston terrorchilarining islom dini niqobidagi ayirmachilik harakatlarini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu terrorchilik harakatlarining islom yoki xristianlik bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Din kishini-kishiga qarshi qo‘ymaydi. Qanday yuksak g‘oyalar bilan niqoblanmasin jamiyatda ajal urug‘ini sochishni rag‘batlantirmaydi.

Diniy ekstremizmning manbai mutaassublikdir (fanatizm). Mutaassublik kishilarning bir narsaga, fikrga, g‘oyaga ko‘r-ko‘rona, uning chuqur mohiyatiga yetmasdan, butun vujudi bilan qattiq ishonishi, uni boshqa hamma narsalardan, g‘oyalardan to‘g‘iroq deb bilishi va shu sababdan boshqalarga ham turli vositalar bilan singdirishga harakat qilishidir.

Jamiyatda mutaassublik (fanatizm) quyidagi sabablar natijasida vujudga keladi:

- a) aholi keng qatlamlarining iqtisodiy turmush darajasining pastligi va ijtimoiy munosabatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- b) jamiyat a’zolarining diniy bilimi, saviyasining yetarli darajada emasligi, diniy jaholatning ustuvorligi.

Sobiq sho‘rolar davrida O‘zbekiston iqtisodiyotining bir taraflama, asosan xomashyo ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollangan yirik korxonalarining va

respublikada malakali mutaxassis kadrlarni yetkazib beruvchi bilim dargohlarining kamligi sababli, malakali mahalliy ishchi kadrlar tayyorlash ishlari masalasi hal qilinmadi. Sanoat korxonalari bu muammoni chetdan mutaxassislarni olib kelish bilan hal qilishni afzal ko‘rdi. Mahalliy aholi vakillari asosan yordamchi, yuqori malaka talab qilmaydigan kasblarda ishlagan. Zero, bunday kasblardagi ish haqi juda kamligi sababli, kishilarda ishchi kasbini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqish uyg‘otmagan. Bu masalada milliy mentalitetimiz ta’sirini ham qayd qilishimiz lozim. Mahalliy aholi o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan sanoat korxonalarida murakkab kasblarni o‘zlashtirishdan ko‘ra asrlar davomida ajdodlaridan meros bo‘lib kelgan qishloq ho‘jaligida yoki shaharlarda savdo-moliya tizimida ishlashni afzal ko‘rgan.

Sobiq sho‘rolar davrida O‘zbekistonda qurilgan sanoat korxonalari-ning asosiy qismi xomashyoga dastlabki ishlov berishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularda ishlab chiqarilgan yarim fabrikat maxsulotlar boshqa respublikalarga tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun olib ketilgan. Xomashyo yoki yarim fabrikat mahsulotlarning bozorlarda arzon narxlarda sotilishi aholi iqtisodiy turmush darajasining boshqa mintaqalarga nisbatan past bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan.

Mahalliy aholi vakillari orasida yuqori malakali ishchi kuchining kam sonliligi va aholi iqtisodiy turmush darajasining pastligi turli ekstremistik va fundamentalistik ruhdagi diniy oqimlarning yoyilishiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Sobiq sho‘rolar davrida olib borilgan dahriylik siyosati oqibatida mustamlaka davrigacha islom dunyosining markazlaridan biri bo‘lgan Markaziy Osiyo o‘zining islom dunyosidagi nufuzini yo‘qotdi. Aholining diniy bilimlari darajasi pasayib bordi. Diniy bilimlar asosan diniy marosim va an’analarni bajarish darajasiga tushib qoldi. Buning sabablari quyidagilardan iborat:

a) dinga qarshi kurash davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirilganligi. Diniy ta’limotni ilmiy o‘rganish uchun yetarli shart-sharoitlarning vujudga keltirilmaganligi;

b) sobiq sho‘rolar davrida aholiga diniy ta’lim berishning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

v) diniy tashkilotlar va ulamolarning kuch va imkoniyatlaridan aholini tarbiyalashda foydalanish ishlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi.

XX asrning ikkinchi yarmida Sharq davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sur'atlarining oshib borishi, fan va texnika taraqqiyoti ijtimoiy hayotda G‘arb madaniyati ta’sirining kuchayishiga sabab bo‘ldi. Bunday jarayonlar muqarrar ravishda milliy urf-odatlar va an’analarning shu jumladan, diniy an’analarning, ijtimoiy hayotdagi mavqeini o‘zgartirdi. Milliy madaniyatda va diniy ta’limotda modernizatsiya jarayonlarini vujudga keltirdi. Ijtimoiy hayotda har qanday o‘zgarishlar unga qarshi kuchlarni yengib, o‘ziga yo‘l ochgani kabi, dinda ham bunday o‘zgarishlar diniy ekstremizm va fundamentalizm to‘sinqiliga duch keldi. O‘tgan asrning oxirlarida diniy ekstremizm global muammoga aylandi.

Jahon miqyosida va xususan, O‘zbekistonda diniy ekstremizm islom ekstremizmi shaklida o‘ta keskin ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Islom ekstremizmi vakillari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a) hozirgi zamon musulmon jamiyatlarini islomiy xususiyatlarini yo‘qotib, johiliya botqog‘iga botib qolganlikda ayblovchi guruhlar. Ular kamchiliklarni tanqid qilish bilan muammoni hal qilish mumkin, deb hisoblaydilar;

v) diniy tartib va qoidalarni ijtimoiy hayotga takroran joriy qilishda keskin chora-tadbirlarni qo‘llashni talab qiluvchi radikal kuchlar.

Diniy ekstremizm va mutaassublik diniy fundamentalizmdan vujudga keladi (latincha fundmehtum – asos degan ma’noni anglatadi). XX asr boshlarida «fundamentalizm» atamasi dindagi jarayonlarni aks ettiruvchi tushuncha sifatida ilk bor qo‘llana boshlangan. XX asr boshlarida AQSHda «Fundamentlar (asoslar): haqiqatga shahodat keltirish» nomli risolalar to‘plami nashr qilingan. To‘plamda xristianlikning fundamental (asoslar) nazariyalarini nimalar tashkil etishi izohlangan. To‘plam yuzasidan boshlangan munozaralarda dindagi fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni himoya qiluvchilar fundamentalistlar deb atala boshlangan. Yuqorida qayd etilgan misollardan xulosa qilganda, «diniy fundamentalizm» atamasi dastlab islomga nisbatan emas, balki xristianlikka nisbatan qo‘llana boshlangan. Albatta, atamaning dastlab kimga yoki nimaga nisbatan qo‘llanganligi muhim ahamiyatga ega emasdir, lekin hozirgi davrda diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm deganda, G‘arb va hatto ayrim sharq mamlakatlarida islomni bayroq qilib oluvchi «individlar» va guruhlar o‘tmish tarixni esga olib qo‘ysa, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Diniy fundamentalizm alohida olingen diniy e'tiqodga yoki muayyan tarixiy davrga va hatto mintaqaga xos ijtimoiy hodisa emas. Mazkur voqelik har qanday dinga xos xususiyat bo'lib, turli tarixiy davrlarda dinning ajralmas yo'ldoshi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, islam davlatlarida diniy tiklanish va jonlanish hodisalariga nisbatan «fundamentalizm» atamasi qo'llangan. Hozirgi davrda kishilarda ziddiyatli hissiyot o'yg'otuvchi «islom fundamentalizmi» atamasi shu vaqtan boshlab keng yoyilgan.

XX asr boshlarida dunyo ikki qutbga bo'lingan. Ular o'rtasidagi kurash kommunistik mafkuraning mag'lubiyati bilan tugaganidan keyin uzoq o'tmishda vujudga kelgan, lekin ahamiyati jihatidan vaqtinchalik ortga surilgan muammolar yana qalqib chiqsa boshladi. Shunday muammolardan biri industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Mazkur muammo turli ko'rinishlarda, xususan, din sohasida ham o'ta keskin tus oldi. Sharq-G'arbning iqtisodiy ekspansiyasiga qarshi kurashda diniy omildan foydalanishga harakat qilindi.

Diniy fundamentalizm deb, diniy aqidalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishni, ilohiy bashorat va mo'jizalarni juz'iy tushunishni inkor qiluvchi qarashlar majmuiga aytildi.

Diniy fundamentalizm ijtimoiy hayotda ijobiy va salbiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Uning ijobiy ahamiyati kishilarni muqaddas yozuvlarga va payg'ambarlar hayotiga taqlidan yashashlariga da'vat etishda namoyon bo'ladi. Salbiy jihatlari dinning sofligini saqlab qolish niqobida ayrim guruuhlar siyosiy hokimiyatni egallashga intiladi, jamiyatda beqarorlik va urushlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Diniy ekstremistlar va fundamentalistlarning maqsadlari quyida-gilardan iborat:

a) dinning sofligini saqlab qolish niqobida diniy tashkilotlar va guruuhlar siyosiy hokimiyatni qo'lga olish va dindorlarning nazoratida bo'lgan hukumatni tuzishga intiladi;

b) dinning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini saqlab qolish va yanada mustahkamlash maqsadida, uni zaiflashtiruvchi har qanday jarayonlarga qarshi kurash olib boradi.

Yuqorida qayd etganimizdek, diniy ekstremizm va fundamentalizm barcha dinlarga xos xususiyatdir. Hozirgi davrda ijtimoiy hayotda u turli ko'rinishlarda o'zligini namoyon qiladi. Masalan, G'arb jamiyatlarida

sekulyarizatsiya jarayonlari keng ko‘lamda ijtimoiy hayotga tatbiq etilganligi sababli, Sharq davlatlaridagidek keskinlik kasb etmadi. Sharqda jamiyatni sekulyarizatsiyalashtirish jarayonlari davom etmoqda, islam davlatlarida bu jarayon hali boshlang‘ich bosqich darajasida turibdi. Shuning uchun Sharqda bu jarayonning davlat xavfsizligiga taxdidini bartaraf etish maqsadida, muayyan qonuniy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Turkiyada, O‘zbekistonda diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tuzish qonun bilan taqiqlangan.

Hozirgi davrda jahon miqyosida va ayniqsa, islam rasman tan olingan dalatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida dinning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borishi kuzatilmoqda. Jamiyatda dinning o‘rni va ahamiyatining ortib borishi bilan birga, diniy ekstremizm va fundamentalizmning unga qarshi kurashi kuchaymoqda. Diniy ekstremizm va fundamentalizmning ijtimoiy hayotdagi faollashuvining sabablari quyidagilardan iborat:

- a) kommunistik mafkuraning yemirilishi sababli, ma’naviy hayotda vujudga kelgan bo‘shliq o‘rnini to‘ldirish zarurati;
- b) sobiq sovetlar davlatida din va dindorlarning ta’qib qilinishi;
- v) odamlarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi va etnik jihatdan o‘zining nasl-nasabini izlashning kuchayishi;
- g) ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar;
- d) xorijiy davlatlarning diniy ekstremistik va fundamentalistik ruhdagi oqim va mazxablarni qo‘llab-quvvatlashi¹.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, diniy ekstremizm va fundamentalizm dinning ijtimoiy hayotga moslashuviga, undagi taraqqiyot, hamkorlik, hamjihatlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishda dinlarning o‘zaro hamkorligiga, dunyoviy fikr va turmush tarziga qarshi bo‘lib, jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikka tahdid soladi.

3. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari

Din insoniyat ma’naviy-madaniy olamining tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga, qadimdan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili vazifasini bajarib kelgan. Lekin unda, konservativizm, dogmatizm va mutaassiblik

¹ Норбеков А.В. Диншунослик асослари: Ўқув қўлланма. – Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси., 2008. – 205-б.

bilan bag‘rikenglik, modernizm va hurfikrlilik tarafdorlari o‘rtasida doimiy kurash boradi. Shunining uchun uning ijtimoiy hayotdagagi o‘rnini kurashuvchi tomonlarning ustunligiga va ijtimoiy hayot talablariga ko‘ra o‘zgarib turgan. Hozirgi davrda fan va texnika inqilobining ijtimoiy hayotga ta’siri tobora ortib borayotganligiga qaramasdan, din jamiyatdagagi o‘z o‘rnini saqlab qoldi va uning dinsiz yashay olmasligi to‘g‘risidagi g‘oya mustahkamlanmoqda.

Ijtimoiy hayotning boshqa jabhalaridagi kabi, dinda ham ziddiyatli jarayonlar kechishing tabiiy bir xolat sifatida qabul qilish kerak. Shuning uchun tarixda diniy e’tiqod buniyodkorlik bilan birga, vayron qiluvchi kuch sifatida ham xizmat qilgan.

Hozirda diniy ekstremizm va fundamentalizm dindagi jamiyatni vayron qiluvchi kuchga aylandi. Qayd etish lozimki, diniy ekstremizm va fundamentalizm barcha dinlarga xos bo‘lgan xususiyat bo‘lib, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar ta’sirida turli darajada o‘zini namoyon qiladi. Jamiyat hayotining barcha sohalari bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi. Zero, unga qarshi kurashda faqat din bilan bog‘liq muammolarni hal etish kutilgan natijani bermaydi. Bu sohada diniy muammolar bilan birga, jamiyatdagagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muammolarni hisobga olish talab qilinadi.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

a) siyosiy sohadagi vazifalar:

- jamiyatda demokratiyani yanada rivojlantirish;
- qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash;
- inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash.

b) iqtisodiy sohadagi vazifalar:

- bozor munosabatlarni rivojlantirish;
- aholining turmush darajasini oshirish.

v) ma’naviy sohadagi vazifalar:

- jamiyatda insonparvarlikni va o‘zgalar fikriga hurmat ruhini shakllantirish;

- o‘zgalar madaniyatini tushunish va ularning tinch-totuv yashashiga shart-sharoitlar yaratish;

- dunyoviy bilimlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

- aholining diniy bilimlari darajasini oshirish, dinshunoslik va ilohiyot sohalarida yetuk mutaxassislarini tarbiyalash.

Hozirgi davrda xalqaro munosabatlarda diniy ekstremizm va fundamentalizm islom dinida o‘ta keskin namoyon bo‘lmoqda. Lekin islomni siyosiy islom bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan terrorizmning tarkibiy elementi deb qarash hatodir. Diniy ekstremizmga qarshi kurashda islom diniga zarar yetkazish xunuk oqibatlarga olib keladi, xalqni davlatga qarshi qo‘yadi, davlatimizning islom dinini rivojlantirish bilan bog‘liq dono siyosatini obro‘sizlantiradi.

O‘zbekistonda davlatning dinga munosabati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

a) dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;

b) diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish. Davlat tashkilotlari kishilarning diniy e’tiqodlariga aralashmasligi kerak;

v) fuqarolarning teng huquqlilagini kafolatlash va ularning toifalanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

g) ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror tiptirishda diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash;

d) dindan buzg‘unchilik maqsadida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikni e’tirof etish.

Xulosa sifatida aytish lozimki, diniy fundamentalizm va ekstremizmga qarshi kurashni malakali olib borish taqozo etildi. Bu ishda o‘ylamasdan ish ko‘rish, shoshma-shosharlik va byurokratizm xalqimiz e’zozlaydigan buyuk qadriyat – islom diniga putur yetkazdi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati nazaridagi obro‘yini to‘kadi.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash ongli asosda olib borilishi darkor. Buning uchun, avvalambor, quyidagi muhim jihatlarni anglab olish lozim:

– din, dinni siyosiylashtirish va fundamentalizm aynan bir narsa emasligini;

– fundamentalizmning globalizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligini;

– fundamentalizm va ekstremizm terrorizm vositasida ijtimoiy voqelikda qaror topishini;

– ekstremizm va fundamentalizmning maqsad va vositalar nuqtai nazaridan farqlanishi va boshq.

Diniy ekstremizm va islom fundamentalizmiga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari aynan shu jihatlarni aniqlash orqali belgilanadi.

Buning sababi – diniy ekstremizm va fundamentalizmning o‘ta jiddiy va qaltis mafkuraviy hodisa ekanlidigadir. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash ko‘r-ko‘rona va biryoqlama olib borilmasligi lozim. Chunki diniy ekstreizm va fundamentalizmga qarshi kurashning samarasi to‘g‘ri ilmiy metodologiyani tanlashga bog‘liqdir.

Ekstremizmga qarshi kurash davomida xalqimizning eng muqqadas qadriyatlaridan biri - islom diniga zarar yetkazish xunuk oqibatlarga olib keladi, xalqni davlatga qarshi qo‘yadi, davlatimiz tomonidan islom dini madaniyatini rivojlantirish, islom madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizni ulug‘lashga qaratilgan dono siyosatiga shak keltiradi, uni obro‘ysizlantradi. Bunga aslo yo‘l qo‘yib bulmaydi. Ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy ongi va siyosiy madaniyati mazkur masalada yetarli bilimlarni egallashni taqozo etadi. Bu esa islom dinini noo‘rin ayplash, unga jangari, agressiv diniy ta’limot, degan siyosiy tamg‘a bosilishining oldini oladi.

Fundamentalizm masalasiga kelsak, unga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishini aniqlashdan oldin, uning asl mohiyatini aniqlash, ijtimoiy taraqqiyot uchun qanchalik xavfli ekanligini anglash lozim. Bu narsani anglamaslik islom fundamentalizmiga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishini aniqlashga imkon bermaydi.

Fundamentalizm jahonda kechayotgan globalizatsiya, standartizatsiya, vesternizatsiya va konsyumerizmga qarshi reaksiya tarzida vujudga keldi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. "Sovuq urush" davri tugagandan so‘ng jahonda umumiy axborot tarmog‘i (Internet), umumiy bozor, umumiy iste’mol, kollektiv hamkorlik, kollektiv xavfsizlik kabi hодисаларга umumiy ehtiyoj sezila boshladi. Islom dunyosi mamlakatlari uchun islom an‘analariga asoslangan turmush tarziga va udumlariga G‘arb standartalari, normalari va qadriyatlarining kirib kelishi an‘anaviy tafakkurda qarshi reaksiya holatlarini shakllantirdi. Yo‘ldosh aloqalari elektron pochta va boshqalar. Sharq olamiga G‘arb qadriyatlarining tobora chuqurroq singib borishini tezlashtirdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, diniy estremizm va fundamentalizmga qarshi kurashni malakali ravishda olib borish taqozo etiladi. Bu ishda savodsizlik xalqimiz e’zozlovchi diniy madaniyat va buyuk qadriyat – islom diniga putur yetkazadi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati nazaridagi obruyini to‘kadi, turli aksilinqilobchi kuchlarga bu narsa qo‘l keladi. Ular

mustaqil O‘zbekiston xalqi tanlagan dunyoviy demokratik taraqqiyotdan chiqib, o‘rtalasri diniy davlatchilik yo‘liga kirishiga jon-jahdi bilan harakat qiladi.

Markaziy Osiyoda islom madaniyati, islom dinining hozirgi zamondagi ahamiyati, diniy ekstremizm va fundamentalizmning mohiyati, xavfi hamda ularning islom madaniyatiga zidligi, unga qarshi kurashishni ichki ishlar organlarining har bir xodimi aniq anglagan bo‘lishlari, islom dini va madaniyatiga yot unsurlarga aniq zarba berish malakasiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «*Din – madaniy, ma’naviy, insoniy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishda beqiyos xizmat qilgan ota-bobolarimizning dini bo‘lmish islom dini misolida shunday xulosa chiqarish uchun hamma asoslarga egamiz» degan fikrlar prezident I. A. Karimovning qaysi asarida o‘z ifodasini topgan?*
2. *Islom dinining asoschisi kim?*
3. *Jahon dinlarini ko‘rsating.*
4. «*Islom» so‘zi qanday ma’nolarni anglatadi?*
5. *Islom dini Markaziy Osiyoga qaysi mamlakatdan kirib kelgan?*
6. *Arablarning islomni tarqatish va rivojlantirish davri qanday nomlangan?*
7. *Arablarning Markaziy Osiyoni arab xalifaligi tarkibiga kiritishida kim yetakchi bo‘lgan?*
8. *Markaziy Osiyoda arab xalifaligiga qarshi qo‘zg‘olonlarga yetakchilik qilgan shaxsni aniqlang.*
9. *Quyidagilardan qaysi biri Imom al-Buxoriyning mashhur asarlari hisoblanadi?*
10. *Imom al-Buxoriyning islom dunyosida eng ishonchli hadislar to‘plami sifatida mashhur bo‘lgan 4 jildli yirik asari qanday nomланади?*
11. *Hadis nima?*
12. *Islom bayramlarini ko‘rsating.*
13. *Quyidagilardan qaysi biri islom bayramlariga taalluqli emas?*
14. *Diniy tashkilotlarning o‘ta mutaassub (fanatik) qismini tashkil etadigan guruhlar mafkurasi va faoliyati qanday nomланади?*
15. *Diniy aqidalarini ijtimoiy hayotga moslashtirish, ilohiy bashorat va mo‘jizalarini juz’iy tushunishni inkor qiluvchi qarashlar majmuiga nima deb aytildi?*

ТАВСИЯ ЭТИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2010.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Ўзбекистон, 2008.

Каримов И. А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т. 17. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2010.

Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир: Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 18 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъruzаси //Халқ сўзи. – 2010. – 8 дек.

Каримов И. А. Ватан ҳимоячиларига байрам табриги //Постда. – 2011. – 14 янв.

Abdullayev M., Umarov E. Madaniyatshunoslik asoslari. O‘quv qo-llanmasi. – Т., 2006.

Abdullayev N. Jahon san’ati tarixi — Т., 2007.

Абдулла Шер. Ахлоқшунослик: Маъruzалар матни. – Т., 2000.

Абдуллаев М., Абдуллаева М. ва бошқ. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т., 1998.

Абдуллоҳ X. И. Марказий Осиёда ислом маданияти. – Т., 2005.

Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. 1–4 жиллар. – Т., 1992.

Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. Т. 1. – Т., 1998.

Азамат Ҳайдаров. Инсон камолоти ва миллий-маънавий қадриятлар. – Т.: Мұхаррир, 2008.

Арзықұлов Д. Н. Дусанов Н. Э. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданияти. – Т., 2010.

Ахмедова Э., Габидулин Р. Культурология мировая культура. – Т., 2001.

Бандурка М., Друзь А. Этнопсихология. — Харковъ, 2000.

Бобомуродов А. Ислом одоби ва маданият. – Т., 1995.

Буюк истеъдод соҳиблари. — Т., 2002.

Гулметов Э. ва бошқ. Маданиятшунослик: Маърузалар матни. – Т., 2000.

Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. – Т., 2005.

Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. – Т., 1998.

Жўраев Н. Агар огоҳ сен... Портретга чизгилар: Сиёсий эссе /Масъул муҳаррир: К. Норматов. – Т., 1998.

Иброҳимов А. ва бошқ. Ватан туйғуси. – Т., 1996.

И момназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. – Т., 1998.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига шарҳлар. – Т., 1999.

Ислом Каримов терроризм хавфи тўғрисида /Тузувчи-муалифлар: Ш. Р. Қобилов, Б. У. Таджиханов. – Т., 2001.

Йўлдошев С. ва бошқ. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Т., 2003.

Кайковус. Қобуснома. – Т., 1994.

Карабаев У. Этнокультура. — Т., 2005.

Караматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Т., 1993.

Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К 1. – Т., 1996.

Мадалиева З. Ҳуқуқий маданият ва ёшлар. – Т., 2008.

Махмудов Р. Ҳуқуқ ва маданият. – Т., 1994.

Махмудов Р. М. Шахс ҳуқуқий ижтимоийлашувининг назарияси ва амалиёти. – Т., 2010.

Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Имон: Ислом, Қуръон, одоб-ахлоқ. – Т., 1992.

Муҳаммадиев Н. Э. Ички ишлар органлари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. – Т., 1998.

Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Т., 1994.

Назаров Қ. Н. Аксиология: қадриятлар фалсафаси. – Т., 1998.

Одилқориев Ҳ. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002.

Одилқориев Ҳ. Т., Гойибназаров Ш. Ф. Сиёсий маданият. – Т., 2004.

Одилқориев Ҳ. Т., Яқубов Ш. У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар: Монография. – Т.: SMIA-ASIA, 2010.

Ортиқов А. А. ва бошқ. Хуфиёна иқтисодиёт. – Т., 2002.

Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. — Т., 2008.

Самохвалова В. И. Культурология: Краткий курс лекций. – М., 2002.

Саттор М. Ўзбек удумлари. – Т., 1993.

Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. – Т., 1995.

- Термизий Ҳожа Самандар.* Дастур ул-мулк: Подшоҳларга қўлланма / Форс-тожикчадан эркин таржима, сўз боши, изоҳлар муаллифи: Ж. Эсонов. – Т., 1997.
- Тўланов Ж.* Қадриятлар фалсафаси. – Т., 1998.
- Тўрақулов Э., Раҳимов С.* Абу Райхон Беруний руҳият ва таълим-тарбия ҳақида. – Т., 1992.
- Тўхлиев Н.* Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти. – Т., 1998.
- Улугбек Сайдов.* Шарқ ва Ғарб: маданиятлари туташган манзиллар. – Т., 2008.
- Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э.* Культурология. — Т., 2006.
- Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э.* Культурология: Учебное пособие для студентов вузов. – Т., 2006.
- Федоров А. А.* Введение в теорию и историю культуры: Словарь – М., 2005.
- Флиер А. Я.* Культурология для культурологов: Учеб. пособие для вузов. – М., 2005.
- Форобий.* Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993.
- Худойқулов Х. Ж., Баратов Р. Ў.* Маданиятшунослик. – Т., 2007.
- Шендрик А. И.* Теория культуры: Учебное пособие для вузов. – М., 2002.
- Шодиев Н., Шукуллаева С.* Ёшларга аждодларимизнинг илмий месроси ҳақида. – Т., 2008.
- Шодмонқул Азизов, Санобар Азизова.* Маърифатпарварлик – ижтимоий-маданий ҳодиса. – Т., 2008
- Экономические основы культурной деятельности: Индивидуальные предпочтения и общественный интерес. В 3 т. – СПб., 2006.
- Эргашев И.* Миллий қадриятлар: ёшлар, замон ва келажак // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2006. – 1-сон.
- Эргашев Ш.* Цивилизация: глобаллашув муаммолари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2006. – 2-сон.
- Юсуп ов Э., Исмоилов Ф.* Одамийлик сабоқлари. – Т., 1997.
- Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т., 1995.
- Ҳамид Зиёев.* Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. – Т., 2008.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....3

**1-MAVZU. MADANIYATSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSADI
VA VAZIFALARI. «MADANIYAT» TUSHUNCHASINING TALQINI**

- | | |
|---|----|
| 1. Madaniyatshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari..... | 5 |
| 2. Madaniyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni..... | 11 |
| 3. Madaniyatshunoslik fanining ichki ishlar organlari
xodimlari faoliyatidagi ahamiyati..... | 23 |

**2-MAVZU. JAHON MADANIY TARAQQIYOTINING
ASOSIY QONUNIYATLARI**

- | | |
|--|----|
| 1. Moddiy va ma’naviy madaniyat hamda ularning o‘zaro
aloqadorligi..... | 32 |
| 2. Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatning asosiy
turlari va yo‘nalishlari..... | 39 |
| 3. Madaniy va ma’naviy merosni saqlash va himoya qilishda ichki
ishlar organlari xodimlarining o‘rni..... | 52 |

**3-MAVZU. MUSTAQILLIK SHAROITIDA O‘ZBEK MILLIY
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

- | | |
|--|----|
| 1. Mustaqillik sharoitida o‘zbek milliy madaniyatining rivojlanishi..... | 58 |
| 2. Mustaqillik sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jamiyat
taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi sifatida..... | 63 |
| 3. Istiqlol yillarda o‘zbek madaniy hayotidagi o‘zgarishlar..... | 68 |

**4-MAVZU. JAHON MADANIYATINING VUJUDGA KELISHI, UNING
BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

- | | |
|--|----|
| 1. Arxaik (ibridoij) madaniyat haqida umumiy tushuncha..... | 76 |
| 2. Jahon madaniyatining vujudga kelishida an’anaviy va
diniy madaniyat..... | 81 |
| 3. Texnogen madaniyati shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari..... | 91 |

**5-MAVZU. MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MADANIYATI
VA UNING JAHON MADANIYATI RIVOJIDA
TUTGAN O'RNI**

1. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari.....	101
2. Juhon madaniyati rivojlanishida Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro aloqadorligi.....	105
3. XV–XX asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati.....	111

**6-MAVZU. MARKAZIY OSIYODA ISLOM MADANIYATI VA
UNING DINIY EKSTREMIZM VA FUNDAMENTALIZMGA
QARAMA-QARSHILIGI**

1. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida islam dinining o'rni.....	119
2. Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mohiyati, maqsadi va xavfi: ularning Markaziy Osiyodagi islam madaniyatiga zidligi.....	122
3. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo'nalishlari.....	127
TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR	132

ARZIQULOV DILSHOD NE'MATOVICH

psixologiya fanlari nomzodi,dotsent

MADANIYATSHUNOSLIK

Ma'ruzalar kursi

Muharrir S. S. Qosimov

Texnik muharrir D. X. Hamidullayev

Bosishga ruxsat etildi 22.05.2012. Nashriyot hisob tabog'i 8,5.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma Bahosi shartnomasi asosida.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68.